

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY  
VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

ASHUROVA TO‘LG‘ANOY

Maktabgacha ta‘lim muassasalarida  
sensor tarbiya:nazariyasi va amaliyoti.

O‘QUV USLUBIY QO‘LLANMA

O'quv-uslubiy qo'llanmada maktabgacha ta'lim muassasalarida sensor tarbiya vositasi orqali bolalar nutqini rivojlantirishning nazariy asoslarini aniqlash hamda sensor tarbiya vositasida bolalar nutqini rivojlantirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar beriladi.

Mavzu yuzasidan nazariy manbalar va maktabgacha ta'lim amaliyotini o'rganish asosida bolalar nutqini sensor tarbiya orqali rivojlantirish pedagogik muammo ekanligini nazariy jihatdan asoslanadi. Sensor tarbiya orqali bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari aniqlandi. Sensor tarbiya vositasida bolalar nutqini rivojlantirish jarayonining mazmuni, usullari, metodlari tanlandi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida sensor tarbiya orqali bolalar nutqini rivojlantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish yo'llari va sensor tarbiya vositasida bolalar nutqini rivojlantirish ko'rsatiladi.

O'quv-uslubiy qo'llanma Oliy ta'lim tizimi maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistr va bakalavrlar, maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlari va mutaxassislari, metodistlari, kasb-hunar ta'limi o'qituvchilari va maktabdan ta'lim muassasalari tarbiyachilari uchun metodik qo'llanma sifatida tavsiya etiladi.

O'quv-uslubiy qo'llanma Qarshi Davlat universiteti Ilmiy Kengashining 2018 yil .....-son bayonnomasiga ko'ra nashrga tavsiya etilgan.

Tuzuvchi:

Mas'ul muharrirlar:

Taqrizchilar:

## KIRISH

Respublikamizda amalga oshiriladigan barcha jabhalardagi o'zgarishlar, bugungi kunda dolzarb muammolarni hal etishga qaratilgan. Har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, fidoiy va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor qaratildi. Bugungi kunga kelib iqtisodiyotning barcha sohalari kabi ta'lim tizimida ham amalga oshirilgan islohotlar o'zining ijobiy natijasini ko'rsatmoqda. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy yetuk va jahon andozalari talablariga javob bera oladigan, mustaqil bilim olish, o'rganish, va ijodiy ishlash qobiliyatiga ega, kelajakda kasbiy va hayotiy muammolarni mustaqil hal qiladigan yuksak ma'naviyatli shaxs qilib tayyorlash oliy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bu vazifalar albatta pedagoglar, murabbiylar, ota-onalar oldiga yuksak mas'uliyatni qo'yadi.

Davlatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyevning bugungi kunda olib borayotgan barcha yangi islohatlari, millatimiz xalqlarini farovon yashashi uchun, yoshlarimizni dunyo yoshlari bilan raqobat qila olishlari uchun, barcha qulaylik va sharoitlarni yaratmoqdalar. Jumladan: "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyida so'zlagan nutqlarida "...Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda.

"Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi", deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi" deb ta'kidlaydilar. Bu esa o'z navbatida yoshlar tarbiyasi davlatimiz siyosatiga aylanganidan dalolat beradi.

Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017—2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2016 yil 29 dekabrda PQ—2707 qaroriga muvofiq "Maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" gi qarorini qabul qilinishi ham islohatlarni barqaror amalga oshirayotganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasidagi mavjud bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etish masalasiga pedagogik jihatdan chuqur yondashishni taqazo qilmoqda. O'zbek pedagoglari e'tiboridan maktabgacha ta'limning ko'pgina masalalari chetda qolmoqda.

Buning natijasida tarbiyachilar ilmiy-pedagogik jihatdan yetarlicha asoslanmagan tavsiyalar va ko'rsatmalardan foydalanishga majbur bo'lmoqdalar. Bu ayniqsa sensor tarbiya asosida bolalar nutqini o'stirish muammosi ilmiy jihatdan asoslanmaganligida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Biroq, aksariyat hollarda tarbiyachilar faqatgina pedagoglar tomonidan yaratilgan tavsiyalardan foydalanishga majbur bo'lmoqdalar. Bu esa maktabgacha ta'lim samaradorligining bir qadar past bo'lishiga olib kelmoqda.

Ma'lumki, o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab maktabgacha yoshdagi bolalarni sensor tarbiyalash nazariyasiga asos solindi:

- dastlab bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy-amaliy konferensiyalarda sensor tarbiya masalalariga murojaat qilindi;
- kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor qobiliyatlar va shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik-psixologik qarashlarga bag'ishlangan ilmiy maqolalar vujudga keldi;
- go'daklik davri va kichik maktabgacha yoshdagi bolalar sensor tarbiyasining konseptual asoslari taqdim etildi.

Bularning barchasi bolalarni sensor tarbiyalash asoslarini ishlab chiqish imkoniyatini kengaytirdi.

Bolaning bilish vazifalarini pedagogik jihatdan to'g'ri yechgandagina, uning idroki va nutqi samarali rivojlanadi. Bu o'z navbatida atrof-muhitdagi narsalar va hodisalar, ularning o'zaro munosabatlari, xususiyatlarini bola tomonidan jadal o'zlashtirishga imkoniyat yaratadi.

Ta'lim jarayonini takomillashtirish va yuqori pog'onaga ko'tarish har bir bolaning yosh xususiyatlariga qarab, ularning imkoniyatlaridan keng foydalanishni nazarda tutadi.

O'tgan davr mobaynida maktabgacha ta'lim muassasalari uchun Davlat talablari ishlab chiqildi va mazkur talablar muntazam takomillashtirilmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimida erishilgan natijalarni haqqoniy baholash imkoniyatlari kengaymoqda.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar nutqini shakllantirish va muntazam rivojlantirish, bunda sensor tarbiya imkoniyatlaridan foydalanish alohida pedagogik ahamiyatga ega.

O'tgan davr mobaynida sensor tarbiyaga nisbatan keng ko'lamdagi pedagogik yondashuvlar amalga oshirilgan:

sensor tarbiya muammolariga dastlab rus olimlari XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida e'tibor qaratganlar. Bola taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega bo'lgan sensor tarbiya dastlabki taniqli rus olimlarini ishlari; O'tgan asrning oxirlarida maktabgacha ta'limda sensor tarbiya muammolari bilan shug'ullangan olimlarni; buyumlarning xususiyatiga qarab maktabgacha yoshdagi bolalar harakatidagi o'zgarishlarni nazariyasi borasida bir qator olimlar ishi;

bolalarni sensor tarbiyalash asosida ularning nutqi va tasavvurlarini o'stirish, ularda narsalarning sifati haqida eng oddiy hamda murakkab umumlashma tushunchalarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari borasidagi qator ishlar; bolalarda sensor qobiliyatlarni didaktik o'yinlar orqali rivojlantirish omillari haqidagi tadqiqotchilar ishi;

bolalarni buyumlar bilan tanishtirish va mahsuldor usullar yordamida tarbiyalash jarayonida ularning sensor qobiliyatlarini rivojlantirish (tasviriy faoliyati misolida tadqiq etilgan);

maktabgacha ta'lim nazariyasida sensor tarbiyaga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Bunday yondashuvlar bilan shug'ullanganlar; Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini sensor tarbiya vositasida o'stirish bilan bog'liq muammolarni aniq belgilab olish, ushbu muammoning turli jihatlari tomonidan o'rganilgan;

maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchi bolalarning nutqini rivojlantirish muammolari bo'yicha tadqiq etilgan barcha ishlarni olib borgan, xorij, rus va o'zbek olimlarini ishlari qo'llanmaning "Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar nutqini sensor tarbiya vositasida rivojlantirishning nazariy asoslari" qismida yoritib beriladi;

Mavjud nazariy-amaliy yondashuvlarni tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar nutqini sensor tarbiya vositasida rivojlantirish bugungi kunda qadar maxsus muammoni yechish obyekti bo'lmagan. Mazkur muammoning yechimi maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar nutqini sensor tarbiya vositasida rivojlantirishda muayyan samaradorlikka erishish imkonini beradi.

O'quv-uslubiy qo'llanmaning ilmiy-metodologik asoslari: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, bu masalani bugungi kundagi yechimini topishga asoslangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning bir qator farmoyishlari, farmonlari, qarorlari ,

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning barkamol avlodni shakllantirish haqidagi qarashlari, yondashuvlari, Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi va davlat talablari, "Ilk qadam" dasturi, Nizomlar, Xalq ta'limi vazirligining maktabgacha ta'limni rivojlantirishga oid meyoriy hujjatlari, ta'limning ilmiy – nazariy va amaliy muammolariga qaratilgan mamlakatimiz va xorijiy davlatlar olimlarining ishlari o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishga qaratilgan izlanishlar, o'quv adabiyotlarini tahlil qilish va sifatini baholash metodlari mavzuga oid elektron darsliklarni yaratish bo'yicha ilmiy-uslubiy ishlar va pedagogik texnologiyalar tashkil etadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar nutqini sensor tarbiya orqali rivojlantirishning nazariy asoslari

Sensor tarbiya lotincha so'z bo'lib, hissiyotlarni tarbiyalash, bolalarning hissiy jarayonlarini muayyan maqsadga yo'naltirilgan holda to'laqonli rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu jarayonda bolalarning hissiyotlari, tasavvurlari, idroklari tarbiyalanadi. Sensor jarayonlar o'zida bilishning dastlabki bosqichini mujassamlashtiradi. Bolalarning hissiy bilish sohasini shakllantiradi. Shuning uchun ham sensor tarbiya aqliy tarbiya jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra sensor tarbiya bolalarning aqliy rivojlanishlari va estetik tarbiyalari uchun asos yaratadi. Bu jarayonda hissiyotlardan unumli bilishga o'tiladi. Idrok qilishdan tafakkurga tomon rivojlanish vujudga keladi. Bolalarda izchil intellektual faoliyat tarkib topa boshlaydi. Shuning uchun ham sensor tarbiya jarayoni bolaning amaliy faoliyati rivojlanishida alohida o'rin egallaydi.

Sensor tarbiya jarayoni o'zida buyumlarning shakllari, hajmi, ular orasidagi munosabatlar ko'lamini idrok etish, musiqa tinglash qobiliyati, nutqni tovush jihatdan tahlil qilish ko'nikmasining takomillashishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham sensor tarbiya maktabgacha ta'lim jarayonida alohida ahamiyatga ega. Chunki aynan shu davrda boladagi hissiy jarayonlar jadal rivojlanadi. Bu davrda hissiy a'zolarining mashq asosida rivojlanishiga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Chuqur o'ylangan pedagogik-psixologik asoslarga tayangan holda tashkil etilgan faoliyat jarayoni bolada turli-tuman hissiy layoqatlarning shakllanishiga imkon beradi.

O'tgan XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, bolalarning sensor tarbiyasiga alohida e'tibor qaratila boshlandi, uning ilmiy asoslarini chuqurlashtirishga kirishildi. Chunki maktabgacha ta'lim jarayoni bolaning kelajakdagi taraqqiyotini ta'minlovchi muhim bosqich hisoblanadi. Pedagoglarning diqqat-e'tibori xuddi mana shu bosqichni ilmiy-metodik jihatdan ta'minlashga qaratildi. Mazkur bosqichda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolaning imkoniyatlarini maksimum darajada ro'yobga chiqarish uchun qulay pedagogik sharoit yaratadi. Chunki bolaning har bir yosh davri o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlarga ega. Masalan, kichik maktabgacha ta'lim davri boladagi idrok qilish jarayonining jadal rivojlanishi bilan xarakterlanadi.

Shuning uchun ham sensor tarbiya va bola idrokining vujudga kelishi masalasi ko'pgina mutaxassislar e'tiborini o'ziga qaratib kelmoqda. Chunki sensor tarbiya bolaning atrof-muhitni to'liq idrok etishini ta'minlashga yo'naltirilgandir. Atrof-muhitdagi narsa-buyumlarni to'liq idrok etgan taqdirdagina bola uni o'z nutqida ifodalay oladi. Olamni idrok etish, bilish asosi sifatida bolaning hissiy tajribasi muhim ahamiyatga ega. Aqliy, estetik, axloqiy tarbiyaning muvaffaqiyati bolaning hissiy rivojlanishiga bevosita bog'liqdir. Bola atrofdagilarni qanchalik aniq ko'ra olsa, tovushlarni tinglasa, ularni farqlasa, o'ziga xos jihatlarini sezsa, nutqi rivojlanishi uchun muhim asos vujudga keladi.

Bugungi kunda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga pedagoglar e'tiborini qaratish alohida dolzarflik kasb etmoqda. Bu jarayonda bolaning mustaqilligi va tashabbuskorligini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Muayyan vaziyatlarda bolaning faol hatti-harakati, xulq-atvori, faoliyati, boshqalar

bilan muloqoti unga hodisalar va narsalarning mohiyatini aniqlash imkonini beradi. Bularning barchasi bolaning hissiy layoqatini rivojlantiradi va soʻz boyligini oshiradi.

Ayni vaqtda taʼlim amaliyotida qatʼiy talablar va davlat buyurtmasi asosida tashkil etiladigan taʼlim-tarbiya jarayoniga nisbatan ehtiyoj kuchaymoqda. Chunki Oʻzbekiston davlati va jamiyati shaxsning erkin rivojlanishi uchun qulay pedagogik imkoniyatlarni yaratishga alohida gʻamxoʻrlik qilmoqda. Maktabgacha taʼlim bosqichida har bir bola davlat talablarida nazarda tutilgan soʻz boyligi, mazkur soʻzlardan nutqda foydalanish koʻnikmasiga ega boʻlishi lozim.

Bugungi kunda maktabgacha taʼlim jarayonining mazmuni tubdan yangilanmoqda. Mazkur jarayonda M.Montessori usulidagi yangi pedagogik texnologiyalar tadbiiq etilmoqda. Shu tariqa maktabgacha taʼlim jarayoniga qimmatli gʻoyalar, tajribalar tadbiiq etilmoqda. Bolaning har tomonlama rivojlanishi va muhim nutqiy koʻnikmalarga ega boʻlishida sensor tarbiya alohida oʻrin egallaydi. Buning uchun maktabgacha taʼlim jarayoniga sensor tarbiyani keng tadbiiq etish taqozo qilinmoqda.

Masalaga shu nuqtai nazardan qaraydigan boʻlsak, maktabgacha taʼlim muassasalarida pedagogik jarayonni sensor tarbiya asosida bolalarning nutqini oʻstirish maqsadini koʻzlagan holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

G.L. Rozengart-Pupko bolaning nutqni tushunish (idrok qilish) jarayonini tahlil qilib, koʻruv idroki va buyumlarga koʻz yugurtirib, ularning nomlarini tushunish rivojlanishiga yordam beradi, - degan xulosaga keladi. Z.I. Barabanova esa, bolaning nutqni idrok qilish jarayonini tekshirib, undagi turli analizatorlarning ahamiyatiga baho beradi. Uning taʼkidlashicha, qoʻzgʻatuvchi 10 marta namoyon boʻlishida koʻrish analizatorlarining yoʻnalishi bolada 86 % gacha saqlanadi, eshitish analizatorlarining 60% esa yoʻqola boshlagan.

D.B. Elkonin ning taʼkidlashicha esa, nutqni tushunish vujudga kelishining asosoy shartlari quyidagilardan iborat:

1.Umumiy holatdan asosiy fikrni ajrata olish;

2.Narsalarga diqqatini qaratish;

3.Favqulodda holatga qarab anglanadigan his-tuygʻuning mavjudligi va boshqalar.

Ilk va maktabgacha kichik yoshdagi bolalarni buyumlarning shakli, hajmi va rangi bilan tanishtirish, ularning nomlarini oʻrgatish hamda xususiyatlari haqida aniq tasavvur hosil qilishda sensor tarbiya jarayonidan unumli foydalanish zarurligini kuzatishlarimiz yaqqol koʻrsatmoqda. Sensor tarbiya maqsadga muvofiq tarzda yoʻlga qoʻyilsa, bolalarning nafaqat nutqi, balki axloqiy-estetik tasavvurlari boyitiladi, jismoniy rivojlanishlari taʼminlanadi.

Sensor harakatlar bolalarning nutqini rivojlantirish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Bolalarda buyumlarning shakli va rangini farqlash koʻnikmasi shakllangan boʻlsa, ular atrofdagi narsalarning xususiyatlari haqida aniq tasavvurga ega boʻladilar. Bu esa ularning tasvirlash, rasm chizish, loy, plastilin, qogʻoz va matodan turli xil narsalar yasash hamda qurish koʻnikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Tevarak-atrofdagi buyumlarning shakli, hajmi, tuzilishi, ranglarini ajrata olish koʻnikmalarining shakllanganligi bola bilish faoliyatini tarkib toptirishning muhim

shartidir. Sensor tarbiya jarayonida bolalar turli buyumlar, tabiat hodisalari, hayvonot va o'simliklar olami bilan tanishtirilishlari natijasida ularning o'ziga xos jihatlarini bilib oladilar. Bu o'z navbatida ular nutqining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Buyumlarning turli-tuman ranglari, shakllari, hajmi va fazoviy holatlarini bolalar o'z ko'zlari bilan ko'rgandagina ular haqida aniq tasavvurga ega bo'ladilar va har birining nomlarini yodda saqlaydilar. Ba'zi buyumlar, qushlarning tovushlarini musiqaga qiyoslagan holda idrok etadilar. Buyumlarning qattiq-yumshoq, yengil-og'ir, sovuq yoki issiqligini qo'llari bilan ushlab sezadilar va nutqlarida ifodalaydilar.

Sensor tarbiya bolaning sezgilari va idrokini muayyan maqsadga yo'naltirgan, ayniqsa ularning nutqini rivojlantirishga qaratilgan holda tashkil etish kerak. Har qanday nutqni rivojlantirish jarayoni bolaning borliqni sezishi va idrok etishi bilan bevosita bog'liq holda amalga oshiriladi. Chunki bolaning nutqi uning fikr ifodalash jarayonida amal qiladigan hodisadir. Maktabgacha ta'lim jarayonida bolaning og'zaki nutqi, ya'ni so'zlash faoliyati rivojlantiriladi. Bolaning so'z boyligi ortib, nutqi rivojlangan sari uning fikrlash jarayoni tezlashadi. Bu jarayonda ularning sezgilari, idroklari, hissiyotlari, xotiralari, o'y-xayollari tarkib topib, namoyon bo'la boshlaydi.

Bolalar ko'rish, sezish, ularning nomlarini o'rganish yordamida tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar to'g'risida tasavvurga ega bo'ladilar. Agar bolaning sezgilari va idroki sensor tarbiya jarayonida takomillashtirilsa, uning tevarak-atrof, olam haqidagi tasavvurlari shunchalik kengayadi. Bolalarning sensor tarbiyasi, ularda sezgi va idrokning rivojlanish darajasi bilish faoliyatining kengayishi uchun muhimdir.

Pedagogikada sensor tarbiya deganda bolalarda ta'sirchanlik qobiliyati, sezish hamda idrokni takomillashtirishga qaratilgan pedagogik ta'sir turlari tushuniladi.

Pedagogikada sensor tarbiyaning mazmuni va usullarini aniq belgilash, psixologiyada idrok va sezish muammolarining qanday tushunilishiga bog'liq. Bunda:

1. Idrok qilish jarayonida bola o'z hayotiy tajribasi davomida nimani egallangan?
2. Bolaning nutq faoliyatini rivojlantirish qanday amalga oshiriladi? degan savollarga javob izlash alohida ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim nazariyasida sensor tarbiyaga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Bunday yondashuvlar F.Frebel, M.Montessori, O.Dekroli, YE.I.Tixeyeva va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan. O'zbek pedagoglaridan Sh.A.Abdullayeva, M.Rasulova, Oxunova[, L.Nazirovalar mazkur muammo bilan shug'ullanganlar. Ushbu tizimning vujudga kelishi va shakllanishi psixologiyadagi idrok etish nazariyasi bilan bevosita bog'liqdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar taraqqiyotining har bir bosqichi ularning ruhiy rivojlanishiga ko'ra o'zaro farqlanadi. Bolalar bilan metodik mashqlarni bajarishda ularning yoshi, individual xususiyatlariga tayangan holda mashg'ulotlarni tashkil etish, ular nutqining muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi. Rus olimlari N.Pod'd'yakov va V.Avanesovlar ta'kidlaganlaridek, bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida rivojlantirish ularning aqliy taraqqiyoti va ko'nikmalari doirasini kengaytiradi.

Bolalarning maktabda bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari uchun ta'lim-tarbiyaviy ishlarni maktabgacha ta'lim muassasalarida kuchaytirish va ularni o'rab turgan narsa-buyumlarga nisbatan sinchkov, qiziquvchan bo'lishga o'rgatish zarur. Buning natijasida bolalarning dunyoqarashlari va nutqlari rivojlanadi.

Bolalarning sezgilarini rivojlantirish orqali ularning nutqini o'stirish nazariyasi va amaliyotini O.Roziqov, R.Safarova, Sh.Abdullayeva, E.G'oziyev, A.Usova, N.Sakulina, L.Venger, V.Muxin singari pedagog va psixologlar ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Sezgi orqali bolalarning nutqini o'stirish ularning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Sensor jarayonlar sezgi a'zolari faoliyati bilan bog'liqligini N.Podd'yakov va V.Avanesovlar ko'p bora ta'kidlaganlar.

Maktabgacha yosh davrda bolalarda narsalarning nomlari, shakllari, ranglarini idrok etish va eslab qolish jarayoni jadal kechadi. Bunda narsa-buyumlar haqidagi barcha tasavvurlar bevosita ko'rib, nomini eshitish va ular yordamida turli harakatlarni bajarish jarayonida shakllanib boradi. Bolalardagi his qilish va idrok etish jarayoni ularning so'zlarni o'zlashtirish va ular yordamida fikrlash ko'nikmalarini jadal rivojlantiradi. Shunga ko'ra maktabgacha yoshdagi bolalarga muayyan so'zlarni o'rgatayotganda aniqlik tamoyiliga tayanish lozim. Bu asrlar davomida sinalgan didaktik tamoyillardan biridir. Uning zamirida bir qator didaktik qonuniyatlar o'z ifodasini topgan. Bolalarning hissiy a'zolari tashqi ta'sirlarni turlicha qabul qilishi, aksariyat bolalarda voqea-hodisalardan ta'sirlanishning kuchli bo'lishi kabilari.

Sensor tarbiya orqali bolalar nutqini o'stirishda nafaqat ko'rganlarini idrok etish, balki tinglash layoqatining mavjud darajasini ham hisobga olish lozim. Sensor tarbiya orqali bolalar nutqini o'stirishda turli buyumlarning nomlari, ularning xususiyatlarini bolalarga aniq, to'liq yetkazish, narsalarning ranglari, shakllari, hajmi haqida muayyan tasavvur hosil qilish zarur.

Pedagogik-psixologik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning nutqini o'stirishda sensor tarbiya jarayonidan foydalanish ularning umumiy, aqliy rivojlanishlarini ta'minlash imkonini beradi.

Sensor tarbiyaning birinchi bosqichi hissiy tajribaga asoslangan tushunchalar: bizni o'rab turgan borliq, hayotni anglash, erkin fikrlash kabilarni maktabgacha yoshdagi bolalarda shakllantirishda poydevor sifatida xizmat qilishga qaratilgan.

Aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyadagi muvaffaqiyatlar maktabgacha ta'lim muassasalarida sensor tarbiya vositasida bolalar nutqini o'stirishga qay darajada e'tibor berilayotganligi, ya'ni, ularning so'zlarni ko'rgan, eshitganlari bilan bog'lagan holda idrok etishlari, atrof-muhitdagi voqea-hodisalarni anglab, ular haqida fikr bayon qila olishlari, o'zlari qo'llagan so'zlarning ma'nolarini tasavvur qila olishlari lozim.

Bola ulg'aygan sari uning atrofdagi narsalarga ko'rsatadigan ta'siri, buyumlar haqidagi tushunchalari, tasavvurlari, boshqalarning fikrlarini qabul qilish ko'nikmalari takomillashib boradi. Shu munosabat bilan ulg'ayish bosqichi keyingi psixologik rivojlanish va umumiy anglashda samarali natija beradi. Bola qancha kichik yoshda bo'lsa, his qilish darajasi ham uning hayotida shu qadar katta ahamiyat egallaydi.

Narsalarning xususiyatlarini o'zlashtirish jarayonida ular haqida to'liqroq tasavvurga ega bo'lish uchun bola buyumlarning o'zaro farqlanuvchi xususiyatlaridan bir vaqtning o'zida foydalanishni o'rganishi lozim.

Sensor tarbiya jarayonida bolalarga turli buyumlarni o'zaro bir-biridan farqlashda ularning nomi, shakllari, hajmi, rangi haqida tushuncha berish kerak. Ko'pgina pedagoglar va psixologlar, jumladan L.Venger, V.Muxinalarning fikrlariga ko'ra, sensor tarbiya bola uchun o'zini o'rab turgan olamni hissiyotlar yordamida anglash hamda uning nutqi va fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonidir. Bularning barchasi maktabgacha ta'lim muassasasida mashg'ulotlar davomida sensor tarbiyaning muhim shartlaridan bo'lib hisoblanadi.

Sensor tarbiyaning bola nutqini rivojlantirishdagi ahamiyatini baholash pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki bu davrda bolalarning fazoviy jismlar, tevarak-atrofdagi buyumlar, ularning nomlari haqidagi tushunchalari va so'z zaxiralari yetarlicha shakllanmagan bo'ladi. Rivojlanishning mazkur bosqichida bolalarning xotiralari, sezgilari va idroklari jadal rivojlana boshlaydi. Ularning tevarak-atrofdagi buyumlarning nomlari va xususiyatlarni bilishga bo'lgan qiziqishlari muntazam ortib boradi.

Ilk maktabgacha yoshdagi bolalar buyumlarning nomlari, ular orasidagi tafovutlar, narsalarning rangi, shakli, hajmi, yumshoq-qattiqligi, hidi va mazasini ajrata biladilar.

Sensor tarbiya asoschilaridan biri Mariya Montessori maktabgacha tarbiya pedagogikasining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biridir. M.Montessori tizimi narsalarning nomi, hajmi, rangi, shaklini farqlashga oid mashqlar (ko'rish, sezish mashqlari), narsa va buyumlarning sathlari, xususiyatlarini farqlashga doir mashqlar, harorat, og'irlik hamda tovushlarning baland-pastligi, hid va ta'mni farqlashga xos mashqlarni o'z ichiga oladi.

Bolani sensor tarbiyalashda Mariya Montessori harakatlarning ta'sirlarini farqlaydigan mashqlarga taqqoslash va ajratishga alohida ahamiyat bergan. Mashqlarni bajarish jarayonida bolaning erkin va mustaqil bo'lishi talab qilinadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini sensor tarbiya vositasida rivojlantirish masalasi ko'plab mutaxassislarining diqqat markazida bo'lgan. Jumladan, N.M.Shchelavanov, N.M.Aksarina, A.V.Zaporojets, L.A.Venger, YE.I.Radina, G.M.Lyamina, N.F.Ladiginalar ilk yoshdagi bolalarning sensor rivojlanishiga doir xususiyatlarni o'rganishga ko'proq e'tibor berish zarur, degan fikrni ilgari surganlar.

Taniqli mutaxassislar F.Frebel, M.Montessori, O.Dekroli, YE.I.Tixeyeva, A.V.Zaporojets, A.P.Usova, N.P.Sakulinalar to'laqonli sensor rivojlanishni ta'minlashga yo'naltirilgan sensor tarbiyani haqli ravishda maktabgacha tarbiyaning asosiy tomonlaridan biri, deb hisoblaydilar. Ular maktab yoshidagi bolalar ongini rivojlantirishning asosi hissiyot orqali tarbiyalashdan iborat ekanligini alohida ta'kidlaganlar.

Sensor rivojlanish bola umumiy aqliy rivojlanishining poydevorini tashkil qiladi, zero, to'laqonli idrok etish bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalarida muvaffaqiyatli tarbiyalanishlarida muhim ahamiyatga ega.

Professor N.Shchelovanov his qilish orqali tarbiyalashda go‘daklikni “oltin davr” deb hisoblaydi. Maktabgacha ta’lim pedagogikasida mazkur muammo markaziy o‘rin egallaydi.

Maktabgacha ta’lim pedagogikasining taniqli vakillari (Y.Kamenskiy, F.Frebel, M.Montessori, O.Dekroli, YE.Tixeyeva va boshqalar) tomonidan bolalarni buyumlarning belgi va xususiyatlari bilan tanishtiradigan turli didaktik o‘yinlar hamda mashqlar ishlab chiqilgan. Ularning sensor tarbiya prinsiplari va nuqtai nazarlariga asoslangan tahlillari bolalar nutqini rivojlantirishda sensor tarbiyadan foydalanishning yangi shakllari va metodlarini ishlab chiqishni taqozo qilmoqda.

A.Zaporojets, A.Usova, N.Sakulina, A.Venger, Podd’yakovlar tomonidan zamonaviy didaktik prinsiplar asosida ishlab chiqilgan sensor tarbiyani tashkil etishga oid yondashuvlar negizida mazkur jarayonni rivojlantirish zaruriyati mavjud.

Sensor tarbiya nazariyasida 4 ta qat’iy tan olingan tamoyil mavjud. Ular quyidagilar:

- 1) bolalarga atrof-muhit, unda mavjud bo‘lgan narsalar haqida yetarlicha ma’lumotlar berish, tushuncha va tasavvurlar hosil qilish;
- 2) narsa va buyumlarning turli-tuman xususiyatlari bilan bolalarni tanishtirish va ulardan mazkur xususiyatlarning barchasini o‘zlashtirishni talab qilish imkonsiz ekanligini anglab yetish;
- 3) bolaning atrof-muhitni bilish asosida to‘g‘ri mo‘ljal olishi, narsa va buyumlarning nomi, rangi, shaklini bilish darajasini aniqlash maqsadida o‘ziga xos tekshirishlar o‘tkazish;
- 4) bolada muayyan narsalar haqida tushuncha va tasavvurlarni hosil qilishni nazarda tutish, bunda bola o‘zida mavjud bo‘lgan tushuncha va tasavvurlarni yangilari bilan taqqoslay olishi lozim.

Bola o‘zi egallagan tushunchalar, bilimlar va axborotlar zaminida yangi narsalar va hodisalarni taniydi va idrok eta boshlaydi.

Insoniyat o‘zining ko‘p asrlik tarixi davomida narsalarning ranglari, shakllari va hajmlarining muayyan andozasini yarata olgan. Bunday tasavvurga ega bo‘lgan bolalar o‘zlashtirgan bilimlarini o‘rgangan yangi ma’lumotlari bilan taqqoslash va ulardan tegishli xulosa chiqarish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. Atrof-muhitdagi rang-baranglikni o‘zlashtirish bolaga mavjud voqelikni imkon qadar aniq idrok etish uchun qulaylik yaratadi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan tamoyillarni go‘daklik va maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish jarayoniga tadbiiq etish lozim. Buning uchun:

1. Bolalar narsa va buyumlarning nomi va xususiyatlarini qanday izchillikda farqlay boshlashi;
2. Narsa va buyumlarning nomi, xususiyati, hajmi, rangini ifodalovchi so‘zlarning qanday talaffuz qilinishi, bolalarning mazkur narsalar bilan qay tarzda aloqaga kirishishiga bog‘liq.

Bu masalani sensor tarbiya nuqtai-nazaridan yondashgan holda tahlil etishga harakat qilamiz.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar bolalarda ular hayotining dastlabki davridan boshlab turli shakl, hajm va rangdagi narsalarga alohida qiziqish paydo bo'lishini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Bolani buyumlarning shaklini tanishga ilk yoshdan boshlab o'rgatish lozim. Kichik yoshdagi bolalarni his qilish orqali buyumlarning xususiyatlarini anglashga o'rgatishda rus olimlarining nazariy qarashlari va tajribalariga tayanish maqsadga muvofiqdir. Atrof-muhit bilan bolalarni tanishtirish jarayonida narsalarning nomi, xususiyatlari, rang-tusi, hajmi va shaklini qanday tartibda o'rgatish lozimligi rus pedagoglari tomonidan asoslab berilgan.

Jumladan, N.Sakulina bolalarni rang bilan tanishtirish masalasini o'rganish asosida shuni alohida ta'kidlaydiki, ularni atrof-muhitni kuzatishga o'rgatish jarayonida muayyan tasavvur hosil qilgandan keyingina ranglarni farqlashga o'rgatish lozim. Olimaning fikricha, bolalarda bunday tajribani hosil qilish uchun ular bilan 3-4 yoshdan boshlab izchil tarzda mashg'ulotlar o'tkazish lozim. Bu yoshdagi bolalarda 5-6 ta rangni farqlash, tanishga nisbatan ehtiyoj, qiziqish paydo bo'ladi. Shu tariqa bolalarni narsa va buyumlarning rangi, shakli, hajmi bilan tanishtirish ularning nutqini boyitishda samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Maktabgacha ta'lim jarayonidagi muhim vazifalardan biri, bolalarning nutqini o'stirish va uni izchil takomillashtirishdan iborat.

"Ilk qadam" tayanch dasturida bolalarning "Nutq va tafakkurning rivojlanganlik darajasi"ga oid asosiy bo'limlar ko'rsatib berilgan. Bunda bolalarning nutqiy tafakkurini rivojlantirish, so'z boyligini oshirish, ularning mantiqiy tafakkuri va hisoblash malakasini o'stirish hamda bolalarda nafosat va orastalikni shakllantirish kabi jihatlariga keng e'tibor qaratilishi nazarda tutilgan. Shuningdek, tabiat, har xil kasbdagi kishilar mehnati, ba'zi bir ijtimoiy voqealar, narsa va hodisalar, ularning sifat va xususiyatlari bilan tanishtirishga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Sensor tarbiya vositasida bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari

Mustaqil respublikamiz uchun yosh avlodni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy farovonligi fuqarolarning aqliy va axloqiy salohiyati hamda ularning ma'naviyatlilik darajaga bog'liq.

Ma'lumki, fikrni bayon etish va tafakkur qilish nutq orqali amalga oshadi. Bolada tafakkur qanchalik rivojlantirilsa, uning fikr bayon qilish ko'nikmasi shuncha mukammal bo'ladi. Har bir shaxs oldida fikrlash va fikr mahsulini to'g'ri ifodalash mas'uliyati mavjud ekan, yoshlarda mazkur ko'nikmalarni shakllantirish maktabgacha ta'lim muassasalaridayoq boshlanishi lozim. Bunda sensor tarbiya imkoniyatlaridan foydalanish pedagogik jihatdan qulaylik tug'diradi.

Ko'plab ruxshunoslar tomonidan ruhiy jarayonlarni tahlil etish natijalari shuni ko'rsatadiki, bola nutqining rivojlanishi o'ziga xos jarayon hisoblanadi. L.S. Vigotskiy, A.N. Leontyev, S.L. Rubinshteyn, P.P. Blonskiy, A. Vallon, J. Piaje va boshqalarning asoslashlariga ko'ra, ruhiy jarayonlar, ayniqsa idrokning shakllanishi va rivojlanishi ularning ijtimoiy tajriba, ya'ni oldingi avlodlar tomonidan to'plangan va qabul qilingan sensor etalonlar tizimi (A.V.Zaporojets) tarzida ifodalangan tajribani faol o'zlashtirish natijasida vujudga keladi. Bu

tarzdagi etalonlar tarkibiga musiqa va nutq tovushlari, geometrik shakllar, spektr nurlari kabilarni kiritish mumkin. Har bir bola mazkur etolonlarni ta'lim-tarbiya jarayonida o'zlashtiradi, so'ngra ulardan tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarni o'zlashtirish, tahlil qilish, ularning mohiyatini anglash hamda sensor tajribalarini takomillashtirish uchun sezgi meyorlari sifatida foydalanadi.

Psixologiyada perseptiv harakatlar (hissiy idrok etishga oid harakatlar), obrazlarning tuzilishi, voqelikdagi narsa va hodisalarning obyektiv xususiyatlarini aks ettirish mexanizmi sifatida talqin etiladi. Bu xususiyatlarga "o'xshatish", ulardan nusxa ko'chirish tufayli obyektning obrazi tasavvur etiladi (A.N.Leontyev) Shaxs idrokini tadqiq qilishga bag'ishlangan bir qator asarlar (A.N. Leontyev, A.V. Zaporozets, B.G. Ananyev, V.P. Zinchenko, L.A. Venger) shundan guvohlik beradiki, sensor jarayonlar o'ziga xos yo'naltiruvchi harakatlardan iborat bo'lib, ular bolaning amaliy bilish faoliyatiga xizmat qiladi.

O'z vaqtida I.M.Sechenov maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonini ta'riflab, miyaning reflektorlik faoliyati g'oyasini ilgari surgan edi. Bunda u psixikaning obyektiv olamni aks ettirish imkoniyatiga tayanadi. Olim buyumlar haqidagi tasavvurlar tashqi signallar ta'siri ostida vujudga kelishini asoslab beradi. Bunda muayyan buyumning tasviri ko'zning to'rt pardasida ko'p marotaba aks etib, muskullarni taranglashtiradi va harakatlantiradi. Ko'rish omili bilan muskullar sezgisining uyg'unlashuvi ta'sirida turli shakllarga baho berishga asoslangan harakatlarning tajribasi mujassamlashadi. Turli buyumlarning shakllarini o'zaro mos tarzda aniqlash ko'nikmasi xuddi mana shu baholash imkoniyatiga bog'liqdir. Ilk yoshdagi bolalarda bunday tajriba kam bo'ladi. Buyumlarning shakllari faqat ko'rish orqaligina emas, balki ushlab sezish vositasida ham bilib olinadi.

I.M.Sechenov qo'lning sezish organi sifatidagi ahamiyatini batafsil tavsiflagan edi. Uni yaqin masofadan turib buyumlarni tahlil qilishda ko'zning birinchi yordamchisi sifatidagi o'rniga alohida e'tibor qaratgan. Bola o'zining ko'z harakatlarini qanchalik boshqara olsa, qo'l harakatlarini ham shunchalik boshqara oladi. Bola har bir narsani ushlab ko'radi, aylantiradi va to'nkaradi. Buning natijasida u buyumlarni bir qadar aniq va to'liq idrok qila boshlaydi. "Shuning uchun ham, - ta'kidlaydi I.M.Sechenov, - buyumlarni idrok qilishda qo'l bilan sezishni mashq qilish muhim ahamiyatga ega".

B.G. Ananyev, R.Y. Abromovich-Lextman, A.A. Pressman, YE.F. Ribalkolar o'z tadqiqotlarida bolaning idrok qilish qobiliyatida amaliy faoliyatning yetakchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib berganlar. N.L. Figurin, M.P. Denisova kabi fiziologlar va psixologlar bolalar juda kichik yoshlaridan narsalarning shakliga qarab farqlashning eng oddiy turlarini bilishlari to'g'risidagi ma'lumotlarni keltiradilar. Ular 5-6 oylik vaqtidan boshlab hajmli va yassi jismlarni (kublar, sharlar, koptoklar, ovalsimon, kvadrat, to'rtburchak, uchburchak shaklidagi narsalar) o'zaro bir-biridan farqlay boshlashlarini ta'kidlaganlar. L.A. Venger esa, o'z tajribalari asosida hatto 3-4 oylik go'daklar ham narsalarning shakliga ko'ra ularni farqlay oladilar, degan ilmiy xulosani ilgari surgan edi. Lekin, u bolaning bu harakati diqqatni bir obyektidan ikkinchisiga o'tkazish natijasidagina sodir bo'lishini ta'kidlaydi. Bunday harakatlar obrazli idrokni hosil qilish imkonini bermaydi. L.A. Venger o'z tajribalariga tayangan holda, agar 2-3 oylik go'daklarga

ilgari o'zlari ko'rgan turli shakllardagi jismlarni boshqacha shakl yoki holatda namoyish qilinganda, ularni yangicha qiziqish bilan kuzatishlarini asoslab beradi. Lekin bola ulg'aygan sari mazkur narsalarga o'zgacha qiziqish bilan yondasha boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar atrofdagi narsalarni juda tez o'zlashtiradilar. Shuning uchun ham ularning turli shakllari, hajmi, ular orasidagi masofani tez va aniq ilg'aydilar. Bularning barchasi boladagi ko'rish, nazorat qilish, ilg'ash ko'nikmalari yordamida amalga oshiriladi. Ko'rish barmoqlarning harakatini moslashtirish imkonini beradi. Bu o'rinda turli obyektlarning xususiyatlarini harakat yordamida chamalash jarayoni vujudga keladi. Bu esa bolada idrokning sensor imkoniyatlari mavjudligidan dalolat beradi.

Idrokning bundan keyingi taraqqiyoti uning ikkinchi ko'rinishi bo'lgan taqqoslash imkoniyatini vujudga keltiradi. Maktabgacha yoshdagi barcha bolalar narsa yoki buyumlarning qattiq yoki yumshoqlik holati, hajmi, vaznini o'zaro farqlagan holda o'zlashtirib oladilar. Bolaning taqqoslay olish imkoniyati buyumlarning harakatini ilg'aganda, narsalarni bir-birining ustiga taxlaganda, qutichalarni yopib-ochganda, piramidalar yoki halqachalarni o'zaro mos tarzda joylashtirganda, qo'g'irchoqlar yoki qog'ozlarni yig'ib muayyan tartibda joylashtirganda, taxtachalarning teshiklarini yassi jismlar bilan berkitganlarida sodir bo'ladi. Bunday vaziyatda bola ko'rgan va tasavvur qilgan narsalarini o'zaro qiyoslab ularni chamalash ko'nikmasiga ega bo'ladi. Ilk va kichik maktab yoshidagi bolalar kublar yoki qo'g'irchoqlarni taxlash jarayonida ba'zan xatolarga yo'l qo'yadilar. Bu tabiiy hol, albatta. Lekin, maktabgacha o'rta, katta va tayyorlov guruhlaridagi bolalar esa bunday ishlarni osongina bajaradilar. Chunki bunday harakatlarni ilk yoshlaridan boshlab bajargan bolalarda muayyan ko'nikmalar hosil bo'ladi.

L.A.Venger ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarda idrokning rivojlanishini muayyan didaktik vositalar yordamida amalga oshirgan edi. Buning uchun bola jismlarni izlash, topish, farqlash, tenglashtirish, buyumlarning o'ziga xos tabiatini ilg'ash, ya'ni narsalarga tashqi tavsif berish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim.

Bolaning moddiy borliqni anglash jarayoni, his etish orqali qabul qilish yo'li bilan amalga oshadi. Hissiyotlar va ular bilan bog'liq refleklar yig'indisi psixologik nuqtai nazardan birinchi signal tizimini tashkil qiladi. Moddiy borliqdagi narsa-hodisalarni kuzata olish ko'nikmasi bolada chaqaloqlik davridayoq vujudga keladi. Bola buyumlarni qo'li bilan ushlaydi, silkitadi va birinchi navbatda og'ziga soladi. Bularning barchasi bolalar buyumlarning xususiyatlarini bilishga intilishlaridan dalolat beradi. Bunday harakatlar stixiyali tarzda amalga oshadi. Mazkur harakatlar bola tomonidan tasodifiy tarzda bajariladi. Shuning uchun ham kattalar bolalar oldiga cheklovlar qo'yadilar. Bunday cheklovlar birinchi navbatda gigiyenik xavfsizlikni ta'minlashni nazarda tutadi.

Shu bilan bir qatorda, ajdodlarimiz bolalarga imkon qadar kamroq cheklov qo'yish zarurligini uqtirganlar. Agar bolada muayyan buyumning barcha xususiyatlarini o'rganish uchun yetarlicha sharoit mavjud bo'lmasa, unda mazkur buyumlar haqida dastlabki tasavvurlarni hosil qilish lozim. Buning uchun sensor tarbiya vazifalarini aniq begilash kerak. Buni quyidagi 3 yo'nalishda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. bolalarda kuzatuvchanlik ko'nikmalarini shakllantirish;

2. bolalarda sensor etalonlarni tarkib toptirish;

3. muayyan ko'nikma va etalonlarni bolaning kundalik faoliyatiga singdirishga erishish.

Ayon bo'ladiki, yuqorida ko'rsatilgan har uchala yo'nalish o'zaro chambarchas bog'liqdir. Idrok etish ko'nikmalari, qo'shimcha tushuncha va etalonlarning umum qabul qilingan ko'rinishida xotirada muhrlanadi.

Moddiy olamdagi obyektlarni sensor tavsiflash jarayonida bolalarning ko'nikmalari ta'lim-tarbiya omili ta'sirida o'zgaradi. Buyumlarning sensor tavsifi har doim ham bir-biriga mos kelavermaydi. Buyumlar va ularning sensor tavsiflari bolaning umumlashtira olish imkoniyatlari bilan bevosita bog'liqdir. Buyumlar va ularning sensor tavsifi haqidagi tasavvurlar bolaning bevosita qabul qilish va umumlashtira olish tajribasiga tayangan holda shakllantiriladi.

Dastlabki kuzatishlar, idrok etish voqelikni tushunishga yordam beradi. Sensor tasavvurlarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlar bu yo'nalishdagi topshiriqlarni bolalarga bajartirishda alohida imkoniyatlarga ega bo'lishi lozim.

Ilk yoshdagi bola bilan maktabgacha kichik yoshdagi bolalarning idroki o'rtasidagi farqlar narsalar bilan bog'liq bo'lgan oddiy harakatlardan ular idrokiga yanada yuqoriroq talablar qo'yadigan va uning yaxshi rivojlanishi uchun ham qulayroq shart-sharoitlar yaratadigan samarali faoliyatning ancha murakkab turlariga o'tish bilan bog'liqdir. Masalan, rasm chizish, biror bir narsa qurish-yasash, buyumlarni ustma-ust taxlash, o'yinchoqning teshigini topish yoki berkitish kabilar shular jumlasidandir.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasida alohida ahamiyatga ega bo'lgan sensor tarbiya masalasi pedagoglar tomonidan bir qadar chuqur o'rganilganligini yuqorida ta'kidlab o'tgan edik. Bunday tadqiqotlar natijasida bola idroki va ko'rish qobiliyatining rivojlanish qonuniyatlari, maktabgacha ta'lim jarayonida uni takomillashtirish yo'llari belgilab berilgan. Shuningdek, didaktik o'yinlar, rasm chizish va qurish-yasash kabi samarali faoliyat turlarida sensor tarbiyadan foydalanish metodlari ishlab chiqilgan. Lekin, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar nutqini rivojlantirishda sensor tarbiyadan foydalanish yo'llari yetarlicha o'rganilmagan. 2-6 yoshli bolalarning idrok qilish usullari pedagogik-psixologik jihatdan yetarlicha tadqiq qilinmagan.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar intellektual taraqqiyotining 9/10 qismini sezish orqali idrok etilgan taassurotlar tashkil etadi. Bolaning sezgilari va idroki qanchalik boy bo'lsa, ularning atrof-muhit haqidagi tasavvurlari shunchalik shakllangan bo'ladi.

Bolalarning sensor ko'nikmalari, ularda sezgi va idrokning samarali rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Bolalarga aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyasi berishda sensor tarbiya muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri sensor jarayonlarni rivojlantirish davri sanaladi. Sensor tarbiya bolalarda hissiy bilish qobiliyatlarini shakllantirish, sezgi idrokni takomillashtirishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Sensor tarbiyaning mazmuni va metodlari psixologiyada idrok va sezgisini rivojlantirish muammosi qanday talqin qilinishi bilan belgilanadi. Fanda bu

muammoga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Pedagoglar tomonidan esa, sensor tarbiyaning turli imkoniyatlari ochib berilgan.

Taniqli pedagoglar Friebel, M. Montessori, O. Dekrolilar tomonidan yaratilgan yondashuvlar, bolalarning qo‘l muskullarini rivojlantirish, bolalarni turli ranglar, shakllar, hajmlarni ifodalovchi so‘zlarni idrok etishga o‘rgatish kabilar shular jumlasidandir.

Montessorining didaktik qarashlari o‘z-o‘zini nazorat qilish prinsipiga muvofiq yaratilgan bo‘lib, bolalarga pedagogning ishtirokisiz, mustaqil shug‘ullanish imkonini beradi. Biroq, u ularda sezgi a‘zolari va nutqning rivojlanishi, samarali amaliy faoliyat bilan bog‘lanmaganligini alohida ta‘kidlagan edi. Ular tomonidan ilgari surilgan qarashlar, ayniqsa, bugungi kunda maktabgacha ta‘lim jarayoniga keng tadbiiq etilmoqda. Bu esa bolalarning aqliy hamda jismoniy rivojlanishi, tuyg‘ularini shakllanishiga samarali ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham bugungi kunda maktabgacha ta‘lim muassasalarida ushbu metodlarni keng qo‘llashga ahamiyat berilmoqda. Barcha tarbiyachilar mazkur metodlardan keng foydalanish maqsadida har bir guruhda alohida-alohida burchaklar tashkil etganlar.

Shuning uchun ham pedagoglar va psixologlar faoliyatning turli turlarini amalga oshirish jarayonida sensor tarbiya imkoniyatlaridan keng foydalanish yo‘llarini tadqiq qilmoqdalar.

Maktabgacha ta‘lim muassasalarida bolalarga sensor tarbiya vositasida ularning nutqini rivojlantirishda tarbiyachilar muhim o‘rin egallaydilar. Chunki ular bolalarning his-tuyg‘ularini muayyan pedagogik tizim vositasida aniq maqsadga yo‘naltiradilar. Sensor tarbiya vositasida bolalar nutqini rivojlantirishdan ko‘zlanadigan asosiy maqsad, ularning idroklarini jadal shakllantirish, qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan. Sensor tarbiya bolalar narsalar, voqea-hodisalarni chuqurroq idrok etishlari, ularni his etishlari uchun muhimdir. Tarbiyachi bolalar oldiga muayyan topshiriqlar qo‘yganda, masalan, buyumlarni bir joydan ikkinchi joyga olib qo‘yishda ularning vaznini his qila olishlari, ularni ushlab shakli, harorati, sifatini sezishlariga alohida e‘tibor qaratishi kerak.

Bolalarda ijtimoiy hamda hissiy tajribaning ortishi barobarida, idrok jarayoniga qo‘yiladigan talablar murakkablashadi. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalar sensor vazifalarni qanchalik ko‘p bajarsalar, ularning ongi, ko‘zi, qo‘li, xotirasi, tafakkuri shunchalik tez taraqqiy etadi.

Sensor tarbiya mazmuni o‘z ichiga tevarak-atrofdagi barcha hissiy holatlarni qamrab oladi. Bular bolalarning kundalik faoliyati jarayonida amalga oshiriladi.

Mazkur yoshdagi bolalarga ranglarni farqlash, ularning nomini aytish o‘rgatiladi, ranglar, bo‘yoqlar haqidagi dastlabki tasavvurlar shakllantiriladi. Sezgi va idrok muayyan maqsadga qaratilgan mazmunli faoliyat jarayonida muvaffaqiyatli rivojlanadi.

Samarali sensor faoliyat (rasm chizish, loy va plastilindan buyumlar, applikatsiyalar yasash), sezgi hamda idrokning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishi bilan bir qatorda, narsalarning shakli, rangi, joyini bolalar bilib olishlari uchun ham muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida bolalar butun yil davomida tabiat bilan tanishtiriladilar, ularga o‘simliklar, qushlar, hayvonlarni parvarish qilishga oid vazifalar topshiriladi. Bu o‘z navbatida yerning

xususiyatlari, quyoshning haroratini bolalar sezgi orqali anglashlari uchun qulaylik yaratadi. “Oldinga-orqaga”, “tepada-pastda”, “uzoqda-yaqinda”, “chapga-o‘ngga” kabi fazoviy tasavvurlarni o‘zlashtirib oladilar.

Bolalar ko‘proq tabiat bilan muloqotga kirishishlari tufayli ularning tasavvurlari kengayib, tinglash imkoniyatlari ortadi. Bolalarga qushlarning sayrashi, barglarning shitirlashi, shamolning guvillashi, yomg‘irning shatur-shuturi, momaqaldiroqning gumbirlashi, do‘lning shovqin bilan, qorning esa ovoz chiqarmasdan yog‘ishi, chaqmoqning ba‘zan ovoz chiqarishi-ba‘zan ovoz chiqarmasligini sezish, his qilishga o‘rgatish zarur.

Psixologlarning guvohlik berishlaricha, bolalardagi analizatorlar ular tug‘ilgan paytdan boshlab harakatlanadi. Sensor jarayonlar muayyan vaqt o‘tgach aniq tasavvurlarga aylanadi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, go‘dak dunyoga kelgandan so‘ng dastlabki oylarda sensor tizimlarning shakllanishi jadal kechadi. Chunki sensor tizim muayyan yoshda ma‘lum darajaga yetishi lozim.

B.G.Ananyevning fikricha, inson tug‘ilganidan keyin dunyoni ilb bor anglashi, narsalarni qismlarga ajratgan holda tasavvur qilish shaklidir. Bu esa fazoviy vazn va uning harakatini ifodalovchi chegara sifatida namoyon bo‘ladi. Bolaga ta‘sir etuvchi narsalar va hodisalar atrof-muhitning muayyan shakli sifatida aks etadi. Bir yoshgacha bo‘lgan davrda boladagi idrok ikki shaklda: 1) narsalarning vazni; 2) buyumlarni moddiy borliqdagi birliklar sifatida idrok qilish jarayoni amalga oshadi. Bunday tabaqalashgan idrokning shakllanishida turli o‘yinlar, ishoraviy harakatlar va kattalar bilan muloqot muhim o‘rin egallaydi. Buning natijasida bola atrof-muhitdagi narsalarning xususiyatlari, voqea-hodisalarni ko‘proq anglay boshlaydi. Bola 2-3 yoshga yetganda narsalar bilan aloqaga kirishish ko‘nikmalarini egallaydi. Ularning nomlari, turlari, o‘ziga xususiyatlarini idrok qiladi.

N.A.Figurin, M.P.Denisovalarning e‘tirof etishlaricha, bola tug‘ilishi bilan yorug‘lik va o‘z atrofidagi narsalarni ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Biroq, uning ko‘rganlari bilan idroki orasida bog‘liqlik mavjud emas. Chaqaloqlarda ko‘z harakatining rivojlanishi dastlabki 3 oyda jadal kechadi. B.G.Ananyevning ta‘kidlashicha, bolaning ilg‘ash imkoniyatlari ancha kengayib barqarorlik kasb eta boshlaydi. K.N.Kornilov esa bolada 10-17 haftalik chog‘idanoq tovushdan ham faol ta‘sir lanish vujudga kelishini asoslab bergan edi. Tovush va uni eshitish atrof-muhitni idrok etishning dastlabki hissiy ifodasi hisoblanadi. Demak, tovush narsalarni tasavvur etishga yordam beradigan, bolaning aqliy qobiliyatini o‘stiruvchi vositadir. Bunday yondashuv R.Y.Lextman-Abramovichning tadqiqotlarida ham asoslab berilgan.

Bola tug‘ilishi bilan uning e‘tibori avvalo harakatdagi buyumlarga qaratiladi. Chunki, buyumlarning harakati, mazkur harakatning o‘zgarib turishi bolada atrof-muhitni idrok qilish qobiliyatini tarkib toptiradi. Bolaning buyumlar harakatini kuzatishi unda sensor rivojlanish va sensor vazifalarni amalga oshirish ko‘nikmasini tarkib toptirishning dastlabki bosqichi hisoblanadi.

Bola tomonidan ranglarni idrok etish, his qilish, rang ko‘rishning anatomik asoslari borasida olimlar o‘rtasida turlicha fikrlar mavjud. Preyyer, R.Marsden, A.Mex,

U.Uayzlarning tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, bola dastlabki yosh davridan boshlab ranglarni farqlaydi. N.A.Figurin, N.I.Kosatkin, M.P.Denisova, N.I.Karasnogorskiy, R.Steples, F.Malrie, S.Valentaylar esa, bolada ranglarni ajratish jarayoni 3-5 oylikda namoyon bo'la boshlaydi, deb hisoblaydilar. G.V.Rozengrad-Pupko, N.X.Shvechkina, A.I.Sulina, A.Barbin, A.Dekarlarning fikricha, bolalarda bir yoshdan uch yoshgacha bo'lgan davr mobaynida ranglarni farqlash ko'nikmasi tarkib topadi. YE.A.Arkin, A.Bine, YE.I.Ignatyev, N.Pronin, D.Sinold, B.I.Xachapuridzelar bolaning ranglarni farqlashi va so'z orqali ifodalashi ikki yoshdan uch yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, deb hisoblaydilar. Bu borada olimlar orasida fikrlarning xilma-xilligi mavjud. Masalan, L.A.Vengerning ta'kidlashicha, bolalarda ranglarni idrok etish yoki idrok eta olmaslik mezonlari sifatida ularga berilgan topshiriqlarning turlichaligini, ya'ni nur yoki rangdan ta'sirlanishini idrok etishning ko'rinishi va rang ajratish darajasi sifatida baholash mumkin.

N.A.Figurin hamda M.P.Denisovalarning ta'kidlashlaricha, turli ko'rinish va kattalikdagi narsalarni tabaqalashtirgan holda farqlashni bolalar o'z hayotlarining dastlabki oylardayoq muvaffaqiyatli tarzda amalga oshiradilar. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, shar, kub, koptok, to'rtburchak, uchburchak kabilarni bolalar 5-6 oylik davrlaridanoq farqlay boshlaydilar.

Bolalarda buyumlarning rangi va shakliga ko'ra farqlashga imkon beradigan sensor jarayonlar ularning 6 oylik davridan boshlab namoyon bo'ladi. Buyumlarni sensor idrok qilish jarayoni sensomotor meyorlar asosida amalga oshadi. R.Y.Lextman-Abramovich va F.I.Fradkinalar quyidagi bosqichlarni alohida ajratib ko'rsatadilar:

1.Bolalarda muayyan obyektga tegishli bo'lmagan eshitish va ko'rish qobiliyatlarining namoyon bo'lishi;

2.Bolalarda tashqi ta'sirlarga nisbatan ijobiy hissiyotlarning paydo bo'lishini belgilaydigan sensor harakatchanlikning vujudga kelishi (1 oylikdan - 2,5 oylikgacha bo'lgan davrda);

3.Bolada harakatlarning o'zgarishi, ularning maqsadli ahamiyat kasb etishi, idrokdagi sensor va motor jihatlarining uyg'unlashuvi (2,5 oylikdan - 4,5 oylikgacha bo'lgan davrda);

4.Dastlab muayyan obyekt, keyinchalik esa natijaga yo'naltirilgan harakatlarning paydo bo'lishi (4,5 oylikdan - 7 oylikgacha bo'lgan davrda);

5.Bolalarda bosqichma-bosqich aynan bir vaqtning o'zida ikki obyekt bilan munosabatning vujudga kelishi, narsalarning joyini o'zgartirish, ularda maqsadga yo'naltirilgan harakatlarning hosil bo'lishi (7 oylikdan - 10 oylikgacha bo'lgan davrda);

Bolalarda buyumlarning oddiy xususiyatlarini anglash ko'nikmasi shakllanishi (10 oylikdan boshlab).

Sensor tarbiyaning asosiy usullaridan biri - tekshirishdir.

Tekshirish - maxsus tashkil etilgan buyumlarni idrok qilish jarayoni bo'lib, uning natijalaridan zarur holatlarda foydalaniladi. Buyumlarning nomi, xususiyatlari, shakllarini aniqlashda ularni o'zaro taqqoslash imkonini beradigan didaktik topshiriqlar va o'yinlardan foydalanish mumkin. Bunday topshiriqlar va didaktik o'yinlardan maxsus tashkil etilgan mashg'ulotlarda keng foydalanish talab etiladi.

• Tarbiyachi ta'lim-tarbiya jarayonida samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish mahoratiga ega bo'lishi kerak. Tarbiyachi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi kommunikativlik, kasbiy layoqatlilik ko'nikmalariga ega bo'lishi, pedagogik texnika, nutq, yuz-qo'l va oyoq, gavda harakatlarini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Tarbiyachi bolalarni kuzata oladigan, ularning xulqi, hatti-harakatlari sabablarini to'g'ri tahlil qilib, unga ta'sir etuvchi vositalarni qo'llay oladigan bo'lishi kerak. Yosh avlodni kerakli bilim, ko'nikma, malakalardan xabardor qilish uchun tarbiyachi nutq madaniyatiga ega bo'lishi va uning nutqida quyidagi xususiyatlar aks etishi lozim:

- nutqning aniqligi va sofliqi;
- nutqning irodaviyligi va ravonligi;
- nutqning boyligi va ta'sirchanligi.

Bolalarning rivojlanishida harakat alohida o'rin egallaydi. Ilk yoshdagi bolalar ham turli harakatlarni bajaradilar. Ular keyinchalik shartli reflekslarga aylanadi.

“Ilk yoshdagi bolada nutqning hosil bo'lishi hamda bola tomonidan tashkil etilayotgan harakatlar ongli ravishda sodir bo'la boshlashi va ijtimoiy munosabatlar jarayonida ishtirok etishi uning shaxs sifatida rivojlanishidagi dastlabki bosqich hisoblanadi”.

Bolaning nutqini rivojlantirish shu yosh davriga xos bo'lgan vazifalardan biridir. Uch yoshga to'lgan bolalar ona tilida muloqot uchun zarur bo'lgan asosiy so'zlarni o'zlashtiradilar.

3 yoshgacha bo'lgan bolalarda tevarak-atrofdagi narsalar, ularning nomi, xususiyatlari, hamda ularni ishlatish to'g'risida dastlabki tushunchalar mavjud bo'ladi. Bolalarni uy jihozlari va buyumlari bilan tanishtirish ular nutqining rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Bu ularning nutqini boyitadi, tartiblilik, go'zallik haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi. Shuningdek, turli rangli rasmlar bilan tanishtirish, ertaklar o'qib berish orqali ularning kitobga bo'lgan qiziqishlari tarkib toptiriladi. Ayniqsa, mashg'ulotlar jarayonida bolalarda mustaqillik shakllantiriladi. Tayyorlov guruhlarida mashg'ulotlar orqali bolalarda tashabbuskorlik, mustaqillik, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, javobgarlik, faollik, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi ko'nikmalar tarkib toptiriladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tevarak-atrofdagi hayot, tabiat bilan tanishtirish, ular nutqi, so'z boyligining ortishi, matematik tasavvurlarining hosil bo'lishi, musiqa, rasm chizish, qurish-yasash, jismoniy mashqlarga bo'lgan qiziqishlari tarkib toptiriladi. Bolalar tevarak-atrofdagi olamning boyligi, tovushlar va ranglar, hidlar va harorat, miqdor va ko'plab boshqa narsalar haqida bilishga intiladilar. Inson miyasi sezgi a'zolari yordamida, tasavvurlar shaklida, tashqi va ichki muhitning holati haqida rang-barang axborotlarni qabul qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kuzatish jarayonida ularning fikrlash ko'nikmalari haqida ma'lumotga ega bo'lish, ular fikrining muayyan obyektga yo'naltirilganligi, tashqi qo'zg'atuvchilarga munosabatlari, ularning quvonch va iztiroblari, sinchkovliklari kabi holatlarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Sensor tarbiya vositasi orqali bolalar nutqini rivojlantirish jarayonining mazmuni Nutq – kishilarning bir-birini anglash, axborotlarni qabul qilish va uzatish uchun tildan foydalanish imkoniyatidir. Nutq o'stirish metodikasining asosiy vazifasi

nutq o‘stirishning eng samarali vositasi va yo‘llarini ilmiy pedagogik asosda ishlab chiqishdan iborat. Maktabgacha ta‘lim muassasalari tarbiyachilari birinchi navbatda bolalarda zarur nutq ko‘nikmalarini hosil qilishga mas’uldirlar. Bunda bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish orqali ularda muloqotga kirishish ko‘nikmalarini tarkib toptirish nazarda tutiladi.

Nutq o‘stirish metodikasi quyidagi savollarga javob berishi kerak. Tarbiyachi:

1.O‘z oldiga bolaga nimani, qanday o‘rgatish, ularda qanday nutqiy ko‘nikmalarni hosil qilish?

2.Bola nutqini shakllantirishda qaysi usul va yo‘llardan qanday sharoitda foydalanish?

3.Nima uchun aynan shunday o‘qitish kerak? Taklif qilinayotgan nutq o‘stirish shakllari nazariya va amaliyotda qanday xulosalar bilan asoslanadi?, degan savollarga javob bera olishi lozim.

- Nutq o‘stirish metodikasida bolalarga ona tilini izchil o‘rgatishning didaktik imkoniyatlari bayon etilgan. Maktabgacha ta‘lim jarayonida nutq o‘stirish metodikasida bu sohadagi didaktik yondashuvlar to‘liq umumlashtirilgan. Mazkur metodikada maktabgacha ta‘lim muassasalarida bolalar nutqini rivojlantirishning qat’iy meyorlari aks ettirilgan. Masalan: hikoya qilishda qanday usullarni qo‘llash lozimligi muayyan ketma-ketlikda taqdim etilgan. Fikrning paydo bo‘lishi va qabul qilish jarayonini vujudga keltiruvchi sabablarga ko‘ra tarbiyachilar shaxslararo muloqotni qo‘llab-quvvatlash va amalga oshirish, bolaning fikr bayon qilishiga asos bo‘luvchi sabablar, mayllar, bolalarga qaratilgan nutqning o‘ziga xos xususiyatlari, shartlari, bola nutqini tushunish imkoniyatlarini egallagan bo‘lishlari, savollarga javob berish va savol bilan murojaat qila olish yo‘llarini bolalarga o‘rgatishlari, muomila odobiga amal qilishlari shart. Bolalar esa buyum va hodisalarni tavsiflovchi, narsalarning o‘lchami va sifatini ko‘rsatib bera oladigan so‘zlarni bilish, buyumlarning muayyan shaxsga tegishlilikini aytib bera olish, o‘zlari va boshqalarning hatti-harakatlarini tavsiflab bera olish, o‘zlari haqlarida hikoya qilish, oila a‘zolari va o‘z ism-sharifi, yoshi, ota-onalarining qayerda va qanday kasbda ishlashlarini aytib bera olishlari, maktabgacha ta‘lim muassasasida qanday faoliyat bilan shug‘ullanishlari, tarbiyachilari haqida so‘zlab berish, rasmdagi manzaralar yoki atrof-muhitdagi o‘zgarishlarni aytib bera olish, 2 yoki 3 gapdan iborat matn tuza olish, atrofdagilar, o‘rtoqlari bilan muloqotga kirisha olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari lozim.

Bolaning kattalar bilan bo‘ladigan muloqoti uning har tomonlama kamol topishida muhim ahamiyatga ega. Kattalar bilim va ko‘nikmalar, butun insoniyat tomonidan to‘plangan tajribalar va madaniyatni yosh avlodga yetkazuvchilar hisoblanadilar. Bunda ular nutqdan foydalanadilar. Nutq shaxslararo muloqot vositasi hisoblanadi. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida bolalarga ta‘lim-tarbiya berishning ko‘plab vazifalari bilan bir qatorda, ularning nutqini o‘stirish, muloqot ko‘nikmalarini hosil qilish kabi muhim talab ham qo‘yilgan. Bu nutqning tovush xususiyatlarini o‘zlashtirish, so‘z zahirasini boyitish, nutqiy ko‘nikmalarni mustahkamlash va faollashtirish, nutqning grammatik jihatdan to‘g‘riligiga rioya qilish, bolalar uchun yozilgan asarlar tilini tushunishga o‘rgatishdan iborat.

Maktabgacha ta'lim jarayonida bolalar ona tilining imkoniyatlarini o'rganar ekanlar, asosan og'zaki nutq ko'nikmalarini egallaydilar. Buning natijasida ularda muloqot ko'nikmalari tadrijiy tarzda rivojlanadi.

Bolaning kattalar bilan muloqotida uning hissiyotlari yetakchi o'rin egallaydi. Bu bola hayotining dastlabki yili – nutqni shakllantirishga tayyorlash jarayonida kattalar bilan o'zaro munosabatining negizi sifatida tarkib topadi. Kattalarning tabassum bilan qarashiga bola ham jilmayish bilan javob qaytaradi, ularga javoban o'ziga xos tovushlar chiqaradi. Bola kattalarning hissiy holati, tabassumi, kulgusi, tovushidagi yoqimli ohangdan kuch-quvvat oladi. Bu bola tomonidan amalga oshiriladigan nutqiy emas, balki hissiy muloqot jarayonidir. Bu orqali bo'lajak nutqiy muloqotga zamin hozirlanadi.

Kattalar bilan bo'ladigan hissiy muloqotda bola tovush xususiyatlari, so'zlarning talaffuz etilish ohangiga munosabat bildiradi. Ushbu muloqotda nutq, kattalar faoliyatiga qo'shimcha tarzda, faqat o'zining tovush jihati bilan ishtirok etadi. Biroq, nutq yoki so'z doimo tamoman aniq xatti-harakat (tur, o'tir), muayyan buyum (piyola, koptok), unga oid aniq xususiyatlarni ifodalaydi. Kattalar bolaning hatti-harakatlarini rag'batlantirar yoki taqiqlar ekanlar, buyumlar, ularning xususiyatlari, turli harakatlarni aniq ko'rsatmasdan turib, ularni boshqara olmaydilar.

Hissiy muloqot jarayonida kattalar va bolalar bir-birlariga nisbatan umumiy munosabatlar: mamnunlik yoki noroziliklarini ifodalaydilar. 6 oylikdan keyin bolaning hissiy olami kengayib kattalar bilan munosabatlari ko'لامي boyiydi. Ularning hatti-harakatlari murakkablashib, bilish imkoniyatlari rivojlanadi va muloqot doirasi kengayadi. Bu davrda bolaga ularni o'rab turgan ko'plab qiziq narsalar haqida so'zlab berish zaruriyati paydo bo'ladi. Buni hissiyotlar yordamida amalga oshirish imkonsizdir. Kattalar bilan nutqiy muloqotga kirishish ehtiyojining paydo bo'lishi natijasida bolalar so'zlarni o'rgana boshlaydilar.

Bola hissiy muloqot jarayonida kattalarning o'zlarigagina qiziqqan bo'lsa, nutqiy muloqot ehtiyoji ularning atrof-muhit, buyumlarga bo'lgan qiziqishlarini tarkib toptiradi. Biroq, kattalar bola e'tiborini biror buyumga jalb qilganda, u o'z qiziqishining bir qismini o'sha buyum, harakat yoki shaxsga qaratadi. Muloqot hissiy xususiyatini yo'qotmaydi, biroq bu nutq faoliyati orqali amalga oshiriladigan muloqotdir. Bunda kattalar tomonidan talaffuz etiladigan va bola tomonidan tinglanadigan so'z o'zida hissiyotlarni ifodalagan holda hissiy muloqot doirasidan chiqadi, u endi bola uchun tobora buyumlar, hatti-harakatlar, voqealarni anglatuvchi so'zga aylanadi. Shu asosda bolalarda o'z hayotlarining ikkinchi yilidan boshlab, so'zlar ma'nolari, kattalarning fikrlarini anglash imkoniyati kengaya boshlaydi. To'liq bo'lmasa-da, ularda dastlabki muloqot ko'nikmalari paydo bo'ladi. Chunki kattalar gapiradilar, bolalar esa yuz ifodalari, imo-ishoralar, hatti-harakatlar bilan javob beradilar. Bunday fikrlarni o'zaro tushunish darajasi bolaning o'ziga yaxshi tanish bo'lgan kundalik, hayotdagi rag'batlantirishlar, tanbehlar va talablarga ongli tarzda munosabat bildirishi uchun yetarlidir. Shu bilan bir qatorda, bolalarning o'z tashabbuslari bilan kattalarga murojaat qilish ko'nikmalari ham rivojlanib boradi. Bola kattalarning diqqatini o'zi yoki biror

buyumga jalb qiladi. Bola o'zining yuz ifodasi, hatti-harakatlari, tovushi yordamida kattalarga savollar beradi va o'z fikrini bayon qiladi.

Bola o'z tashabbusi bilan kattalarga murojaat qilganda tovushlarni talaffuz etishi nutqiy muloqotning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda tovushli munosabatning maqsadlilik va uning muayyan shaxsga yo'naltirilganligi namoyon bo'ladi. Bolaning kattalar tomonidan talaffuz etiladigan so'z va so'z birikmalariga taqlid qilishi ham juda muhimdir. Bu ularda nutqni tinglash, talaffuz ko'nikmalarining shakllanishiga ko'maklashadi. Buning natijasida bolalar kattalar tomonidan aytiladigan butun so'zlarni o'zlashtira boshlaydilar. Ongli tarzda talaffuz qilinadigan dastlabki so'zlar bolalar nutqida ular hayotining birinchi yili oxirlarida paydo bo'ladi. Lekin, ular uncha ko'p emas, o'ntagacha bo'lishi mumkin. Masalan: oyi,dada,buvi,buva, nanna, ham-ham va h.z. Bola mazkur so'zlarni o'z tashabbusi bilan kamdan-kam hollarda qo'llaydi. Taxminan, hayotining ikkinchi yili o'rtalariga kelib, bola nutqida sezilarli ravishda oldinga siljish vujudga keladi. Ular bu davrga kelib, so'z zahirasida to'plangan lug'at boyligidan kattalarga murojaat qilish maqsadida faol foydalana boshlaydilar. Mazkur so'zlar yordamida dastlabki jumlar hosil bo'la boshlaydi. Ushbu jumlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular tarkibiga kirgan so'zlar o'zgartirilmasdan talaffuz qilinadi. Masalan, nana lalaq (yana sut ichaman), lalaq papa (sut issiq), ata tetti (aka ketdi), dadda ani (dada qani?) . Ular nutqida uchraydigan dastlabki gaplar ikki so'zdan tarkib topadi. Bola ikki yoshga to'lgach uch va to'rt so'zdan iborat jumlar vujudga kela boshlaydi.

Hatto shaklan va grammatik tuzilishiga ko'ra mukammal bo'lmagan yuqoridagi kabi nutq ham kattalar va bolalarning nutq muloqoti imkoniyatlarini sezilarli tarzda kengaytiradi. Bola o'ziga qaratilgan fikrni tushunishi, o'zi ham kattalarga murojaat qilishi, u o'y-xayoli, istaklari, iltimoslarini ifoda etishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, undag lug'at boyligining sezilarli tarzda kengayishiga olib keladi. Bola kattalarning nutqi, aytgan so'zlariga taqlid qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Ular o'zlariga qaratilgan fikrlarni yaxshi tushunadilar va jumla tuzishda yangi o'zlashtirgan so'zlarini ilgari o'rgangan so'zlari bilan birlashtira oladilar.

Bir yarim yoshli bola o'z nutqida taxminan 100 ga yaqin so'zdan foydalanadi, ikki yoshga kelib esa uning lug'at boyligi 300 va undan ortiq so'z hisobiga kengayadi. Nutqning rivojlanishida bolalardagi turli-tuman o'ziga xosliklar, farqlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ammo bu davrda nutq rivojlanishidagi asosiy hodisa lug'at boyligining miqdor jihatidan o'sishida emas, balki bolalarning o'z nutqlarida qo'llaydigan so'zlarning muvofiq tarzda grammatik shakl kasb eta boshlashida aks etadi. Masalan: qizcha o'tirdi, qizcha o'tiribdi, buva pilalani (piyolani) oldi.

Mana shu paytdan boshlab, ona tilini o'zlashtirishning eng muhim bosqichlaridan biri – tilning grammatik tuzilishini o'zlashtirish davri boshlanadi. Grammatikani o'zlashtirish juda shiddatli ravishda kechadi va uch-uch yarim yoshga kelib, bola asosiy grammatik qonuniyatlarni o'zlashtiradi. Masalan, ular bu paytda o'z nutqlarida barcha kelishik, fe'l shakllari, bog'lovchili murakkab gaplarni qo'llay boshlaydilar.

Uch yoshga kelib, bolaning lugʻat boyligi 1000 dan ortiq soʻzni oʻz ichiga oladi. Bolaning soʻz boyligi tarkibiga barcha soʻz turkumlariga mansub soʻzlar, yordamchi soʻzlar, undov soʻzlar kiradi.

Koʻpincha, bola hayotining toʻrtinchi yili boshida ona tiliga xos barcha tovushlar, jumladan, r, l, sh, ch, j, q, oʻ tovushlarini ham oʻzlashtirgan boʻladi. Shu bilan bir qatorda, bu davrga kelib, bola ona tilining oʻziga xos xususiyatlarini ham oʻzlashtirishga kirishadi. Chunonchi, kattalarning ogʻzaki nutqida sifatdosh va ravishdoshlar amalda qoʻllanilmaydi. Bunday soʻzlar bola nutqida koʻplab uchraydi.

Ona tili boyliklarini egallash asosida bola gaplar tuza boshlaydi. Muhim vazifalardan biri, bolani voqea-hodisalar, oʻqilgan yoki aytib berilgan ertaklarni soʻzlab berishga oʻrgatishdan iborat. Voqea-hodisalar haqida fikr bildirganda bolalar bir necha jumladan iborat hikoyalar tuzishlari kerak. Bolalar oʻzlari taʼriflayotgan narsalar, voqea-hodisalarning muhim jihatlarini tavsiflash jarayonida oʻz fikrlarini toʻgʻri bayon qila olishlari, mantiqan bogʻlangan jumlar tuzishlari lozim.

Bolalarda bogʻlanishli nutqni rivojlantirish orqali ularning aqliy taraqqiyotlarini taʼminlash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun bolalarda tafakkur, kuzatuvchanlik hamda hissiy idrokni rivojlantirish lozim. Bola biror bir narsa yoki voqea-hodisa haqida hikoya qilishi uchun oʻsha voqelikni aniq tasavvur qilishi, buyumlarning asosiy xususiyatlarini ajrata olishi, narsalar orasidagi aloqadorlikni anglashi zarur.

Bogʻlanishli nutq bolaning fikrlash jarayonini ifodalaydi. U shunchaki ovoz chiqarib gapirishdangina iborat emas. Shuning uchun ham bolada fikr bayon qilish koʻnikmalarini shakllantirish uchun ularni soʻzlardan toʻgʻri foydalana olishga oʻrgatish lozim. Fikr bayon qilish ohangi va soʻz urgʻulariga rioya qilishga bolalarni oʻrgatish kerak. Bola oʻz fikrini aniq ifodalashi uchun soʻzlarni toʻgʻri tanlashi va ular yordamida gap tuza olishi, jummalarni bogʻlash va bir gapdan ikkinchisiga oʻtish uchun turli til vositalaridan foydalana bilishni oʻrganishi muhim ahamiyatga ega.

Bogʻlanishli nutq – shunchaki soʻz va jummalarni ketma-ket bayon qilishdan iborat emas, toʻgʻri qurilgan jumladagi aniq soʻzlar orqali ifodalangan bir-biri bilan bogʻliq fikrlar izchilligini taʼminlashdan iborat nutqiy jarayondir. Bola soʻzlash jarayonida fikrlashga oʻrganadi, xuddi shunday, uning fikri qancha boy boʻlsa, nutqi ham shu qadar rivojlangan boʻladi.

Bogʻlanishli nutq bolaning ona tili, uning tovush tomoni, lugʻaviy tuzilishi, grammatik qurilishini oʻzlashtirish imkoniyatlarini oʻz ichiga oladi. Ammo bola uni tilning tovush, leksik va grammatik tomonlarini oʻrganganidagina oʻzlashtirishi mumkin. Bolalarning bogʻlanishli nutqini oʻstirishni bir qadar erta boshlash lozim. Ular barcha tovushlarni aniq talaffuz qila olmagan, lugʻat boyligi uncha rivojlanmagan, grammatik birliklarni oʻzlashtirmagan davrda bogʻlanishli nutqni oʻstirishga kirishish mumkin emas.

Ogʻzaki matn tuzishga oid oddiy topshiriqlar, kichik hikoyalarni soʻzlab berish kabilar bola nutqi oldiga ikkita muhim talab qoʻyishga asos boʻladi:

1) bog‘lanishli nutq erkin tarzda tarkib topishi, bunda bola nutqidagi jumlar kengroq bo‘lishi kerak;

2) bolaning bog‘lanishli nutqi rejalashtirilishi, hikoyani rivojlantirib boruvchi holatlar ko‘rsatilishi va unga batafsil tushuntirilishi lozim. Bog‘lanishli nutqning sodda shakllarini tuzishda ushbu muhim ko‘nikmalarni shakllantirish uning nisbatan murakkab shakllariga o‘tish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Monologik nutqning bog‘liqligi nutqiy muloqotning asosiy shakli sifatida dialoglar negizida shakllana boshlaydi. Dialogdagi izchillik ikki shaxsning layoqat va ko‘nikmalariga bog‘liq. Ushbu aloqadorlikni ta‘minlash mas‘uliyati dastlab tarbiyachilar zimmasida bo‘lsa, asta-sekin bu mas‘uliyat bolalarga yuklanadi. Dialog jarayonida suhbatdoshlarning har biri ikkinchisining savoliga javob beradi; monologik nutqda so‘zlovchi o‘z fikrlarini izchil bayon qilar ekan, savollarga o‘zi javob beradi. Kattalar bilan muloqotga kirishgan bola o‘z-o‘ziga savol berishni o‘rganadi. Dialog – bolaning bog‘lanishli nutqi rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Yozma nutq – bog‘lanishli nutqning eng oliy ko‘rinishidir. U og‘zaki nutqqa qaraganda erkin, ongli, rejalashtirilgan bo‘ladi. Bolalarda og‘zaki nutqni rivojlantirish ularning maktabda yozma nutq ko‘nikmalarini oson egallashlariga asos yaratadi. Shuning uchun ham bolalarda o‘rtoqlari, ota-onalariga og‘zaki xat yo‘llash ko‘nikmasini tarkib toptirish lozim. YE.I.Tixeyeva ham xat yo‘llashning maktabgacha yoshdagilar nutqini rivojlantirishda qimmatli usul ekanligini ta‘kidlagan edi. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida bolalarda yozuvga nisbatan qiziqishni shakllantirish zarur. YE.I.Tixeyeva hatto «uch-to‘rt yoshli bolalar bilan ham» xat yozish mashg‘ulotlarini o‘tkazish mumkinligini nazarda tutadi.

Xat yozish, odatda, jamoa bo‘lib amalga oshiriladi, ammo bu bilan nutqning monologik xususiyatlari yo‘qolib, matn tuzishda erkinlik, onglilikka qo‘yiladigan talablar pasayib qolmaydi: chunki matn tuzishda har bir bola individual tarzda ishtirok etadi. Bundan tashqari, xatni jamoa bo‘lib yozish tarbiyachi uchun bolalarda gap (jumla)ning eng yaxshi, eng mos keladigan variantini yoki matnning xat mazmunini bayon etish davomida nisbatan yirik qismini tanlab olishdek muhim layoqatni shakllantirishni yengillashtiradi. Bu layoqat, aslida, mulohaza yuritishdagi erkinlik, onglilikni ta‘minlaydi. Bundan tashqari, maktabgacha ta‘lim jarayonida guruhli ish turidan foydalanish individual tarzda xat yo‘llash usulidan voz kechishni bildirmaydi. Bolaning nutqini samarali rivojlantirish uchun har ikkala usuldan birday foydalanish tavsiya etiladi.

A.A.Leontyevning ta‘biricha, og‘zaki va yozma nutqning o‘zaro aloqadorligi, shuningdek, yozma nutqning kengligi, erkinligi, izchilligini ta‘kidlab, rejali, dasturlashtirilgan nutqqa o‘rgatishni yozma nutqqa o‘rgatishdan boshlash osonroq. Maktabgacha yoshdagi bolalarga bunday ta‘lim berish aynan xat yo‘llashga o‘rgatish orqali amalga oshiriladi. Xat yo‘llash usulidan foydalanish orqali bola og‘zaki nutqidagi izchillikni ta‘mishlash, nisbatan murakkab sintaktik konstruksiyalar bilan boyitish imkonini beradi. Chunki nutq tashqi ko‘rinishidan og‘zakilik xususiyatini yo‘qotmagan holda, ayni paytda, yozma nutq uchun xos bo‘lgan kenglik, erkinlik darajasida tuziladi. Buning natijasida o‘zining tuzilishi, aloqadorligiga ko‘ra yozma nutqqa yaqinlashadi.

Bola nutqidagi erkinlik, soʻzlarni tanlash, oʻz oʻrnida qoʻllash layoqatini shakllantirish uning mantiqiy izchilligini taʼminlaydi. Masalan, maktabgacha yoshdagi bola bormoq – ketmoq – qadam tashlamoq – oyogʻini sudramoq maʼnodosh soʻzlar qatoridagi dastlabki ikki soʻzdan faol foydalana oladi, lekin ushbu soʻzlarning barchasini tushuna oladi. Agar bolada fikr ifodalash ehtiyojiga bogʻliq tarzda soʻzlarni tanlash va qoʻllash layoqati shakllanmagan boʻlsa, ularni taxminan qoʻllaydi. Agar bolada soʻzlarni tanlab qoʻllash layoqati shakllangan boʻlsa, fikr ifodalash ehtiyojiga mos tarzda ularni tanlab qoʻllaydi. Buning uchun bolada soʻzlarni oʻz oʻrnida qoʻllash koʻnikmasini shakllantirish kerak. Bola fikr ifodalayotganda oʻz lugʻatida mavjud boʻlgan soʻzlardan faqat bittasinigina qoʻllaydi. Biroq, bola oʻz soʻz zaxirasida boʻlgan barcha soʻzlardan birday faol foydalanish imkoniyatiga ega emas. Bola fikr ifodalash ehtiyoji bilan bogʻliq tarzda oʻz zaxirasida mavjud boʻlgan soʻzlardan foydalanadi. Masalan, bormoq soʻzini emas, oyogʻini sudramoq soʻz birikmasini qoʻllashi mumkin. Murakkab grammatik (sintaktik) konstruksiyalarni faollashtirish ustida ishlashda ham xuddi shunday usuldan foydalanish mumkin.

Shu tariqa bogʻlanishli nutq tilning barcha imkoniyatlaridan unumli foydalanishni taqozo qiladi. Shuning uchun ham bolalarga tilning tovush xususiyatlari, soʻz boyligi, grammatik imkoniyatlarini izchil tarzda oʻrgatish talab etiladi.

Maktabgacha taʼlim muassasalarida nutq ustida ish olib borishning umumiy tizimida lugʻat zahirasi boyitish, uni mustahkamlash va faollashtirish katta oʻrin tutadi. Bolaning lugʻat zahirasi kengaytirmay turib, nutq muloqotini takomillashtirib boʻlmaydi. Shu bilan birga, bola yangi oʻzlashtirayotgan tushunchalarini ifodalovchi, olayotgan bilim va tasavvurlarini mustahkamlovchi yangi soʻzlarni oʻzlashtirmay turib, uning bilimlari, tushunchaga oid tafakkurini rivojlantirish mumkin emas. Shunga koʻra, maktabgacha taʼlim muassasalarida lugʻat ustida ish olib borish bolalarning bilishga oid tushunchalarini rivojlantirish bilan uzviy bogʻliqdir.

Ushbu aloqadorlik doirasida lugʻat ustida ishlashning ahamiyatini taʼkidlab, soʻzlar va ularning koʻp maʼnoliligini oʻrgatish ustida ish olib borishning muhimligini alohida koʻrsatib oʻtish kerak. Masalan, bolalarni atrofdagi narsalarning nomi, xususiyatlari, sifatlari bilan tanishtirish sharoitida yangi soʻzlar kiritiladi: koʻk (rangni ifodalash uchun), yangi («hozirgina tayyorlangan» maʼnosida) va h. Bu oʻrinda yangi soʻzlar narsalarning nomlari va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda oʻrgatilishi lozim. Bu bolaning nutqini oʻstirish nuqtai nazaridan juda muhimdir. Bu jarayonda bolalar turli tushunchalarni ifodalovchi soʻzlarning mazmun-mohiyatini anglaydilar hamda oʻzbek tilining soʻz boyligini izchil oʻzlashtiradilar. Har bir soʻzning til nuqtai nazaridan tavsifi, koʻp maʼnoliligini hisobga olgan holda dastlab ularning asosiy maʼnolari bolalar ongiga yetkaziladi.

Maktabgacha taʼlim jarayonida bolalarning nutqini rivojlantirish ustida ishlash davomida tovush tomoniga alohida eʼtibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Nutqning tovush tomonini oʻzlashtirish – ona tiliga xos tovushlarni oʻzlashtirib olishdangina iborat emas, shuning uchun nutqning tovush tomonini oʻzlashtirish tushunchasiga nafaqat ularni toʻgʻri talaffuz qilish, balki tovushning baland-pastligi, ifodalanish surʼati kabilar ham kiradi. Shuni alohida taʼkidlash kerakki,

nutqning tovush tomoni uning mazmunini ifodalaydi. U nutqning eng kichik birligi bo'lgan tovushning fizik va lingvistik tavsifini o'z ichiga oladi. Bu jarayonda nutqiy muloqotga bo'lgan faol va nafaol munosabatni ajratib ko'rsatish mumkin. Shuning uchun ham talaffuz ko'nikmalari ikki guruhga bo'linadi: nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmasi va o'zgarar nutqini eshitish ko'nikmasi.

Talaffuz ko'nikmalari tarkibiga kiruvchi turli birliklar muloqot jarayonining samaradorligini ta'minlaydi. Masalan, bola talaffuzidagi ayrim xatolar fikrning tushunarligini umumiy tarzda pasaytira olmasa ham, muloqot jarayoniga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Xuddi shuningdek, ohangdorlik ifodalilikning past darajasi so'zlarni idrok qilishni qiyinlashtiradi. Bunda nutqning ifodalilik darajasigina pasayib qolmasdan, ma'no urg'ulari o'zaro qorishadi. Bu esa idrok etilayotgan nutq mazmunini tushunishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

«Maktabgacha ta'lim muassasalari dasturi»ning maktabga tayyorlash bo'limida nutq o'stirish oldiga yangi vazifalar qo'yilgan. Ushbu vazifalarni yechish bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashni ta'minlaydi. Tayyorlov guruhlarida bolalarning nutqini o'stirish alohida ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachi ularda og'zaki nutqqa lisoniy voqelik sifatida munosabatda bo'lish ko'nikmasini shakllantiradi; bu ularda so'zlarni tovush jihatidan tahlil qilish ko'nikmasini tarkib toptiradi. Bolalarni 2–4 so'zdan iborat gap tuzish, ixcham gaplar tarkibidagi so'zlarni ajratish, so'zlarni bo'g'inlarga bo'lish va bo'g'inlar yordamida so'z tuzishga o'rgatish ko'zda tutiladi.

«Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, – deb yozgan edi O.I.Solovyeva, – savod o'rgatishning boshlang'ich davrida – bu nutqqa bo'lgan yangicha munosabatni shakllantirish demakdir. Ilgari bolalarning bilish ko'nikmalari nutq orqali ifodalanadigan narsalarga qaratilgan bo'lsa, endi nutqning o'zi, uning tashqi tovush tomoni bilish predmetiga aylanadi». Shu tariqa, O.I. Solovyeva so'zning tovush tomoni bilan bir qatorda nutqning so'z jihatdan tarkibini ham anglash predmetiga aylanishini ko'rsatib o'tadi. Bolalar tovush, bo'g'in, so'z, gap bilan amaliy jihatdan tanishadilar. Nutqni idrok etish va tushunishda, avvalombor, u orqali ifodalanadigan mazmun anglanadi. Fikr nutq orqali ifodalanganda, uni suhbatdoshiga ma'lum qilinganda unda ifodalangan mazmun namoyon bo'ladi.

Bolalarni maktabga tayyorlashdagi eng muhim vazifa, sensor tarbiya vositasida ularning nutqini o'stirishdan iborat. Masalan, nutqning tovush tomonini eshitish, tovushlarni o'zaro farqlashga e'tibor qaratishi, uni tinglash, to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalarini shakllantirish nihoyatda zarur. Buning uchun mashg'ulotlar va didaktik o'yinlar tashkil etish lozim. Bu jarayonda tovushlar va so'zlarning jarangdorligiga e'tibor qaratishni bolalarga o'rgatish kerak. Bir necha so'zda takrorlanib kelgan tovushlarni topish, so'z tarkibidagi birinchi va oxirgi tovushni aniqlash, tarbiyachi talaffuz qilgan tovush ishtirok etgan so'zlarni eslash kabi topshiriqlar alohida qimmatga ega.

Shuningdek, bolalarning so'z boyliklarini oshirish va faollashtirish ustida izchil ishlash lozim. Bunday ishlar jarayonida bolalar qarama-qarshi ma'noli so'zlar (baland – past, kuchli – kuchsiz va h.z.)ni topishga o'rgatiladilar. Katta guruh tarbiyalanuvchilari e'tibori she'r yoki hikoyada ifodalangan qorning tavsifiga jalb qilinar ekan, tarbiyachi qorning rangi va xususiyatini ifodalovchi so'zlarni so'rashi

kerak. Bunday topshiriqlarni bajarish jarayonida bolalar tovushlar, soʻzlarning maʼnosini oʻzlashtira boshlaydilar. Biroq, tarbiyachi oʻz oldiga bolalarda tovush va soʻzlarning xususiyati, mazmunini anglash koʻnikmasini shakllantirish vazifasini qoʻygandagina ularning nutqini samarali rivojlantirishi mumkin.

Mantiq ilmida «ostensiv taʼrif» atamasi borki, u verbal, lisoniy taʼrifga qarama-qarshi quyiladi. «Ostensiv» soʻzi lotincha «ostensio» – koʻrsatmoq, «ostendo» – koʻrsatyapman, namoyish etyapman, namuna tarzida keltiryapman maʼnolarini bildiradi. Maktabgacha taʼlim muassasalarida qoʻllaniladigan topshiriqlarni shakllantirishda koʻrgazmalikdan unumli foydalanish lozim. Bolalarni savod oʻrgatishga tayyorlash boʻyicha ishlash jarayonida ham xuddi shunday yoʻl tutiladi.

«Maktabgacha taʼlim muassasalari dasturi»da koʻrsatilishicha, tarbiyalanuvchilarning gap, soʻz toʻgʻrisidagi tasavvurlari amaliy mashgʻulotlar davomida mustahkamlanishi kerak. Amaliy mashgʻulotlar davomida ostensiv taʼrifdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bolalarga tovushlar va soʻzlarning ostensiv taʼrif asosida oʻrgatilishi ularga soʻz va tovushlar haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Keyinchalik, gaplarni soʻzlarga ajratish, soʻzlarni tovush jihatidan tahlil qilish kabilarga oʻrgatish davomida ushbu tasavvurlar chuqurlashtiriladi. Chunki bola soʻzlarni aynan nutq birligi sifatida qismlarga ajratadi. Undagi tovushlarni umumiy bir butunlik (gap, soʻz) ichida alohida «eshitish» imkoniga ega boʻladi.

Tarbiyachi bolalarni soʻzlar va uning tarkibidagi tovushlar bilan tanishtirar ekan, ular koʻz oʻngida inson nutqining jarayon sifatidagi xususiyati – diskretliligi, uni tashkil etuvchi birliklarning har biri alohida-alohida ekanligi, muntazamliligi va izchilligi gavdalanadi.

Bola tomonidan nutqning idrok etilishi va oʻzlashtirilishi haqida fikr yuritar ekanmiz, nutqning savod oʻrgatishga tayyorlash va nutq toʻgʻrisidagi elementar bilim va tasavvurlarni bevosita shakllantirish mohiyatigagina ega emasligini taʼkidlash zarur. Ular bolalarning maktabda ona tilini chuqur oʻzlashtirishlariga zamin boʻladi. Bolani maktabga tayyorlash jarayonida sodir boʻladigan nutqni anglash hodisasi uning nutqi rivojlanishida ham katta ahamiyatga ega, chunki anglash asosida nutqning ixtiyoriyligi, erkinligi, sofligi, mazmundorligi taʼminlanadi.

Tabiat qonunlarini oʻrganar ekan inson tashqi olamning muayyan hodisalarini boshqarish imkoniyatini qoʻlga kiritadi. Inson faoliyati qonuniyatlarni oʻrganar ekan, uni boshqarish, takomillashtirish layoqatiga ega boʻladi. Shuning uchun ham, bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida shakllantiriladigan nutqni anglash koʻnikmasi – shunchaki oʻqish va yozishni oʻrganishning sharti, nutq toʻgʻrisidagi bilim va tasavvurlarning kengayishigina emas. Bu nutqni keyinchalik ham rivojlantirib, takomillashtirishning muhim vositasidir.

Inson nutq boyligining muhim belgisi, fikrni aniq ifodalashdan iboratdir. Bolalar nutqini rivojlantirishda tarbiyachilar va ota-onalar muhim oʻrin egallaydilar. Bola nutq boyligi kattalar bilan qiladigan muloqoti natijasida hosil boʻladi. Bolalar nutqning tovush xususiyatlarini kattalar bilan muloqot jarayonida oʻzlashtiradilar.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni soʻzlar tarkibidagi tovushlarni aniq talaffuz qilish, har bir soʻzni toʻgʻri aytishga oʻrgatish, ularda ifodali fikr bayon qilish koʻnikmasini shakllantirish zarur. Baʼzida tarbiyachilarning bolalar nutqini toʻgʻri shakllantirish, ular nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etish sohasidagi ishlari logopedlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim. Biroq, bolalar nutqning tovush xususiyatini toʻgʻri oʻzlashtirishlari uchun izchil tarzda tashkil etiladigan mashgʻulotlar alohida ahamiyatga ega. Bolalarga talaffuz meyorlarini singdirish barcha mashgʻulotlar tarkibida amalga oshirilishi kerak. Tarbiyachi bolalarning talaffuz jarayonida toʻgʻri nafas olishlari, ona tilidagi barcha tovushlarni aniq ayta olishlari, ovozdan toʻgʻri foydalana bilish koʻnikmalarini tarkib toptirishga koʻmaklashishi lozim.

Shu bilan bir qatorda, nutqning tovush xususiyatlarini bolalarga oʻrgatish sohasida olib boriladigan didaktik ishlarda logoped bilan hamkorlik qilish asosida nutqdagi nuqsonlarni bartaraf etishga qaratilgan propedevtik ishlar bilan shugʻullanishlari hamda logopedik usullardan foydalanishlari lozim.

Bolalarda nutq tovushlaridan toʻgʻri foydalanish koʻnikmasini hosil qilish uning boshqa jihatlari: soʻz boyligi, bogʻlanishli nutq, grammatik vositalarni oʻzlashtirish imkonini beradi.

Maktabgacha yoshda bolalar tomonidan oʻzlashtirilgan til boyligi ularga muloqotga kirishish, kelajakda maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish, oʻz fikrlarini bayon qilish, bayon qilingan fikrlarni tushunish imkonini berishi lozim. Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim pedagogikasida bolalarning soʻz boyligini oshirish orqali ularning nutqini rivojlantirish alohida oʻrin egallaydi.

Bolalarning soʻz boyligini oshirish deganda oʻzbek xalqining butun tajribasi davomida toʻplagan soʻz zahirasi uzluksiz oʻzlashtirish jarayoni tushuniladi. Bunda avvalambor bolaning soʻz boyligi miqdor jihatdan koʻpayib boradi. Masalan, 1 yoshli bola 10-12 soʻzdan faol foydalanadi, 6 yoshga kelib esa uning faol qoʻllaydigan soʻz zaxirasi 3 – 3,5 mingga yetadi.

Bola soʻz boyligining sifati haqida fikr yuritilganda, bilish natijasini aks ettiruvchi soʻzning ijtimoiy jihatdan barqaror mazmunining bolalar tomonidan asta-sekinlik bilan oʻzlashtirilib borilishini nazarda tutish kerak. Bilishning bunday natijasi soʻz vositasida mustahakamlanadi va bola tomonidan anglanadi. Xuddi shu mazmun muloqot jarayonida bolaning oʻz fikrini boshqalarga yetkazishini taʼminlaydi.

Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasida taʼkidlanganidek, “tushuncha – narsa va hodisalarning muhim xususiyatlari, aloqalari va munosabatlarini aks ettiruvchi tafakkur shakli. Tushuncha bilish mahsulidir, bu bilish oddiydan murakkabga koʻtarila borib, eski tushunchalarni mukammallashtiradi, aniqlashtiradi va yangilarini shakllantiradi”. U nutqda soʻz shaklida ifodalanadi.

Psixologik nuqtai nazardan qaralganda ham har bir soʻz muayyan tushunchani ifodalaydi. L.S.Vigotskiy, E.Gʻoziyevlar soʻzning muayyan tushunchani ifodalovchi birlik ekanligini taʼkidlagan edilar. Bolalardagi soʻz boyligining mazmuni turli tushunchalarni ifodalaydi.

Tafakkurining koʻrgazmali-amaliy va koʻrgazmali-tasviriy xususiyatlari tufayli bola, eng avvalo, koʻrgazmali tarzda namoyish etilgan yoki oʻz faoliyatida

qoʻllaydigan buyumlar, hodisalar, sifatlar, xususiyatlar, munosabatlarning nomlarini oʻzlashtiradi, bular bolalarning soʻz boyligida katta oʻrin egallaydi.

Soʻzning mazmun-mohiyatini izchil tarzda oʻzlashtirish inson tafakkurining muhim xususiyatidir. Dastlab, bola soʻzni faqat muayyan buyum yoki hodisa bilan bogʻliq tarzda anglaydi va oʻzlashtiradi. Bunday soʻzlar ular ongida umumlashtiruvchi xarakter kasb etmaydi, u bolaga faqat muayyan narsa, hodisa toʻgʻrisida xabar beradi yoki bola ongida ularning timsollarini aks ettiradi.

Atrofdagi voqea-hodisalar, buyumlarning xususiyatlarini oʻzlashtirish darajasiga qoʻra, bola muayyan belgilarga tayangan holda umumiy xulosalar chiqara boshlaydi. Koʻp hollarda bu xulosalar juzʻiy, ikkinchi darajali boʻladi, biroq, ular bola uchun hissiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Masalan, koʻp hollarda bolalar «momiq» deganda nafaqat mushukni tushunadilar, balki parli, moʻynadan tayyorlangan barcha buyumlarni ular shu nom bilan ataydilar.

Xuddi shu xususiyat katta yoshli bolalarda ham uchraydi. Masalan, ular sabzavotlar qatoriga faqatgina sabzi, piyoz, lavlagini kiritib, karam, bodring va pomidor singari sabzavotlarni qoʻshmaydilar. Yoki ushbu soʻz mazmunini oʻta kengaytirib yuborish hollari uchraydi, jumladan «sabzavotlar» tushunchasiga baʼzi bolalar mevalar, qoʻziqorinlarning ayrim turlarini ham kiritadilar. Buning sababi esa: «Bularning hammasi oʻsadi» yoki «Bularning barchasi yeyiladi», – degan tushunchaga egaliklaridadir. Bola tafakkurining tajrijiy ravishda rivojlanish darajasiga qarab, soʻzning haqiqiy maʼnolarini anglaydi. Shu tariqa soʻzlarning maʼnolarini maktabgacha yoshdagi bolalar bilish imkoniyatlari doirasida oʻzlashtiradilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining muhim xususiyatlaridan biri, ularda lugʻat zahirasiidagi soʻzlarning kamligidadir. Chunki, ularning atrof-muhit, buyumlar haqida toʻplagan maʼlumotlari bir qadar ozdir.

Bolalar lugʻat boyligi ortishining oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni rivojlantirishda quyidagi vazifalarni belgilab olish lozim:

- 1) kundalik muloqot uchun zarur soʻzlar zaxirasini hosil qilish;
- 2) bolalar soʻzlarning asl maʼnolarini oʻzlashtirishlariga erishish. Ushbu vazifalarni samarali yechish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:
  - atrof-muhitdagi narsa-buyumlar va hodisalarning nomlarini ifodalovchi soʻzlarni bolalar nutqiga singdirish, bunda sensor tarbiya imkoniyatlaridan keng foydalanish;
  - bolalar narsa va hodisalarning muhim belgilarini anglagan holda ular ifodalagan soʻzlarni oʻzlashtirishlarini taʼminlash;
  - soʻzlarda ifodalangan obrazlilikni bolalarga his ettirish orqali ularga soʻz maʼnolarini yetkazish;
  - bolalarning soʻz zaxiralarini faollashtirish, yaʼni oʻzlashtirgan soʻzlaridan oʻz fikrlarini bayon qilishda unumli foydalana olishlariga sharoit yaratib berish kabilar.

Bolalar nutqining xususiyatlari va ularning soʻz boyligi ustida ishlash vazifalari maktabgacha taʼlim muassasalarida sensor tarbiya vositasida ular nutqini rivojlantirish tamoyillarini aniqlash zaruriyatini taqozo qiladi. Bunday tamoyillar sirasiga, eng avvalo, bolalar lugʻat boyligini ularning atrofdagi voqelikni faol va

amaliy jihatdan anglashlariga tayangan holda shakllantirish tamoyilini kiritish mumkin. Maktabgacha ta'lim muassasalari Dasturlari tarkibida lug'at ustida ishlash mashg'ulotlari bola faoliyatining turli ko'rinishlari (o'yinlar, mashg'ulotlar) tarzida ifodalangan. Yuqorida ko'rsatilgan tamoyilga amal qilgan holda bolalarning so'z boyligini izchil rivojlantirish mumkin.

Keyingi tamoyil – lug'at ustida ish olib borish mazmuni bilan bola tomonidan atrofdagi olamni anglashning muntazam rivojlanib boruvchi imkoniyatlari orasida aloqadorlikning mavjudligi tamoyilidir. Bu tamoyilga ko'ra, lug'at ustida ishlash mazmuni bir yoshdan ikkinchisiga o'tgan sari murakkablashadi.

Lug'at ustida ishlash mazmunining murakkablashib borishini quyidagi uch yo'nalish bo'yicha kuzatish mumkin:

- 1) bolalarning so'z zahiralari narsa va hodisalar bilan tanishish doirasining muntazam kengayib borishi asosida oshirish;
- 2) bolaning atrof-olam hodisalari va narsalar to'g'risidagi tasavvurlarini chuqurlashtirish asosida buyumlarning sifatlari, xususiyatlari, munosabatlarini ifodalovchi so'zlarni ular nutqiga singdirish;
- 3) bolalar so'z boyligi tarkibiga narsa va buyumlarni muhim belgilariga qarab farqlash va umumlashtirish asosida sodda tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni singdirish.

Bolalar lug'at ustida ishlashning yuqoridagi yo'nalishlari barcha yosh guruhlarida turli shaklda: atrof-muhitdagi turli buyumlar va hodisalar, moddiy madaniy narsalar, ijtimoiy voqelik kabilar bilan tanishtirish orqali amalga oshiriladi.

Biz quyida bolalar so'z boyligi ustida ishlash jarayonini tavsiflashga harakat qilamiz. Bu faoliyat maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning tevarak-atrofdagi buyumlar bilan tanishishi jarayonida amalga oshirilgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, turli yosh guruhlarida bunday didaktik jarayonlar o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Bolalar o'z hayotlarining 2–3-yillarida maktabgacha ta'lim muassasasi va uyda tez-tez duch keladigan hamda o'zlarida qiziqish uyg'otadigan kiyimlar, jihozlar, idish-tovoqlar, o'yinchoqlar nomlarini o'zlashtiradilar.

Ushbu bosqichda ularning so'z boyligi ustida ishlash mazmuni buyumlarning qismlari, jonivorlar va insonlarning tana a'zolari, masalan, ko'ylakning yengi, cho'ntagi, choynakning qopqog'i, ayiqchaning og'zi, oyog'i, akamning qo'llari, ko'zi, burni, eshikning tutqichi kabilar, ba'zi ranglar(oq-qora), shakllar, ba'zi narsalarning ta'mi(achchiq-shirin), haroratni ifodalovchi so'zlarni o'rgatish nazarda tutiladi.

Bu davrda bolalarga bir turdagi buyumlar, ularning o'lchamlari, rangi, fazoviy holatini ifodalovchi tayanch so'zlar, shuningdek, bir guruhga mansub buyumlarni boshqa shunga o'xshash buyumlardan farqlovchi so'zlar o'rgatiladi. Garchi bolalar so'zlarni qo'llashda tez-tez xatolarga yo'l qo'ysalarda, o'zlariga tanish bo'lgan buyumlar yoki voqealarni ifodalashda aniq so'zlardan foydalanadilar.

Bolalar o'z hayotlarining 4-yiliga kelib ularning so'z boyligi ijtimoiy voqelik va mashg'ulotlar ta'sirida ortib boradi. Bolalar kundalik hayotda o'zlari duch keladigan ko'plab buyumlar, hodisalarning nomlarini aytishga bir qadar qiynaladilar. Bu ularning idroklari va tasavvurlari yetarlicha shakllanmaganligi,

ular turli buyumlar va voqealarni o'zaro farqlay olmasliklari natijasida vujudga keladi. Shunga ko'ra mazkur yosh bosqichida bolalarni buyumlarning xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirish va ular to'g'risidagi tasavvurlarini chuqurlashtirish maqsadga muvofiqdir. Bolalarni turli buyumlarning nomlari, ularning vazifasi, tuzilish xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirish lozim. Turli buyumlarning sifat va xususiyatlarini ajratish, narsalarning tabiatini izohlashga bolalarni o'rgatish ham ularning nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bolalar muayyan buyumning o'ziga xos jihatlarini o'rganar ekanlar, ularning o'lchamlari, ranglarini ifodalovchi so'zlarni o'zlashtiradilar.

Lug'at ustida ishlash bolalarni o'xshash buyumlarni muhim belgilariga qarab farqlash va ularni so'z vositasida aniq ta'riflashga o'rgatish vazifalarini ham o'z ichiga oladi.

Bolalar hayotlarining beshinchi yiliga kelib, ularning so'z zaxiralariga faol so'zlar: meva va sabzavotlar; oziq-ovqat mahsulotlari; uy-ro'zg'or buyumlari; turli matolar; gazlama; qog'oz; shisha kabilar, shuningdek, bolaga o'zining shaxsiy tajribasi va sensor tajribalari orqali tanish bo'lgan buyum va materiallarning xususiyatini anglatuvchi so'zlar nomini o'rgatish ko'zda tutiladi.

Tarbiyachi rahbarligida bolalar buyumlar va hodisalarning asosiy jihatlarini – vazifasiga ko'ra guruhlashga o'rganadilar. Hayotlarining 5-yili oxiriga kelib, ular oddiy so'z va tushunchalar, ularning ma'nolarini o'zlashtiradilar. Narsa-buyumlarni muhim belgilari majmuiga ko'ra guruhlash bolalar uchun bir qadar murakkablik qiladi.

Katta maktabgacha yoshda bolalarning so'z boyligini rivojlantirish ustida ishlash davom ettiriladi. Bunda asosiy e'tibor bolalarga buyumlarning sifat va xususiyatlari ifodalanish darajasiga qarab qiyosiy ma'no bildiruvchi so'zlar (och qizil, nordonroq, achchiq-sho'r, mustahkamroq, og'irroq, qalin va h.z.)ni faol o'rgatishga qaratiladi.

Bolalar o'z so'z zaxiralarini turli materiallarning nomlarini ifodalovchi (metall, plastmassa, shisha, chinni va b.) so'zlar bilan boyitadilar. Ularning so'z boyligi tarkibiga sodda tushunchalar (asbob-uskunalar, idish-tovoqlar, sabzavotlar, mevalar, transport, yovvoyi va xonaki jonivorlar, qishlovchi hamda ko'chmanchi qushlar va h.z.lar)ning nomlarini kiritish izchil tizim asosida davom ettirilishi kerak.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda turli tushunchalarni ifodalovchi so'zlarni belgi va xususiyatlariga ko'ra guruhlash ko'nikmasi ham hosil qilinadi. Shu tariqa bolalarning so'z boyligini oshirish ustida amalga oshiriladigan didaktik ishlarning mazmuni ularning moddiy borliq haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga asos bo'ladi.

Natijada bolalarning so'z boyligi ortadi, muloqotga kirishish ko'nikmalari takomillashadi. Bolalarning so'z boyligi o'zining mazmuniga ko'ra rangba-rangligi bilan bir-biridan farqlanadi. Ular tomonidan o'zlashtirilgan so'zlar o'zining tabiatiga ko'ra barcha so'z turkumlariga mansub bo'ladi.

Bolalarning so'z boyligini rivojlantirish ustida ishlash maxsus tashkil etilgan mashg'ulotlarda amalga oshiriladi. Ular 3 turdagi mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi: 1) bolalarni o'rab turgan voqelikdagi narsa va hodisalarning muntazam tarzda

kengayib boruvchi doirasi bilan tanishtirish jarayonida amalga oshiriladigan mashgʻulotlar davomida ularning soʻz boyligini rivojlantirish ustida ishlashga yoʻnaltirilgan mashgʻulotlar; 2) bolalarning tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar toʻgʻrisidagi tasavvurlarini chuqurlashtirish maqsadida tashkil etiladigan mashgʻulotlar; 3) bolalarning tushuncha va tasavvurlarini kengaytirish asosida ularning soʻz boyligini oshirishga qaratilgan mashgʻulotlar.

Ushbu mashgʻulotlarning barchasida ham bolalarning soʻz boyliklarini oshirish ularning bilish faoliyatini takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunday mashgʻulotlar oldiga bir qator talablar qoʻyiladi:

1. Bolalarning soʻz boyligini oshirish bilan bilish jarayonining yaxlitligini taʼminlash;

2. Mashgʻulotlar jarayonida bolalarning nutqiy va bilish faolligini maqsadga yoʻnaltirilgan tarzda tashkil etish;

3. Bolalarning bilish va nutq oʻstirish jarayonini koʻrgazmalilik asosida tashkil etishga erishish;

4. Bolalarning soʻz boyligini rivojlantirish ustida ishlashga oid barcha vazifalarni har bir mashgʻulot mobaynida yaxlit tarzda amalga oshirish.

Bolalarning soʻz boyliklarini rivojlantirish boʻyicha amalga oshiriladigan ishlar buyumlar, hodisalar, ularning nomlari bilan dastlabki tanishtirishga bagʻishlangan mashgʻulotlardan boshlanadi. Ushbu vazifani bolalarga buyumlar, ularning tasviri, narsalardan qanday foydalanish kerakligini namoyish etish, shuningdek, «Qoʻgʻirchoqni sayrga olib chiqish uchun kiyintiramiz», «Ayiq polvonni asal bilan siylaymiz» kabi oʻyin-mashgʻulotlari orqali amalga oshirish mumkin.

Bunday mashgʻulotlardan koʻzda tutiladigan asosiy maqsad – bolalar nutqiga narsalar nomi va ular ustida bajariladigan ayrim hatti-harakatlar, xususiyatlarini singdirishdan iborat. Bu vazifani bolalarda idrok va tasavvurni toʻgʻri shakllantirgandagina muvaffaqiyatli hal etish mumkin. Bunda bolaning diqqatini buyumlar, harakatlar, ularning tasodifan paydo boʻlishi va yoʻqolib qolishi, oʻzaro munosabatlari, undan qanday foydalanishni oʻrgatishni taqdim etadigan usullarni qoʻllashda samaradorlikka erishish imkonini beradi. Buyum yoki harakatning nomi bolaning diqqati toʻlaligicha unga qaratilgandan soʻnggina aytiladi. Bunda buyumning nomi tarbiyachi tomonidan koʻp marotaba takrorlanadi. Mashgʻulotlar davomida soʻz signal, mazkur buyumning belgisi sifatida qoʻllanilishi kerak. Shu maqsadda, odatda, izlanish vaziyati yuzaga keltirilib, savol beriladi: idish qayerda?, qoʻgʻirchoq yoki koptokchi? kabi. Yoʻqolgan buyumning bola tomonidan faol izlanayotganligini his etayotgan tarbiyachi uni yana bir marta koʻrsatadi. Aynan shu orqali soʻz buyumning oʻzi va uning timsoli bilan bogʻlanadi, tanishish jarayoni vujudga keladi. Shundan keyingina tarbiyachi bolalarning taqlid qilish koʻnikmalarini faollashtirishga – bolalarning buyum paydo boʻlganda yoki yoʻqolib qolganda nomini takrorlashlariga harakat qiladi.

Soʻzlarning bola ongida mustahkam muhrlanib qolishi buyumlar va hodisalar bilan olib boriladigan mashgʻulotlar jarayonida amalga oshiriladi. Bunday mashgʻulotlarda bolalar boshqa buyumlar orasidan bir narsani tanlab, olib keladilar, tanish buyumlarni koʻrsatadilar, ular bilan turli-tuman hatti-harakatlarni amalga oshiradilar.

Bolaning diqqatini buyum ustida amallar bajarishga jalb qilar ekan, tarbiyachi ularning nomini takrorlashlarini muntazam talab qiladi, savolga javob berishga undab, soʻzlayotganlarni ragʻbatlantirib turadi, ularni joʻr boʻlib yoki alohida-alohida gapirishga undaydi.

Bu turdagi mashgʻulotlarda oʻyinlar: buyumlar paydo boʻlganda kutilmagan sovgʻalar berilishi, bolalarning bu buyumlar bilan oʻyin harakatlarini bajarishlari, shuningdek, oʻyinga kerakli aksessuarlar: «sehrli qopcha», sovgʻalar, oʻyinchoqlar istiqomat qiladigan uycha, harakatlar ijro etiladigan televizor kabilardan unumli foydalaniladi.

Bunday mashgʻulotlarda lugʻat bilan ishlash mazmuni bolalarning soʻz boyligini ijtimoiy voqelik yordamida rivojlantirib borish bilan uzviy bogʻlangan boʻlishi lozim. Mashgʻulotlar jarayonida bolalar oʻzlashtirgan soʻzlar oʻyin, kundalik faoliyat, kattalar bilan muloqot jarayonida mustahkamlanadi va faollashadi. Kundalik turmushda oʻzlashtirilgan soʻzlar esa mashgʻulotlar jarayonida mustahkamlanadi.

Oʻrta va katta maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalar oʻzlari uchun yangi boʻlgan buyumlar nomini ular bilan amallar bajarish jarayonida oson oʻzlashtiradilar. Soʻz boyligining keyingi rivojlanishi bolalarda voqea-hodisalar, buyumlar toʻgʻrisidagi tasavvurlarning chuqurlashtirilishi, ularning sifatlari, xususiyatlari bilan tanishtirish darajasiga koʻra amalga oshiriladi. Bolalarning buyumlar toʻgʻrisidagi tasavvurlarini chuqurlashtirishga qaratilgan mashgʻulotlarda ularning narsalar toʻgʻrisidagi yaxlit, toʻliq tasavvurlarini shakllantirish vazifasi hal etiladi. Bunda buyumning vazifasi bilan uning tuzilishi va u tayyorlangan material oʻrtasidagi bogʻliqlik oʻz aksini topadi. Faqat shunday sharoitdagina bola buyumni tashkil qiluvchi qismlarning ahamiyati va oʻzaro bogʻliqligini anglaydi.

Bolalar tilning grammatik qurilishini juda erta oʻzlashtira boshlaydilar. Uch yoshli bolaning nutqida, odatda, soʻzlashuv tiliga xos boʻlgan barcha soʻzlar va grammatik qoʻshimchalar oʻz ifodasini topadi. Bu yoshdagi bolalar oʻzlariga yaqin kattalar va tengdoshlari bilan qisqa jumlar orqali soʻzlarni son va kelishiklarga moslab aytadilar. Mazkur yoshdagi bolalarda nutq asosiy muloqot vositasiga aylanadi. Biroq, u hali takomillashmagan boʻladi. Chunki bola ona tili boyliklari, gap tuzish usullarini oʻzlashtirmagan boʻladi. Shuning uchun ham sensor tarbiya vositasida bolalarga til vositalarini izchil oʻrgatish jarayonida muayyan didaktik mazmunga tayanish kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Maktabgacha taʼlim muassasalarida bolalar nutqini sensor tarbiya vositasi orqali rivojlantirishning usul va metodlari

Bugungi kunda sensor tarbiya sohasida toʻplangan tajribalarni umumlashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini sensor tarbiya vositasida rivojlantirishning samarali usullarini izlab topish boʻyicha tadqiqotlar oʻtkazish maqsadga muvofiqdir.

Goʻdaklik davri bolada ruhiy-fiziologik salomatlik mustahkamlanadigan davrdir. Mutaxassislarining eʼtirof etishlaricha, goʻdaklik davri bolaning tugʻilgan kundan boshlab, 3 - 4 yoshgacha boʻlgan davrni qamrab oladi. Hozirgi kunda bir guruh olimlar kichik maktabgacha yoshdagi bolalar toifasiga 3 yoshdan 4 yoshgacha

bo'lganlarini kiritmoqdalar. Ayrimlari esa kichik maktabgacha yoshdagi bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lganlari deb hisoblaydilar.

Zamonaviy psixologiya ilmidagi borliqni his etish orqali anglash olamning inson ongida aks etish shakli sifatida baholanadi. Anglash - bu shaxs ongida insongagina xos bo'lgan obyektiv olamning yaxlit tarzda ifodalanish shaklidir. Anglash muayyan narsalar va hodisalarni his etish orqali bilish imkoniyatidir.

Mutaxassislarining ta'kidlashlaricha, anglash vositasida shaxs ongida qayta tiklangan mavjud tajribalar va his qilingan obyektlar, voqea-hodisalar gavdalanadi. Sensor rivojlanishni aniqlash bolalarda ilgari mavjud bo'lmagan sensor jarayonlar va ularga pedagogik ta'sir ko'rsatish orqali aniqlanadi. Sensor rivojlanishni bunday tushunish bolalarda sensor qobiliyatlarni rivojlantirishni maqsadli tarzda amalga oshirish imkonini beradi.

Zamonaviy pedagogik nazariyalar bolalarning sensor ko'nikmalari sifatida insoniyat tomonidan ko'p asrlar davomida qabul qilinib, qo'llanib kelingan ranglar, shakllar, buyumlarning sifatlarini anglash va tushunishni o'z ichiga oladi. Sensor qobiliyatlari esa, narsalar, hodisalar, kishilarning shaxsiy xususiyatlarini anglashda namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda bolalarni sensor tarbiyalash, sensor qobiliyatni yuzaga chiqarish va rivojlantirish kabi atamalar keng qo'llanilmoqda. Ruxshunoslar bolalar tashqi olamni uning qismlari orqali anglagan holda yaxlit tasavvur etishlarida narsalar va hodisalarning mohiyatini his qiladilar. Bunday yondashuvlar B.G. Ananyev, A.N. Leontyev, B.M. Teplovlarining ishlarida ilgari surilgan. His qilish va tasavvur etishning o'ziga xos tabiati I.M. Sechenov tadqiqotlarida ochib berilgan. Bolaning hatti-harakatlari refleksi asosida vujudga keladi va o'zining qat'iy tarkibini saqlab qoladi. U bolaning hissiyotlari g'ayriixtiyoriy meyorlar doirasida sodir bo'lishini asoslab bergan. I.M. Sechenovning ta'kidlashicha, narsalar voqelik sifatida bolaning hissiyotlarida namoyon bo'ladi. Demak, his-tuyg'u, idrok harakatsiz narsa sifatiga ega bo'lmaydi. Bu shuni ko'rsatadiki, tashqi olamdagi voqelikni anglash bolaning buyumlarga bo'lgan munosabatiga bog'liq (2.2.1 - chizma).

2.2.1 – chizma.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tashqi dunyodagi narsa va hodisalarga bo'lgan munosabatini shakllantirish jarayoni

Bu shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim muassasalarida sensor tarbiya vositasida bolalar nutqini rivojlantirish uchun maxsus tashkil etiladigan mashg'ulotlar alohida amaliy ahamiyat kasb etadi.

A.V. Zaporozets, A.P. Usova, N.P. Sakulina, L.A. Vengerlarning tadqiqotlarida, maktabgacha yoshdagi bolalarning sensor tarbiyasi, sensor jarayonlarga buyumlar, narsa va hodisalarni his qilish, tasavvur etish, anglashni rivojlantirish hamda takomillashtirishga qaratilgan pedagogik usul sifatida qaraladi. Uni murakkablashtirishning muhim sharti buyumlarning xususiyatlarini aniq tasavvur etishga qaratilgan. Bu tarbiyachilar tomonidan bolalarga izchil tizim asosida moddiy borliqdagi narsalar, voqealar, hodisalarning nomlari, o'ziga xos

xususiyatlarini o'rgatishdan iboratdir. L.A.Vengerning ta'kidlashicha, tarbiyachilar bolalarni sensor etalonlar bilan tanishtirishlari muhim ahamiyatga ega.

Bolalarni buyumlarning nomlari va xususiyatlari bilan tanishtirish maktabgacha ta'lim muassasalaridagi amalga oshiriladigan sensor tarbiyaning mazmunini tashkil etishi lozim. Chunki, buyumlarning nomlari, hajmlari va shakllarini ifodalovchi so'zlar ularning voqelik haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Buyumlarning nomlari, shakllari, hajmlari, ranglari va ularning mazmunini to'g'ri idrok etish bolalar nutqining rivojlanishi uchun zarurdir. Shu bilan qatorda, bunday so'zlarni o'zlashtirish natijasida bolalarda ijodiy faoliyat tajribalari shakllana boshlaydi. Sensor tarbiya vositasida bolalarning tinglab idrok etish ko'nikmalarini tarkib toptirish, ular nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqqan holda sensor tarbiya oldiga bir qator vazifalar qo'yiladi.

Bola hayotining birinchi yilida amalga oshirilishi kerak bo'lgan asosiy vazifa, uni yetarli darajada boy va rang-barang tashqi taassurotlar bilan ta'minlash, narsalarning xususiyatlariga e'tiborini qaratishdan iborat. Bolalarda buyumlarni ushlashga bo'lgan intilish shakllanganda uning harakatlarini buyumlarning fazoviy holatiga qarab ularni ushlashga yo'naltirish lozim. Bunday moslashish natijasida asta-sekin narsalarning xususiyatlari bola uchun muayyan ahamiyat kasb eta boshlaydi. Chunonchi, kichkina buyumlarni bir qo'l, kattalarni ikki qo'l bilan ushlashga harakat qiladilar, dumaloq narsalarni kaftlarini tutib, to'rtburchak narsalarni esa ikki tomondan barmoqlari bilan ushlashga o'rganadilar.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning rivojlanish darajalari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Maktabgacha yoshdagi bolalarning ruhiy xususiyatlarida;
- 2,5 – 3, 2 – 6 oylik bolalarning rivojlanish ko'rsatkichlarida;
- 6 oylikdan – 1 yoshgacha, 1 yoshdan- 2, 2 yoshdan – 3, 3 yoshdan – 5, 5 yoshdan - 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning rivojlanish ko'rsatkichlarida.

Bu davrda ta'lim-tarbiyaning asosiy metodi - sensor tarbiya hisoblanadi. Yangidan-yangi taassurotlar oqimini ta'minlar ekan, u nafaqat sezgi a'zolarining rivojlanishi uchun, balki bolaning jismonan va ruhan sog'lom bo'lib kamol topishida alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, bolalar sensor tezkorlik xususiyatiga ega.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, sensor taraqqiyotning past darajasi bola nutqining rivojlanmasligi bilan bir qatorda, ijodiy faoliyat tajribasining sust shakllanishiga ham olib keladi.

Sozanda, rassom, me'mor, yozuvchi, konstruktorlarning muvaffaqiyatlarini ta'minlovchi qobiliyatlar qatorida narsa va hodisalar shakli, rangi, tovushi va boshqa tashqi xususiyatlarining nozik farqlarini alohida teranlik, ravshanlik va aniqlik bilan anglab olish va yetkazib berishga imkon beruvchi sensor qobiliyatlar ham muhim o'rin tutashi ilmiy jihatdan asoslangan. Sensor qobiliyatlar manbai – bolalikning dastlabki davrlarida erishiladigan sensor rivojlanishning umumiy darajasidir.

Sensor rivojlanish bolaning kelajakdagi hayoti uchun naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligi maktabgacha ta'lim nazariyasi va amaliyoti oldiga maktabgacha ta'lim muassasalarida sensor tarbiyani amalga oshirishning samaraliroq usul va

metodlarini ishlab chiqish va qo'llash vazifasini qo'ymoqda. Sensor tarbiyaning asosiy yo'nalishi bolalarni sensor ko'nikmalar bilan qurollantirishdan iboratdir.

Sensor ko'nikmalar maktabgacha ta'lim pedagogikasiga M.Montessori tadqiqotlari orqali kirib kelganligini alohida ta'kidlash kerak. Bunday ko'nikmalarni bolalarga singdirishda buyumlarning nomi, shakli, rangi, hajmi va boshqa xususiyatlarini farqlash uchun bolaning sezgi a'zolarini tizimli ravishda mashq qildirib turish yetarli emas. Shu bilan bir qatorda, bola ijtimoiy tajribani o'zlashtirish yo'li bilan ham rivojlanadi. Bolalardagi sensor ko'nikmalar insoniyat tomonidan yaratilgan ijtimoiy tajribani egallashi natijasida shakllanadi.

Bola hayotda turli buyumlarning rang-barang shakllari, ranglari va boshqa xususiyatlariga duch keladi. Shu bilan bir qatorda, ular san'at namunalari – musiqa, rangtasvir, haykaltaroshlik bilan ham tanishadilar va ularni asta-sekin o'zlashtiradilar. Bunday o'zlashtirish tarbiyachining pedagogik rahbarligida amalga oshirilganda samarali kechadi. Bu o'rinda sensor tarbiya vositasida bolalarni insoniyat tomonidan to'plangan sensor madaniyat bilan izchil tanishtirish jarayoni boshlanadi.

Sensor tarbiya vositasida bolalar nutqini rivojlantirishda sensor etolonlar yordamida buyumlar haqidagi tasavvurlar shakllantiriladi va kengaytiriladi.

Sensor etolonlarni o'zlashtirish – uzoq davom etuvchi murakkab pedagogik jarayondir. Sensor etolonlarni o'zlashtirish buyumlarning xususiyatlarini to'g'ri anglash va nomlarini o'zlashtirishdangina iborat emas. Buyumlarning har bir xususiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lish, ularni tahlil qilish, o'zaro farqlash uchun mazkur tasavvurlardan foydalana olish kerak. Sensor etolonlarni o'zlashtirish – buyumlarning xususiyatlarini baholashda ulardan o'lchov birliklari sifatida foydalanish imkonini beradi.

Bola hayotining ikkinchi-uchinchi yilida sensor tarbiyaning vazifalari bir qadar murakkablashadi. Bu yoshda bola sensor etolonlarni o'zlashtirishga tayyor bo'lmasa-da, unda narsalarning nomi, rangi, shakli, hajmi va boshqa xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurlar hosil bo'la boshlaydi va ular asta-sekin boyiydi. Bu esa bolalarni narsalarning rang-barang xususiyatlari bilan tanishtirish zaruriyatini qo'yadi.

Maktabgacha ta'lim amaliyotida kichik maktabgacha yoshdagi bolalarni ikki-uch xil ranglar va shakllar bilan tanishtirib, ularni eslab qolish va nomlarini to'g'ri talaffuz etishni talab qilishdek eskirgan usullarni yangi metodlar bilan almashtirish lozim. Chunki bunday usullar bolalar nutqini rivojlantirish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bilan bir qatorda, buyumlarning boshqa xususiyatlarini e'tibordan chetda qoldirishlariga asos bo'ladi. Natijada, bolalar idrokida o'ziga xos cheklanishlar vujudga keladi. Agar bola, sariq rangni tanib, zarg'aldoq rang to'g'risida tushunchaga ega bo'lmasa, uni ham sariq rang sifatida idrok qiladi.

Bolalar narsalarning turli xususiyatlari bilan tanishtirilganda, ularning nomlarini eslab qolishlari va o'z o'rnida qo'llashlarini talab qilishga intilish zarur emas. Muhimi, bolalar buyumlarning nomlari va xususiyatlarini ular ustida amallar bajarayotganda esga olishlaridir. Tarbiyachi bolalar bilan mashg'ulotlar o'tkazar ekan, buyumlarning shakllari, ranglarini ifodalovchi so'zlarni qo'llaydi. Ayni

paytda bu soʻzlarni takrorlashni bolalardan talab qilish shart emas. Bolalar mazkur soʻzlarning maʼnosini toʻgʻri tushunib olishlari muhim ahamiyatga ega.

Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar diqqatini buyumlarning nomlari va xususiyatlariga jalb qilish, mazkur soʻzlarni oʻzlashtirishlari uchun narsalarning hajmlarini oʻzaro qiyoslashga yoʻnaltirilgan topshiriqlar ustida ishlash lozim.

Bolalar dastlab bunday topshiriqlarni bajarishga qiynaladilar. Shuning uchun ularga buyumlarning hajmlarini oʻzaro qiyoslash uchun, ularni oʻzaro yaqin holatda joylashtirish talab etiladi. Bolalar buyumlarning tashqi xususiyatlarini chamalashga oʻrgana boshlaydilar. Bu ularga oʻzaro ustma-ust joylashtirib yoki yaqinlashtirib boʻlmaydigan narsalar oʻrtasidagi oʻxshashlik va farqlarni ularning tashqi koʻrinishlari asosida aniqlash imkonini beradi.

Hayotlarining uchinchi yilida bolalar sodda mahsuldor harakatlar (mozaika yigʻish, ranglardan shakllar hosil qilish, qurilish loy, plastilin va yogʻochlardan sodda narsalarni yasash)ni bajara oladilar. Bunda ular tasvirlanayotgan narsa va foydalanilayotgan material xususiyatlarini hisobga olmaydilar, chunki ularning ahamiyatini tushunmaydilar. Shu sababli bolalarni sodda mahsuldor vazifalarni bajarishga oʻrgatish jarayonida, har bir bolaning buyumlarning nomi, shakli, hajmi, rangi va boshqa xususiyatlarini oʻzlashtirishiga eʼtibor qaratish lozim. Uch yoshga toʻlgach, bolalarni sensor tarbiyalashning tayyorlov bosqichi nihoyasiga yetadi. Bola hayotining keyingi bosqichlarida ularda sensor koʻnikmalar tizimli tarzda shakllantiriladi.

Uch yoshdan boshlab bolalarni sensor tarbiyalash jarayonida umumiy tarzda qabul qilingan sensor etolonlar va ulardan foydalanish usullari bilan tanishtirish jarayoni boshlanadi.

Rangni idrok etish sohasida spektrning xromatik («rangli») deb ataluvchi ranglari (qizil, zargʻaldoq, sariq, yashil, moviy, koʻk, binafsha) va axromatik – oq, kul rang, qora ranglar sensor etolonlar boʻlib xizmat qiladi.

Xromatik ranglar spektrda yorugʻlik, yaʼni elektromagnit toʻlqinlarining uzunligiga qarab qizildan binafsha rangga qadar qatʼiy ketma-ketlikda joylashgan. Spektrda ketma-ket joylashmagan ikki rangning aralashtirilishi ular oʻrtasida joylashgan oraliq rangni hosil qiladi, yonma-yon turgan ranglarning aralashtirilishi esa, shu rangning boshqa bir tusini (qizgʻish-zargʻaldoq, sargʻish-yashil) hosil qiladi. Xromatik ranglar ikki guruh – issiq (qizildan sariqqa qadar) va sovuq (yashildan binafsha rangga qadar) ranglarga boʻlinadi. Har bir xromatik rang yoki rang tusi muayyan ravshanlik va boʻyoqdorlikka ega. Ravshanlik – mazkur rang (tus)ning oqqa yaqinlik, boʻyoqdorlik esa – uning sofligi, yaʼni mazkur rang bilan shu yorqinlikdagi kul rangning aralashmasi darajasini bildiradi.

Dastavval, bolalarda xromatik ranglar: oq va qora toʻgʻrisidagi tasavvurlar shakllantirilib, ushbu ranglarning nomlarini oʻzlashtirishga imkon beradigan pedagogik sharoitlar yaratiladi. Tizimli sensor tarbiyaning dastlabki davrida kichik yoshdagi bolalarga oʻrgatilgani kabi yetti xil emas, balki, qiyin oʻzlashtiriluvchi moviy rangni istisno qilgan holda, olti xil rangni ularga oʻrgatish maqsadga muvofiqdir. Bolalarni moviy rang bilan bir qadar kechroq tanishtirish lozim. Bolalar dastlab ranglar, ularning spektrda joylashish oʻrni hamda issiq va sovuq guruhlarga ajratilishi toʻgʻrisida tasavvurga ega boʻlishlari kerak. Bolalarni ranglar

bilan tanishtirish och ko‘k va moviy ranglarni ularning farqlarini aniqlagan holda o‘zaro qiyoslash imkonini beradi. Ranglarning spektrdagi ketma-ketligini o‘zlashtirish natijasida esa, moviy rangning yashil va ko‘k oralig‘idagi rang ekanligini anglashlariga ko‘maklashadi.

Kundalik turmushda ko‘p uchraydigan ranglar bilan tanishtirilganda, ularning yorqinligiga alohida e‘tibor qaratiladi. Shuning uchun ham bolalarga ranglar va ularning nomlarini o‘rgatish nutqini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ayrim och yoki to‘q ranglar kundalik hayotda alohida ko‘rinishga ega. Masalan, och qizil rang pushti so‘zi bilan ataladi. Bolalar bunday so‘zlarni o‘zlashtirishlari mumkin. Shu bilan bir qatorda, mazkur rangning to‘g‘ri nomi, ya’ni och qizil so‘zini ham o‘zlashtirishlari lozim.

Buyumlarning shaklini ifodalovchi etolonlar sifatida geometrik shakllar nazarda tutiladi. Bolalarda sensor ko‘nikmalarni hosil qilish jarayonida bunday shakllarni ifodalovchi so‘zlar bilan tanishtirish, ularda sodda matematik tushunchalarni hosil qilishdan farqlanadi. Buyumlarning shakllarini ifodalovchi so‘zlarni o‘zlashtirish kvadrat, to‘g‘ri to‘rtburchak, doira, oval, uchburchak bilan tanishtirishdan boshlanadi. Keyinchalik, bunday so‘zlar safini kengaytirish mumkin. Biroq, barcha holatlarda ham buyumlarning shakllarini ifodalovchi so‘zlar va ular ma’nolarini o‘zlashtirish orqali muayyan buyumning shaklini farqlash nazarda tutiladi. To‘g‘ri to‘rtburchak, oval va doira bolalarga buyumlarning alohida shakli sifatida taqdim etiladi.

Bolalarga tanishtirilishi lozim deb hisoblangan shakllar quyidagilar: ovallar, aylanalalar, to‘rtburchaklar, uchburchaklardan iborat. Bunday so‘zlar bolalarda buyumlarning shakllarini idrok etish ko‘nikmasini hosil qiladi va shu asosda ularning so‘z boyligini oshirish imkonini beradi. Masalan, doira likobcha, dumaloq shar esa koptok shaklini ifodalaydi. Shu bilan bir qatorda, buyumlarning hajmli shakllarini o‘rgatish qo‘shimcha qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Buyumlarning hajmlarini ifodalovchi so‘zlarni bolalarga o‘rgatish jarayoni ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Buyumlarning hajmi, odatda, ularning bir turdagi narsalar qatorida egallagan o‘rniga qarab belgilanadi. Masalan, katta uy – boshqa ko‘plab uylarga qaraganda kattaroq. Shu tariqa, hajm etolonlar sifatida narsalarning boshqa buyumlar qatorida tutgan o‘rniga ishora qiladigan so‘zlar bilan ifodalanadigan buyumlarning hajmlari orasidagi munosabatlar to‘g‘risida tasavvur hosil qilinadi. Bu tasavvurlarni murakkablashtirish kamayuvchi yoki ko‘payuvchi qatorni tashkil qiluvchi ikki-uch buyumni bir-biri bilan qiyoslashdan sekin-asta ko‘plab narsalarni o‘zaro chog‘ishtirishga o‘tish orqali namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda sensor tarbiya bola tafakkurini rivojlantirish bilan uzviy tarzda bog‘lanadi. Maktabgacha ta’lim jarayonida maxsus topshiriqlar bolalarning imkoniyatlariga mos tarzda tanlanishi lozim.

Maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarni dastlab namunalar asosida keyinchalik esa, maxsus topshiriqlar yordamida so‘zlar va tushunchalar bilan tanishtirish kerak. Tarbiyachi har bir buyumni ko‘rsatgan holda uning nomini takrorlar ekan, bolalar turli buyumlarni o‘zaro qiyoslash, aynan bir xildagilarini tanlash, ularning nomlarini eslab qolishga yo‘naltirilgan topshiriqlar ustida ishlashlari lozim.

Buyumlar bilan ishlash jarayonida bolalardan ularni eslab qolish, nomlarini takrorlash talab etiladi. Bu bolalarda har bir buyum haqidagi tasavvurning mustahkamlanishi va ularning nomlarini bilib olishga imkon beradi.

Turli buyumlar yordamida topshiriqlar bajarish jarayonini tashkil qilish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bolalar ranglarni mustaqil tarzda hosil qilganda ularning nomlarini eslab qoladilar. Bolalarni buyumlarning shakllari va ularning nomlari bilan tanishtirish davomida tarbiyachi ularni chizish, qo'l harakatini ko'z bilan kuzatish, ko'rib his qilish hamda o'zaro qiyoslashga izchil tarzda o'rgatadi. Narsalarni hajmiga ko'ra ketma-ketlikda qator joylashtirish bolalarda hajm haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda bola dastlab namunadagi shaklga e'tibor qaratadi, so'ngra ularning elementlari orasidagi munosabatlarni anglay boshlaydi.

Bolalar o'zlashtiradigan rang va shakllarning asosiy turlari, kattaliklarning nisbat to'g'risidagi tasavvurlar sensor etolonlarga aylanadi va turli-tuman narsalarni tadqiq etishda namuna sifatida qo'llaniladi.

Bola muayyan buyumning rangini xromatik va axromatik ranglar, keyinchalik esa ularning turlari to'g'risida olgan tasavvurlarini qo'llagan holda idrok etishga o'rganadi. Narsalar sof ranglarga ega bo'lganda buni amalga oshirish oson kechadi, ammo ranglar murakkab xarakterga ega bo'lib, tarkibida turli ranglar aralashgan bo'lsa, ularni idrok etish jarayoni murakkablashadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga narsalarning shakli, hajmi, vazifasi, rangidagi farqlar asosida guruhlashga o'rgatiladi. So'ngra esa bir xil rangning turli turlarini namoyon qilgan narsalarni guruhlash ko'nikmasi hosil qilinadi. Shundan keyingina turlarni ajrata olish va tanishga o'tiladi.

Bolalarni narsalarning shaklini tadqiq etishga o'rgatish nisbatan qiyinroq, murakkab jarayondir. Dastlab buyumlarning shakllarini o'zaro farqlash ko'nikmasi hosil qilinadi. Bunga muayyan shakldagi buyumni unga o'xshash buyum bilan solishtirish orqali erishiladi. Shundan so'ng turli narsalarning nomlarini atashga o'tiladi. Biroq, ko'pgina buyumlar bir-biriga yaqin shaklga ega bo'ladilar. Aksariyat hollarda buyumlarning shakllari nisbatan murakkab bo'ladi. Ularning umumiy jihatlari, asosiy qismlarining shakllari, nisbatan mayda qismlari, ularning shakli, joylashishi, alohida to'ldiruvchi qismlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Bolalar narsani ma'lum bir qolip bo'yicha tadqiq etish va kuzatishda qat'iy ketma-ketlikka rioya qilishga o'rgatiladi. Shaklning og'zaki ta'rifi ham xuddi shu tartibga mos kelishi kerak. Narsani tadqiq etishga o'rgatishning barcha bosqichlarida bolalarning buyum yoki uning qismlari sirtini aylantirib chizdirish usulidan foydalanish mumkin. Bu bolaga sirti chizilayotgan shaklni o'zlashtirilgan etolonlar bilan qiyoslash imkonini beradi.

Narsalarni kattaligi bo'yicha qiyoslayotgan paytda ko'z bilan chamalash ko'nikmasining takomillashishi ta'minlanadi. Ko'z bilan chamalash ko'nikmasini takomillashtirish uchun bolalarni chamalashga oid murakkabroq topshiriqlarni bajarishga yo'naltirish lozim. O'zaro katta-kichik buyumlarni ko'z orqali chamalash uch yoshli bolalar bajarishiga mo'ljallangan vazifadir. Nihoyat, maktabgacha yosh davri mobaynida bolalar nafaqat ayrim narsalarning hajmi,

balki ular o'rtasidagi munosabatlarni ko'z bilan chamalab o'lchash, ya'ni proporsiyalarni ko'z bilan ko'rib, baholashni o'rganadilar.

Bolalarga narsalarning hajmini tadqiq etish usullarini o'rgatish jarayonida ularni o'zaro ustma-ust qo'yib aniqlashdan ko'z bilan chamalab o'lchashga o'tishda oraliq vosita sifatida namoyon bo'ladigan eng sodda o'lchamdan foydalanishni o'rgatish lozim. Masalan, namunadagi buyumga teng bo'lgan narsani tanlab olar ekan, bola qog'oz parchasi bilan namunani o'lchaydi, so'ngra shu o'lcham asosida kerakli kattalikdagi narsani izlab topadi. O'lcham bilan ishlashni o'zlashtirish bolalarni keyinchalik umum tomonidan qabul qilingan o'lchamlar tizimini qo'llay olishga o'rgatadi.

Murakkab tarkibli ranglar, shakllar, hajmlar uyg'unligini baholash talab qilingan hollarda bolalar idrokida qiyinchiliklar vujudga keladi.

Narsalarni tashkil etuvchi elementlar va ular o'rtasidagi aloqalarni ajratib ko'rsatish bilan bog'liq birikmalarni idrok etish tahliliy idrok demakdir.

Ayrim ranglar va tusalarni aniq idrok eta olishning o'zi yetarli emas. Tabiat va san'at asarlarida ranglar murakkab va rang-barang birikmalarda namoyon bo'ladi. Bolani ushbu birikmalarni tadqiq etish, ayrim rang tonlarining joylashishidagi muayyan maromni ilg'ay bilish, issiq ranglar birikmasini sovuq ranglar birikmasidan ajrata olishga o'rgatish kerak.

Buyumning shaklini aniq idrok etish narsalarni xayolan muayyan shakl namunalariga mos keladigan alohida elementlar sifatida qismlarga ajratish va ushbu elementlarning o'zaro munosabatlarini aniqlashni talab etadi.

Buyumlarning hajmlarini tahliliy idrok etish murakkab butunlikning qismlarini ajratish va birlashtirish bilan emas, balki narsalar hajmining turli o'lchamlari – uzunligi, kengligi va balandligini ajratib ko'rsatish bilan bog'liqdir. Ammo uzunlik yoki kenglikni narsaning o'zidan ajratib olishning imkoni yo'q. Shuning uchun narsalarni mazkur o'lchamlar bo'yicha qiyoslash eng to'g'ri yo'l hisoblanadi. Bunda narsaning o'lchamlari ham nisbiy xarakterga ega ekanligini unutmaslik kerak: ularni aniqlash narsaning borliqda tutgan o'rniga bog'liq.

Shunday qilib, 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning sensor tarbiyasidagi asosiy vazifalarni qo'yidagicha ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Hayotining birinchi yilida bolalar ongini taassurotlar bilan boyitish; bolalarda harakatlanuvchi, yorqin o'yinchoqlarni kuzatish ko'nikmalarini hosil qilish, turli shakl va kattalikdagi narsalarni ushlab olishlari uchun sharoit yaratish;

2. Hayotining ikkinchi-uchinchi yillarida bolalar buyumlarning rangi, shakli va hajmini narsalarning maxsus belgilari sifatida ajrata olish ko'nikmasini vujudga keltirish, ularning rang va shakllarning asosiy turlari hamda ikki xil hajmdagi narsalar o'rtasidagi munosabatlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish;

3. Hayotlarining to'rtinchi yilidan boshlab bolalarda sensor etolonlar: ranglar, shakllar va hajmlar o'rtasidagi munosabatlar to'g'risidagi barqaror tasavvurlarni tarkib toptirish;

4. Bolalarni ranglarning tusalari, geometrik shakllar namunalari va katta miqdordagi narsalar qatoridan iborat bo'lgan elementlar orasidagi munosabatlar bilan tanishtirish.

Etolonlarni shakllantirish bilan bir paytda bolalarni buyumlarni tadqiq etish usullariga ham o'rgatish lozim. Narsalarning rangi va shakliga qarab namuna etolonlar atrofiga guruhlash, turli shakllarni ketma-ketlikda kuzatish va ta'riflash, ko'z bilan chamalashga oid murakkab topshiriqlarni bajarish shular jumlasidandir. Bolalarda tahliliy idrokni rivojlantirish ehtiyoji rang tuslarini farqlash, buyumlarni qismlarga ajrata olish, o'lchamlarini aniqlash ko'nikmasini hosil qilish sensor tarbiya vositasida bolalar nutqini rivojlantirish jarayonining muhim vazifalaridandir.

Xuddi shu vazifalardan kelib chiqqan holda biz maktabgacha ta'lim muassasalarida sensor tarbiya vositasida bolalar nutqini rivojlantirishga yo'naltirilgan didaktik o'yinlarni taqdim etdik (-ilovaga qarang). Tajriba-sinov ishlari jarayonida ularning samaradorligini aniqlashga intildik.

Biz tomonimizdan taqdim etilgan didaktik o'yinlar va topshiriqlar sensor tarbiya vositasida bolalar nutqini rivojlantirishga yo'naltirishgan yaxlit tizimni tashkil etsada, tarbiyachilar muayyan guruhlarda bolalarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ulardan saralab foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

Tavsiya etilayotgan o'yin va topshiriqlar tizimi yordamida bolalarning nutqini rivojlantirishga yo'naltirilgan mahsuldor didaktik vositalar: rasm chizish, loy va plastilindan buyumlar yasash kabilarni o'rgatish jarayonida ularning nutqini samarali rivojlantirish imkoniyati kengayadi.

Sensor tarbiya vositasida nutq o'stirishning mahsuldor jarayoni bola hayotining uchinchi yilida amalga oshadi.

Bola uch yoshga to'lgach, sensor tarbiya vositasida ular nutqini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning mahsuldor usul va vositalarini qo'llash tizimli tarzda amalga oshirilishi lozim. Sensor tarbiya vositasida bolalar nutqini rivojlantirishning mahsuldor usullaridan biri, ular idrokini rivojlantirishga ko'maklashishdan iboratdir. Bu jarayonda ham mahsuldor topshiriqlar va didaktik o'yinlardan samarali foydalanish tavsiya etiladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun sensor tarbiya vositasida nutq o'stirishga yo'naltirilgan didaktik o'yinlar, topshiriqlar izchil tarzda taqdim etilishi lozim.

3-5 yoshli bolalarga taqdim etiladigan didaktik o'yinlar va topshiriqlar tarbiyachilar tomonidan tabaqalashtirilgan holda qo'llanilishi lozim. Ulardan foydalanish izchilligi maxsus ro'yxatda keltirilgan (-ilovaga qaratilgan). Tarbiyachi tavsiya etilayotgan didaktik o'yin va topshiriqlarga ijodiy yondashgan holda, ularda sensor tarbiya vositasida nutq o'stirish tizimi bilan uyg'unlashtirishi kerak. Faqat narsalarning turli xususiyatlari bilan ishlashni nazarda tutadigan vazifalarni birin-ketin bajarishga e'tibor qaratish lozim. Aks holda, bolalarning e'tiborlari buyumning faqat bittagina xususiyatiga qaratilib, boshqa jihatlari ular nazaridan chetda qolishi mumkin.

Kichik maktabgacha yoshidagi bolalar guruhlarida taqdim etiladigan didaktik o'yinlar va topshiriqlar guruhli ish shakliga mos tarzda tuzilishi kerak. Bunday topshiriqlardan bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirish mashg'ulotlarida samarali foydalanish mumkin.

Taqdim etilayotgan aksariyat o'yinlardan mashg'ulotlardan tashqari – bolalar bilan tashkil etiladigan erkin faoliyat jarayonida ham foydalaniladi (-ilovaga qarang).

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, har bir didaktik o'yin va topshiriqning qulay, foydaliligi bolalarning yoshi hamda tayyorgarlik darajalarini hisobga olgandagina ta'minlanadi. Shuning uchun ham, bunday didaktik o'yinlar va topshiriqlar maktabgacha ta'lim muassasalarida sensor tarbiya vositasida bolalar nutqini rivojlantirish talablaridan kelib chiqqan holda ixchamlashtirilishi yoki kengaytirilishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda idrok qilishning mohiyati va uni rivojlantirishga oid qator qonuniyatlar mavjud. Jumladan:

1. Idrok qilish va sezishga retseptor jarayonlar sifatida emas, reflektor jarayonlar sifatida qarash, bunda idrok qilish va sezish biror buyumning to'liq namoyon bo'lishi, ularning sifatlari yaqqol ifodalanishi emas, balki narsalarning xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan analizatorlarning alohida hatti-harakatidir. Idrokning rivojlanishi esa, bolaning sensor harakatlarni o'zlashtirishga qaratilgan davomli jarayondir.

2. Bolalarda idrokning rivojlanishi ijtimoiy hissiy tajribaning o'zlashtirilishi demakdir. Bunday sharoitda boladagi hissiy qobiliyat kam rivojlangan bo'lsada, kattalarning ta'siri yordamida bunday qobiliyatning rivojlanishi uchun avvalambor bolaning atrof-muhitni bilish vositasi hisoblangan perseptiv kuzatish jarayoni harakatlanadi. Shundan keyin esa etolonlar tizimi amal qiladi. Natijada bola ulardan foydalanishni o'rganadi. O'z navbatida ular bolalarning hissiy tajribalarni baholash mezoni sifatida xizmat qiladi.

Шунга кўра мактабгача таълим муассасаларида болалар нутқини ривожлантиришга қаратилган сенсор тарбия олдида қуйидаги вазифалар кўйилади:

Shunga ko'ra maktabgacha ta'lim muassasalarid bolalar nutqini rivojlantirishga qaratilgan sensor tarbiya oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi;

1. Bolalarda perseptiv harakatlar tizimini shakllantirish;

2. Bolalarda sensor etalonlar tizimi – buyumlarning nomlari, xususiyatlari, o'zaro farqli jihatlari, atrof-borliqqa bo'lgan munosabatlari haqida umumlashgan tasavvurlarni hosil qilish;

3. Bolalarda perseptiv harakatlarni mustaqil bajarish qobiliyatini shakllantirish;

4. Bolalarga idrok qilish va amaliy faoliyatda etalonlar tizimidan foydalanishni o'rgatish kabilar.

Sensor tarbiya mazmuni – bolalar tomonidan anglanishi lozim bo'lgan buyumlarning nomlari, hodisalarning xususiyatlari va sifatlari, ular o'z xususiyati va faoliyat turiga ko'ra atrof-muhitning rang-barangligi bilan belgilanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda etalonlar, buyumlar va hodisalarni idrok etish 3 davrga bo'linadi:

1. 3 yoshgacha bo'lgan davr – bu etalondan oldingi sensomotor davr hisoblanadi. Bu davrda bola ayrim narsalarning nomlari va xususiyatlarini angelaydi. Ularning rangi, shakli, ular orasidagi masofa bolaning harakat orqali idrok qilish ko'nikmasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

2. 5 yoshgacha bo'lgan davr – bola buyum etalonlardan foydalanadi, ya'ni, bir narsani ikkinchisiga qiyoslash orqali uning xususiyatlarini anglay boshlaydi. Masalan, ovalsimon buyumlarni bodring yoki tuxumga qiyoslashi mumkin.

3. 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davr – bu davr bolalar tomonidan to'plangan tajribalarni umumlashtirish, kattalar nazorati ostida umumqabul qilingan etalonlarni bilib olish bosqichidir. Bunda narsalarning xususiyatlari aniq buyum misolida, masalan, yashil maysa, dumaloq olma, uchburchak tom, yog'och qalam kabi timsollar orqali bola tomonidan idrok etiladi.

Qabul qilingan etalonlarni o'zlashtirish va perseptiv harakatlarni o'rganish bola idrokining xarakterini o'zgartiradi. Jumladan: u mustaqil tarzda atrof-muhitdagi narsalar, voqea-hodisalarni tasavvur eta boshlaydi.

Idrokning rivojlanishi natijasida sermahsul harakat jarayoni amalga oshadi. Bunday faoliyat bolaning ilk yoshida uning buyumlarga tayangan holda amalga oshiradigan harakatlari bilan bog'liq bo'ladi. U ulg'aygan sari faoliyatning bir qadar murakkab turlari, jumladan, tasviriy, konstruksiyalash, qurish-yasash kabilar tarkib topadi. Bolaning sensor rivojlanishini ta'minlovchi, undagi nutq va mehnat faoliyatining turli ko'rinishlari uning taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega.

Maktabgacha yosh davrida bolalarni narsa va buyumlarning xususiyatlari bilan tanishtirish hamda ularning hissiyotlarini uyg'otish imkoniyatini kengaytirish talab etiladi. 3-4 ta buyum bilan tanishtirishning o'zigina bolaning hissiyotlarini tarbiyalash uchun yetarli emas. Tanishtirish chog'ida buyumning nomi, rangi, shakli, hajmi kabilar to'la qamrab olinishi kerak. Shu bilan bir qatorda, mashg'ulotlar davomida buyumlarning turli murakkab xususiyatlarini bolalarga o'rgatish tavsiya etilmaydi. Chunki bunday sharoitda sensor tarbiya asosida bolalarning nutqini rivojlantirish tizimini shakllantirish imkonsiz. Bu jarayonda eng avvalo buyumlarning nomi, rangi (qizil, yashil, sabzirang, havorang, pushtirang, oq, qora), 5 ta shakl (aylana, kvadrat, to'g'riburchak, uchburchak, ovalsimon), hajmning 3 xil ko'rinishi (katta, kichik, o'rta) qamrab olinadi. Chunki birinchi navbatda bolalarda o'sha jismning rangi, hajmi, shakli haqida tasavvur hosil qilish zaruriyati mavjud.

Maktabgacha yosh davridan boshlab buyumlarning xususiyatlarini izchil tarzda tizimlashtirgan holda o'rgatish dasturiga yuqoridagi ranglarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, havorang maktabgacha katta yoshdagi bolalar tomonidan ham mustaqil rang sifatida qabul qilinishi biroz mushkul, havorang ko'k rang asosida yaratilganligi tufayli topshiriqlar tarkibiga ko'k va havorangni bir vaqtning o'zida kiritish bolalarga qiynchilik tug'diradi. Mazkur bosqichda bolalarga 8 ta mustaqil rangni tanitish va ularni ifodalovchi so'zlarni o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, 5 ta jism (aylana, kvadrat, uchburchak, to'g'rito'rtburchak, ovalsimon) va 4 ta hajm (katta, kichik, baland, past) hamda ularni ifodalovchi so'zlar bilan tanishtirish lozim.

Bolalarni buyumlarning nomlari va xususiyatlari bilan tanishtirishda ularning rangi, hajmi, shakli nazarda tutiladi. Shundagina bolalarda atrof-muhit haqida dastlabki sensor tasavvur hosil bo'ladi. Bolalarga narsa va buyumlarning nomlari va xususiyatlarini alohida-alohida o'rgatish natijasida ular narsalar orasidagi aloqadorlikni anglay boshlaydilar. Bolalarni hissiyot orqali tarbiyalash va ular nutqini rivojlantirishda muayyan buyumlarning nomlari va xususiyatlarini izchil tarzda o'rgatish talab etiladi. Sensor tasavvur shakllanayotgan va shu asosda nutqi

boyib borayotgan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan amalga oshiriladigan sensor tarbiya ko‘lamini kengaytirish nihoyatda zarur.

Maktabgacha ilk yosh (2 yosh) davrida bolalarda buyumlarni o‘zicha nomlash, ularning shakllarini atash boshlanadi. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar shakl va ranglarni narsalarning belgilari sifatida anglaydigan bo‘ladilar. Tabiiyki, rangi, shakli va boshqa belgilari o‘zgarib turadigan narsalarning ogohlantiruvchilik, xabar beruvchilik ahamiyati, belgilarini anglash kichik yoshdagi bolalar uchun bir qadar murakkabdir. Maktabgacha (3 yosh) kichik yoshdan boshlab bolaga turli rangli mozaikalar bilan ishlashni o‘rgatish lozim. His qilishga ko‘maklashadigan turli topshiriqlarni to‘g‘ri bajarishlari uchun bolalarni buyumlarni o‘zaro taqqoslash, ajrata olishga o‘rgatish zarur. Masalan: buyumlarning shakli bilan tanishish jarayonida ularni bir-birining ustiga to‘g‘ri qo‘ya bilish, bir xil shakl va rangdagi buyumlarni bir to‘g‘ri chiziq bo‘ylab joylashtirishga muntazam o‘rgatish talab etiladi. Narsalarni ularning tashqi ko‘rinishi asosida farqlay oladigan bolalarda his qilish orqali harakatlarni bajarish ko‘nikmasi shakllanadi. Chunki mazkur buyumlarni ularning xususiyatlari asosida taqqoslash ko‘nikmasi hosil bo‘ladi. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarni buyumlarning turli xususiyatlari bilan tanishtirish metodi bolalarga mashg‘ulot jarayonida bajarish uchun beriladigan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan:

1. Muayyan obyektga qaratilgan harakatlarni bajarishga yo‘naltirilgan topshiriqlar;
2. Bir xil turdagi narsalarni ularning nomi, hajmi, shakli va rangidan qat’i nazar 2 guruhga ajratishga qaratilgan topshiriqlar; bunda bolalarning diqqati buyumlarning xususiyatlariga qaratiladi. Buning uchun 4 xil hajm, 5 shakl, 8 rangdagi bir xil buyumlar asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mashg‘ulotlar davomida bolalarga bajarishlari uchun muhim bo‘lgan harakat bilan bog‘liq so‘zlar o‘rgatiladi: rang, shakl, hajm;

3. Turli hajmdagi buyumlarni chuqurchalarga joylashtirishga qaratilgan topshiriqlar;

4. Ishlab chiqilgan elementar harakatlarni bajarishga yo‘naltirilgan topshiriqlar; bunda turli hajm, shakl, rangdagi mozaikalar tarbiyachining ko‘rsatmalari asosida joylashtiriladi.

Buyumlarning nomi, rangi, hajmi va shaklini ifodalovchi so‘zlar ularning turli belgilarini ko‘rsatuvchi ma’nodarga ega ekanligi bolalarning ongiga singdiriladi. Buyumning xususiyatlarini namunada ko‘rsatilgani kabi ongli ravishda anglashni o‘rgatish sensor tarbiyaga asoslangan holda bolalar nutqini o‘stirishga qaratilgan mashg‘ulotlarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Turli hajm, shakl va rangdagi mozaikalar bunday mashg‘ulotlarda asosiy o‘quv quroli hisoblanadi.

Turli bo‘yoqlar bilan ishlash davomida mashg‘ulotlarning maqsadi bolalarda buyumlarning nomi, xususiyatlari va ularning belgilari bilan bog‘liq tasavvurlarini kengaytirish, buyumning rangi, shakli va hajmini mustaqil tarzda ajrata olishga bolalarni o‘rgatishga ko‘maklashishdan iborat.

Bunday mashg‘ulotlarni unda bajariladigan topshiriqlarni takomillashtirgan holda izchil tarzda o‘tkazish lozim. Mashg‘ulotlarni bu tarzda tashkil etish bolalarning atrof-muhit, undagi buyumlarga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish, topshiriqlarni

mustaqil bajarishga o'rgatish imkonini beradi. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, ba'zi bolalar bunday topshiriqlarni bajarishga qiynaladilar.

Mashg'ulotlar davomida buyumlarning nomi, shakli, hajmi, rangini ifodalovchi so'zlar tarbiyachi tomonidan muntazam aytib, takrorlanib turiladi. Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, mazkur so'zlarni bolalar muntazam takrorlab turishlari yo'lga qo'yiladi.

Nutq insonning kundalik turmushi va turli sohalardagi faoliyati davomida vujudga keladigan, boshqa odamlar bilan muloqatga kirishish ehtiyojini qondirishni ta'minlovchi muhim jarayondir. Ushbu faoliyatning eng oddiy usullarini inson bolalik davridayoq kattalar bilan muloqotga kirishish orqali egallaydi. Biroq, nutqni insonning turli sohalardagi faoliyati jarayonida yuzaga keladigan muloqotni ta'minlay oladigan darajaga yetkazish uchun nutq o'stirishga yo'naltirilgan maxsus mashg'ulotlarni tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Shaxsning muayyan faoliyati uning nutqi uchun tabiiy, ijtimoiy asos bo'lib xizmat qiladi. Buning uchun birinchi navbatda maktabgacha ta'lim muassasalarida sensor tarbiya asosida bolalar nutqini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarda o'yin faoliyati ustivor bo'ladi. Shuning uchun ham ular narsalarning nomi va turli xususiyatlarini o'yinlar jarayonida o'zlashtiradilar. Tarbiyachilar va ota-onalar bolalar bilan bo'ladigan muloqot va mashg'ulotlar davomida ularga ona tilimizning so'z boyligini o'rgatib borishlari lozim. Buning uchun bolaning har bir savoliga erinmasdan, batafsil javob berish muhim ahamiyatga ega. Chunki so'z orqali bola moddiy borliqni anglaydi va o'z fikrini ifodalaydi, hissiyotlarini bayon qiladi.

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar so'z, ibora va gaplarni qiziqib o'rganadilar hamda osongina esda saqlaydilar. Bu yoshdagi bolalarning xotirasi mustahkam va kuchli bo'ladi. Kichik yoshdagi bolalarga tarbiyachilar hamda ota-onalar turli so'z va iboralarni o'rgatayotganlarida turli o'yinlardan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. Buning natijasida bolaning so'z boyligi kengayadi. Lekin kichik yoshdagi hamma bolalar ham o'rganayotgan so'zlarining ma'nolarini to'liq anglab yetmaydilar.

Shuning uchun ham ularga har bir so'zning ma'nosini narsa va buyumlar, atrof-alam bilan bog'liq holda tushuntirish lozim. Ular uchun sodda va qiziqarli o'yinlar, tez aytishlar tashkil qilish, ertaklar aytib berish yoki suratlarga qarab ertak o'ylab topish, she'r va ashulalarni yod oldirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachilar nutq o'stirishga qaratilgan mashg'ulotlarni shunday tashkil etishlari kerak-ki, bolalar har bir buyum haqida aniq tasavvur hosil qilishlari lozim. Kichik yoshdagi bolalar uchun nashr etilgan ertak kitoblar turli-tuman rangli va qiziqarli suratlarga boy bo'lishi kerak. Bunday kitoblar birinchi navbatda bolalarning hissiyotlari, nutqi va idrokini boyitishga xizmat qiladi. Bolalar uchun chop etilgan kitoblarda tabiatni asrab-avaylash, hayvonot dunyosini bilish va sevishga undash maqsadi asosiy o'rin egallaydi. Shu bilan bir qatorda, mazkur kitoblardan joy olgan ertaklar va tabiat manzaralari bolalarning nutqini o'stirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Qiziqarli ertaklar, hikoyalar birinchi navbatda bolalarning hissiyotiga ta'sir qiladi va ularni yaxshi-yomonni farqlashga o'rgatadi. Yod olingan kichik hajmdagi she'r

va qo'shiqlar bola nutqining ravon, aniq, ifodali va sodda bo'lishini ta'minlaydi. Tarbiyachilar bolalarda tabiatga mehr uyg'otishda daraxtlar, qushlar yoki boshqa narsalar haqidagi kichik hajmdagi she'rlarni yod oldirishlari va ularning mazmunini tushuntirishlari maqsadga muvofiqdir. Qushlarning insonlarga foyda keltirishi shu kichik she'r orqali ifodalanganini bolalarga tushuntirishlari zarur. She'r yoki qo'shiqni aytishdan oldin bolalarga ular mazmunida ifodalangan voqealar, manzaralar haqidagi rangli rasmlarni ko'rsatish va ular haqida suhbatlashish maqsadga muvofiq. Natijada bolalarning tasavvuri kengayadi, hissiyotlari rivojlanadi.

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarning og'zaki nutqini boyitishda ertak, afsona, dostonlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ularda ifodalangan voqealar va so'zlar aniq, sermazmun, ravon va bolaning o'zlashtirishi uchun qulay tarzda tanlab olingan. Tarbiyachi nutq o'stirish mashg'ulotlarida shunday adabiyotlardan foydalanishi zarur. Hozirgi chop etilayotgan deyarli barcha kitoblar bolaning qanday yoshda ekanligini hisobga olgan holda tuzilgan hamda ertakning mazmunini tushunishga yordam berish bilan birga bolalar nutqini boyitishga ko'maklashadi.

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish jarayonida xalq tomonidan yaratilgan maqollar, topishmoqlar, tez aytishlarni tarbiyachilar mashg'ulotlar orqali bolalarga yetkazadi. Tarbiyachining o'zi ham qanday mashg'ulot o'tishidan qat'iy nazar aniq, ravon, ifodali, sodda va bola tushunadigan ohangda so'zlashi lozim.

O'yinlar yordamida bolalarning tasavvurlari va taassurotlari kengayadi. Bunday mashg'ulotlarni tashkil etish birinchi navbatda tarbiyachilarning bilimdonligi va pedagogik mahoratiga bog'liq. O'yin jarayonida tarbiyachi o'z fikrlarini aniq, ravon, bolalarga tushunarli tilda bayon qilishi lozim. Bola o'z tilida emas, balki kattalarga taqlid qilgan holda fikr bayon qilishga intiladi.

Og'zaki nutqi rivojlangan bola o'z fikrini to'g'ri ifodalay oladi. Nutq boy, sermazmun bo'lishining asosiy shartlaridan biri aytilgan har bir so'zning to'g'ri talaffuz qilinishidir. Agar bola so'zlardagi ba'zi harflarni talaffuz qila olmasa, ular bilan maxsus mutaxassis (logoped, defektolog) shug'ullanishi lozim. Masalan: sh, r, j, yo, ch, z, g', s, q harflarini to'g'ri talaffuz eta olmaslik kuzatilganda. Bunday hollarga tarbiyachilar befarq bo'lmasliklari kerak. Aksincha tarbiyachilar mashg'ulot davomida og'zaki nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning xatolarini bartaraf etishi va ota-onalar bilan hamkorlikda ularning nutqlari ustida ishlashlari zarur.

Mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda tarbiyachi bolalar bilan muloqotga kirishganda o'zi va tarbiyalanuvchilarning nutqiga alohida e'tibor qaratishi kerak. Sayru-sayohatlar, didaktik o'yinlar jarayonida har bir bolaning nutqi ustida yakka tartibda ishlash maqsadga muvofiqdir. So'zlarni bo'g'inlarga bo'lish, tovushning baland-pastligiga rioya qilish alohida ahamiyatga ega. Agar bola parranda yoki hayvonlarning nomlarini aytishga qiynalsa ularning ovozlariga taqlid qilib takror-takror mashq bajarishga e'tibor qaratgan holda ish olib boriladi. Kuzatishlarimiz davomida bunday mashg'ulotlar bola nutqini rivojlantirishda samaradorlikka erishish imkonini berganligiga guvoh bo'ldik.

Tarbiyachi bolalarga ertak yoki hikoyalarni o'qib berganida asarning badiiy tiliga alohida e'tibor qaratishi, unda uchraydigan notanish so'zlarni ularga muntazam tushuntirib borishi talab etiladi.

Bola nutqini rivojlantirish uchun tarbiyachi tez aytishlarni turli xil ovoz tembrida ohanglarga rioya qilgan holda o'qib berishi lozim. Tarbiyachi mashg'ulot davomida jarangli va jarangsiz tovushlarning farqini tushuntirishi, qaysi o'rinda qanday ishlatilishi haqida ham bolalarni xabardor qilishi kerak. Bolalar ham o'z ovozlarni o'zgartirib yoki qushlar va hayvonlarning tovushlariga taqlid qilib o'z fikrlarini bayon qiladilar. O'yin mashg'ulotlarida tarbiyachi bolalar tovushlarni qanday talaffuz qilayotganliklariga e'tibor qaratishi lozim. O'yin (milliy o'yinlarga ahamiyat berish) jarayonida bolalar ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllanib o'zlarini shaxs sifatida namoyon qila boshlaydilar. Atrofdagilar bilan muloqot mashg'ulotlariga tayyorlanish jarayonida bolalar turli xil ruhiy holatlarni kechiradilar. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan aksariyat bolalar oddiy o'yinlar bilan shug'ullanishga moyil bo'ladilar. Buning asosiy sababi o'yin mashg'ulotlarining didaktik jihatdan yetarlicha takomillashtirilmaganligi, maktabgacha ta'lim jarayonida qo'llaniladigan o'yinlar bolalarning kundalik hayotlari bilan bog'lanmaganligidadir. Bolalar mashg'ulotlarning dastlabki bosqichida o'yinlarning mazmuni va borishi bilan tanishtirilishlari, ikkinchi bosqichida esa asosiy rollarni bajaruvchilar saralab, tanlab olinishi lozim. O'yin mashg'ulotlarining bunday tarzda tashkil etilishi bolalarning jadal rivojlanishiga ko'maklashadi.

O'yin mashg'ulotlari va o'yinchoqlar qanchalik hayotiy bo'lsa, bolalarning ularga bo'lgan qiziqishi shu qadar ortadi. Mashg'ulotlar jarayonida tarbiyachi o'yinchoq shaklida namoyon bo'ladigan har bir obrazning nomi va kundalik hayotda bajaradigan vazifasini bolalarga batafsil tushuntirishi lozim. Shu bilan bir qatorda, o'yinchoqlarni o'ynash usullari bilan ham bolalar yaqindan tanishtirilishlari talab etiladi. Har bir o'yin mashg'ulotida hosil qilingan ko'nikma va malakalar muntazam mustahkamlanishi hamda bolalar nutqidagi o'zgarishlar tarbiyachi tomonidan nazorat qilinishi maqsadga muvofiqdir. Rolli o'yinlar o'ynash, dialogga kirishish, o'yinchoqlar bilan muloqot o'rnatish, o'z yaqinlarining ismlarini aytib, buyumlarning nima uchun ishlatilishini aytib berish asosida bolalarning nutqi izchil rivojlanadi. Bolalar aksariyat hollarda o'zaro mos keladigan so'zlar tuzishga harakat qiladilar. Buning natijasida ularning fikrlari, hissiyotlari, idroklari uyg'un tarzda rivojlanadi.

Tarbiyachi bolalarni rasmlarga qarab so'z birikmalari va gap tuzishga o'rgatishi muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachilar oldingi nutq o'stirish mashg'ulotida berilgan materiallarni yangisi bilan uyg'unlashtirgan holda takrorlab mustahkamlab borishlari kerak. Buning natijasida bolalarda hosil bo'lgan nutqiy ko'nikmalar takomillashadi.

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar nutqini sensor tarbiya vositasida o'stirishda so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish, yangi so'zlarning ma'nosini tushuntirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bolalarni bosqichma-bosqich so'z birikmalari va gaplar tuzishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Chunki bolalar u yoki bu narsa, voqea-hodisalar haqidagi o'z fikrlarini gaplar yordamida bayon

qiladilar. Mashg'ulotlar davomida tarbiyachilar bolalarning har bir savoliga aniq va samimiy javob qaytarishlari lozim. Shu tariqa ularning nutqi samarali rivojlanadi va uchraydigan nuqsonlar bartaraf etiladi.

Bolalar kundalik hayotlarida turli voqea va hodisalar, buyumlarga duch keladilar. Tarbiyachilar va ota-onalar ular haqida bolalarda aniq tasavvur hosil qilishlari kerak. Narsalarning nomlari, hayotiy vazifasi haqida bolalarga to'liq ma'lumot berish talab qilinadi. Bu bolaning og'zaki nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish, yo'l qo'yadigan xatolarini tuzatishga imkon beradi. Shuningdek, bolalarda yangi bilim va tasavvurlar hosil bo'ladi, hodisalar va buyumlarning nomlari, sifat va xususiyatlarini o'rganadilar.

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar lug'atini boyitish, nutqining ravon, silliq va ta'sirchanligini ta'minlashda ularga she'rlar yodlatish, ertaklar o'qib berish alohida ahamiyatga ega. Tarbiyachi bolalarga o'qib berish uchun she'rlar va ertaklar tanlash davomida mazmun va uslub jihatdan ularning yoshi, tushunish darajasiga mos kelishiga alohida e'tibor qaratishi kerak. Bunda o'qilayotgan ertakdagi ayrim so'z va iboralar ustida bolalar bilan birgalikda ishlash, bir tomondan, ertakning mazmunini oson hamda to'liq o'zlashtirishga yordam bersa, ikkinchi tomondan, ularning so'z zahirasini boyitish, o'qilayotgan ertakdagi voqealarni tushunish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Nutq faoliyatining rivojlanishi bolaning intellektual taraqqiyoti davomida amalga oshadi. Shu nuqtai nazardan bola nutq faoliyatining takomilashishi quyidagi ikki yo'nalishda amalga oshadi:

1. Bolaning nutq faoliyati atrofdagilar bilan kundalik muloqot jarayonida takomillashadi.

2. Bolaning nutq faoliyati maxsus mashg'ulotlar jarayonida boyib, rivojlanib boradi.

Mashg'ulotlarda tarbiyalanuvchilar tomonidan amalga oshiriladigan har qanday faoliyat tarbiyachining rejasi bo'yicha o'tkaziladigan ta'limiy o'yinlar, mashg'ulotlar bilan cheklangan bir yoqlama faoliyatdir. Shu sababli nutq faoliyati uchun zarur bo'lgan barcha ruhiy kechinmalar tarbiyachi tomonidan turli ta'limiy usul va vositalar yordamida sun'iy ravishda yuzaga keltiriladi. Bunday ta'limiy usul va vositalar bolalar ongiga tashqaridan ta'sir etishga mo'ljallanganligi uchun ular har doim ham kerakli ruhiy kechinmani yuzaga keltira olmaydilar. Buning natijasida bola nutqini rivojlantirishda bir qator qiyinchiliklar vujudga keladi. Tarbiyachilar buni o'z vaqtida anglab, zarur pedagogik chora-tadbirlarni qo'llashlari kerak.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida sensor tarbiya vositasi orqali bolalar nutqini rivojlantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish yo'llari

Biz maktabgacha ta'lim muassasalarida sensor tarbiya vositasida bolalar nutqini rivojlantirishning mavjud holatini o'rganish maqsadida bir guruh tarbiyachilar bilan anketa so'rovlari o'tkazdik. Shu maqsadda tarbiyachilarga quyidagi savollar bilan murojaat qildik.

1. Sensor tarbiya deganda nimani tushunasiz, uni tavsiflang?

2. O'z faoliyatingizda sensor tarbiyadan qanday foydalanasiz?

3. Sensor tarbiya targ'ibotchilari kimlar?
4. Maktabgacha ta'lim muassasalarida sensor tarbiya berishda qanday ish shakllaridan foydalanasiz?
5. Sensor tarbiya berishda qanday ish vositalarini qo'llaysiz?
6. Sensor tarbiyani qaysi yoshda berish mumkin, deb o'ylaysiz?
7. Sensor tarbiya qanday ahamiyatga ega?
8. Sensor tarbiya haqida qanday qo'llanma va asarlarni o'qigansiz?
9. Bolalar nutqini o'stirishda sensor tarbiyaning ahamiyati qanday?
10. Sensor tarbiyaning bola rivojlanishidagi ahamiyati qanday?

Tajriba-sinov ishlariga Qarshi shahri maktabgacha ta'lim muassasalaridan 103 nafar, tarbiyachilar respondentlar sifatida ishtirok etdilar.

Birinchi savolga respondentlarning 23 nafari "Bolaning sensor rivojlanishi uning narsalarning tashqi xususiyatlari: shakli, rangi, kattaligi, fazoviy joylashishi, hidi, ta'mi va boshqalar to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanishi va idrokining rivojlanishidir", 21 nafari "Sensor tarbiya, bolalarning sezgilarini xilma-xilligi idrokni takomillashtirishga, har xil turdagi buyumlarning rangi, shakli yoki hajmiga ko'ra qiyoslashga o'rganadi", 21 nafari "Bolalar hissiy rivojlanishini oshirishda sensor tarbiya bolaning ranglarni ajratish, ta'm olish, hid bilish, ushlab shaklini aytish, ovozlarni ajrata olishi barchasini tushunaman", 19 nafari "Sensor tarbiya kichik yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya bolalarga rangni, narsalarni to'g'ri ushlashga, fikrlashga o'rgatadi, 13 nafari "Sensor tarbiya-ilk tasvurlarni shakllantirish bo'yicha olgan bilimlarini jamlashdir", 6 nafari "Sensor tarbiya kichik yoshdagi bolalarga rang, narsalarni to'g'ri ishlatishga, fikrlashga, birlashishga o'rgatish" deb javob berganlar.

Ikkinchi savolga respondentlarning 25 nafari "Sensor tarbiya bir tomondan, bola umumiy aqliy rivojlanishining poydevorini tashkil qiladi. Ikkinchi tomondan u mustaqil ahamiyatga egadir", 21 nafari "Sensor tarbiya - hissiy bilish, nafosat tarbiyasi nuqtai nazardan katta ahamiyatga ega. Rang, shakllar, buyumlarning katta-kichikligi, baland-pastligi, tasviriy san'atni farqlashga yordam beradi", 21 nafari "Ranglar, narsalar, ularning nomlari, buyumlarni to'g'ri ishlatishga o'rgatuvchi tarbiya bu sensor tarbiyadir", 18 nafari "Sensor tarbiya har bir yo'nalishdagi ilk tasavvurlar masalan, matematikadan shakllar, ranglar, fazoviy tushunchalardir", qolgan 18 nafar ishtirokchilar "Sensor tarbiya bolalarni hissiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega", deb javob berganlar.

Navbatdagi uchinchi savolga 68 nafar respondentlar "Sensor tarbiya targ'ibotchisi Mariya Montessori", 19 nafari "Y.J. Fensen", 16 nafari esa "Y.I.Yovsok" deb javob berdilar.

To'rtinchi savolga esa, 39 nafar respondentlar "MTM da bola rasm chizish, loy va plastilindan o'yinchoqlar yasash, konstruksiyalash ishlarini o'rganadi, tabiat hodisalari bilan tanishadi, ilk matematik tasavvurini o'stiradi, masalan, tasvirlanayotgan narsa rasmda asliga o'xshash bo'lishi uchun bola uning shakli va rang xususiyatlarini aniq tasavvur qila olishi kerak", 34 nafari "MTM da bolalarga sensor tarbiya ta'mli bankalar, ovoz ajratish uchun shovqinli qo'ng'iroqchalardan, har xil rangli ko'rgazmalar, didaktik o'yinlar, katta-kichik rangli shakllardan, silliq

taxchalardan foydalanaman”, 30 nafari esa “Suhbat orqali, ko‘rsatish orqali amaliy usullardan foydalaniladi”, deb javob berdilar.

Beshinchi savolga respondentlarning 89 nafari “Sensor tarbiya berishda geometrik shakllar, rangli tugmachalar, hid chiqaruvchi vannalar, tegishli uyachalari bo‘lgan taxtalar, yetti xil rangda bo‘lgan tayoqchalar, to‘pchalar qutichasi, piramidalar, shovqinli qo‘ng‘iroqchalar, ranglarni farqlovchi lentachalar hamda har xil o‘yinchoqlardan foydalanaman”, qolgan 14 nafar respondentlar “Rangli kublar, sariq, yashil, qizil olma bo‘laklari, gullar, savatlar, yo‘laklar, fleshibka yostichalardan ish vositasi sifatida foydalanaman. Bunda bolalarga sensor tarbiya berishda mashg‘ulotlar, o‘yinlar, aqliy hujum orqali erishaman”, deb javob berganlar.

Oltinchi savolga respondentlarning 79 nafari “Mariya Montessori metodiga ko‘ra, sensor tarbiyani bolalarga yasli yoshdan berish kerak”, deb javob bergan bo‘lsalar, qolgan 24 nafar respondentlar “Sensor tarbiya berishda bolalarning ilk yosh davri eng qulay davr bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun bu davrda sensor tarbiya muhim o‘rin egallaydi. Kichik guruhda sensor tarbiyaning mazmunini o‘z ichiga oladi, tevarak-atrofdagi barcha sensor belgilar: hajmi, rangi, shakli kabilarni bolalarga o‘rgatib borilishi lozim”, deb javob berganlar.

Yettinchi savolga respondentlarning 37 nafari “Sensor tarbiya bolalarning ranglarni to‘g‘ri ajratishga buyumlarni bir-biridan katta-kichikligiga ko‘ra, shakliga ko‘ra farqlay olishi, hidni, ta‘mni to‘g‘ri ajrata olishi juda ahamiyatga egadir. Sensor tarbiya bolaning kelgusi hayoti uchun muhim ahamiyatga ega”, 34 nafari “Sensor tarbiya bola rivojlanishida katta o‘rin tutadi: sensor tarbiya orqali bolalarga bilimlarni yetkazib bera olamiz”, 26 nafari “Sensor tarbiyaning ahamiyati foydasi ongi, miyasi orqali bajaradi. Shu tasavvur ular davomida saqlanadi va qo‘l keladi”, 6 nafari “Sensor tarbiyaning ahamiyati foydasi bolalar qo‘l barmoqlari harakati, ongi, miyasi orqali ish bajaradi va fikrlaydi. Xotira doirasida saqlab oladi. Sensor tarbiya-bola aqlini rivojlantiradi, fikrlash qobiliyatini oshiradi”, deb javob berganlar.

Sakkizinchi savolga 45 nafar respondentlar “Maktabgacha ta‘lim” jurnaliga chop etilgan maqolalarni o‘qiyman”, 32 nafari “YE.Xiltuninning “Gapiraman”, “Yozaman”, “O‘qiyman”, “Mustaqil bo‘lishga yordam bering”, Y. I. Fausekning “Montessori bolalar boqchasida”, “Sensor tarbiya” kitobini o‘qiyman, 26 nafari «Montessori bolalar bog‘chasi» asarlarini o‘qiganman”, deb javob berganlar.

To‘qqizinchi savolga so‘ralganlarning 35 nafari “Sensor tarbiya – nutq tovushlarini aniq farqlash va harflarning yozuvdagi shaklini ko‘rib, idrok etish ahamiyatga ega. Bolalar atrofdagi narsa, predmetlar nomini aniq aytadi. Tassavvuri kengayadi. Nima uchun kerakligini ayta oladi”, 35 nafari “Agar bola namunalar va ularning og‘zaki ifodalanishi bilan tanish bo‘lsa, uning tevarak atrofni o‘rganishi oson kechadi, u o‘zi qaraydigan buyumlarni ma‘lum bir namuna bilan taqqoslaydi hamda uning rangi, shakli, hajmi buyumning fazoviy joylashishini aytib beradi. So‘zlarni aniq talaffuz eta olishi nutqining o‘shida muhim ahamiyatga ega”, 33 nafari “Bolaning nutqi, lug‘at boyligini o‘stirishda sensor tarbiyaning ahamiyati katta, chunki bola har bir narsani ko‘radi, his qiladi, amaliy jihatdan sinab ko‘radi”, deb javob qaytardilar.

Oxirgi o‘ninchil savolga respondentlarning 28 nafari “Sensor tarbiya bola sezgi va idrokining rivojlanganlik darajasi bilish faoliyatining muvaffaqiyatini rivojlantiradi, sezish, hid bilish, ta‘m bilish, ranglar haqida tasavvurlarini rivojlantiradi, boyitadi”, 22 nafari “Bola rivojlanishida, sensor qobiliyatini rivojlantirish uchun buyumning nomi va uning nima maqsadda ishlatilishini bilishgina kifoya qilmaydi, uning barcha ichki va tashqi xususiyatlarini chuqurroq ochish muhim, sensor madaniyati unda sezgi va idrokning rivojlanganlik darajasi bilim faoliyatining muvaffaqiyati uchun muhim hisoblanadi”, 20 nafari “Bola o‘zini o‘rab turgan tabiiy tushunchalarga ega bo‘ladi: uning hissiy rivojlanishi eng yuqori cho‘qqisiga chiqish uchun va bolaning malakasini kengaytirishiga yordam beradi”, 18 nafari “Sensor tarbiya bolaning shaxs bo‘lib rivojlanishida, farqlashga, ranglarni, tanishgan narsalarga bo‘lgan munosabatini o‘zgartiradi. Bolaning fikr doirasi kengayadi”, deb, qolgan 15 nafari “Bolaning rivojlanishida sensor tarbiyaning ahamiyati katta: bolaning aqliy rivojlanishiga qo‘l motorikasining rivojlanishiga yordam beradi”, deb javob berdilar.

Ko‘rinib turibdiki, tarbiyachilar sensor tarbiya haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lsalarda, uning ilmiy asoslari, pedagogik imkoniyatlari haqida aniq bilim va tasavvurga ega emaslar. Bu o‘z navbatida tarbiyachilarni sensor tarbiya haqidagi nazariy yondashuvlardan xabardor qilish ehtiyojini kengitirib chiqarmoqda.

Amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari shuni ko‘rsatdiki, tavsiya etilgan didaktik o‘yinlar va topshiriqlar maktabgacha ta‘lim muassasalaridagi barcha guruhlarni qamrab olgan holda qo‘llanilishi mumkin. Bu o‘z navbatida sensor tarbiya vositasida bolalar nutqini rivojlantirishda kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi. Biz tajriba sinov ishlari jarayonida taqdim etilgan didaktik o‘yinlar va topshiriqlarni bolalarning yosh guruhlari qarab taqsimlash metodikasidan foydalandik. Ko‘p yillik tajribalarimizning natijalari shuni ko‘rsatdiki, maktabgacha ta‘lim muassasalarida kundalik mashg‘ulotlar jarayonida sensor tarbiya vositasida bolalar nutqini rivojlantirishda didaktik o‘yinlar va topshiriqlar muhim o‘rin egallar ekan.

Maktabgacha ta‘lim muassasalarida sensor tarbiya vositasida bolalar nutqini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri, amaliy faoliyatning alohida turlaridan foydalanishdir.

Masalan, qurish-yasashga oid amaliy vazifalarni yechish jarayonlari kuzatilayotgan bolalar sinab ko‘rish va xatolarni tuzatish yo‘li bilan o‘z muvaffaqiyatlarini ta‘minlaydilar. Bu esa, o‘z navbatida bola tomonidan idrok etiladigan shakllarni ko‘z bilan chamalab tahlil qilishlariga ko‘maklashadi. Turli shakldagi yassi buyumlarning namunalari va qismlari oyna ostiga qo‘yilib, 4-6 yoshli bolalardan ulardan qaysilari kerakligini ko‘rsatishlari talab qilinadi. Tarbiyachi har bir bola ko‘rsatgan buyum yoki uning qismlarini olib beradi. Bolalar mazkur buyum yordamida berilgan topshiriqni bajarishga kirishadi. Topshiriqni bajarish jarayonida bolalar murakkab shakllarni to‘g‘ri chizganligi, yasaganligi yoki aksincha, chiza olmaganligi, yasay olmaganligi aniqlandi. Bir qancha urinishlar natijasida buyumlarning qismlarini tanlashda xatoga yo‘l qo‘yayotganligi ma‘lum bo‘lgach, bolaga oq qog‘ozdan yasalgan, ayni paytda namunaga mos keladigan va uning elementlarini tashkil etuvchi andaza bilan ishlash topshirig‘i berildi.

Shundan keyin namunaning qanday qismlardan tashkil topganligi haqida bolalarga tushuncha berildi.

O'tkazilgan tajriba sinov ishlarining natijalari shuni ko'rsatdiki, bolalar taxminan 4 yoshidan boshlab ko'zga ko'rinadigan namunani modellashtirishning bunday usulini nisbatan osonroq o'rganishlari va natijada taqdim etilgan shakllarni ko'z bilan chamalab tahlil qilish, buyumni qismlarga bo'lish ko'nikmasini egallaganliklari ayon bo'ldi.

Maktabgacha ta'lim bosqichining yakunida bolalar tevarak-atrof, undagi voqea-hodisalar haqida aniq tasavvurga ega bo'ladilar. Bu ularning nutqlarida o'z ifodasini topadi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, faqatgina samarali tashkil etilgan sensor tarbiya vositasidagina bolalarning nutqi izchil rivojlanar ekan. Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachilarning asosiy vazifasi – bolalarga maqsadli sensor tarbiya berish uchun zarur didaktik vositalarni tanlash va ularni maqsadga muvofiq tarzda qo'llashdan iborat.

Bola muntazam tarzda buyumlar, hodisalar bilan munosabatga kirishadi. Ular orqali voqelikni anglaydi va atrofdagilar bilan muloqot o'rnatadi. Bola har doim muayyan buyumlar va voqelikka duch kelib ular bilan tanishadi, nomlarini o'zlashtiradi, ushlaydi, hidlaydi, tortqilaydi. Buning natijasida bolalarda sensor ko'nikmalar hosil bo'ladi, sensomotor tajriba va faoliyat tarkib topadi. Bu esa ularga borliqni anglash, o'z fikrini bayon qilish, atrofdagilar bilan muloqot o'rnatish imkonini beradi. Tevarak-atrofdagi buyumlar va tabiat hodisalari bolaning sezgi organlari va analizatorlariga samarali ta'sir etadi. Buning natijasida ularda sensor tajriba hosil bo'ladi. Sezgi yordamida bolalar buyumlarning ayrim xususiyatlari: sovuq-issiq, g'adur-budur, silliq-yaltiroq, xushbo'y kabilarni bilib oladilar. Sezgi bolaning atrof-muhit va til vositalarini o'zlashtirishga yordam beruvchi asosiy vositadir.

Hissiy idrok murakkab jarayon bo'lib, sezgilar yordamida hosil bo'ladi. Masalan, bola olmani qo'lida ushlaydi, uni tomosha qiladi, keyin yeydi. Biz bolalar oldiga sariq, ko'k, qizil olmalarni qator qo'yib, ulardan birini olishga undadik. Bolalar birinchi navbatda olmalar orasidan qizil ranglilarni oldilar. Bu ularda go'zallikni his etish, yorqin ranglarni idrok qilish ko'nikmasining hosil bo'lganligidan dalolat berdi. Bola olmani yaxlit narsa sifatida tasavvur qilishi uchun bir yo'la bir nechta analizatorlardan foydalanadi. Jumladan, shaklini ko'rish, go'zalligini his qilish, xushbo'yligini sezish kabi ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Boladagi bir nechta analizatorlar bir yo'la ishlashi buyumlarning xususiyatlarini to'liq, aniq idrok etishlariga ko'maklashadi. Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachilar bolalarning nutqi va idrokini to'g'ri shakllantirish uchun bir yo'la bir nechta analizatorlarning ishlashiga turtki beradigan topshiriqlardan foydalanishlari lozim.

Bolalarda nutqiy ko'nikmalarning hosil bo'lishidan oldin u tevarak-atrofdagi odamlar va buyumlar haqida kattalar yordamida tasavvurga ega bo'ladilar. Bola 1,5 - 2 yoshdan boshlab kattalarga taqlid qila boshlaydi, ularning so'zlarini tinmay takrorlaydi. Ota-onalari va tarbiyachilarining gaplarini tinglaydi, ular bajargan yumushlarni kuzatadi va o'zi ham shunday harakatlarni bajarishga intiladi. Uyg'aygani sayin bola o'zi bajarishga intilgan vazifalarni o'zlashtirishga harakat

qiladi. Bola hohish-istagi, hissiyotlari, fikrlarini ifodalashda soʻzlardan foydalanadi va ularni yanada koʻproq oʻzlashtirishga ehtiyoj sezadi. Shu bilan bir qatorda, bola ulgʻaygan sari uning nutqida qoʻllaniladigan soʻzlar mukammallashadi va kengroq maʼno kasb eta boshlaydi. Tarbiyachilar bolalar nutqini kuzatishlari, tahlil qilishlari, soʻzlar bilan ular ifodalagan buyumlar orasidagi munosabatni aniqlashlari nihoyatda zarur.

Bola 3 yoshga toʻlganda uning soʻz zahirasi 1200-1500 taga yetishi lozim. Kuzatishlarimiz maktabgacha taʼlim muassasalari tarbiyalanuvchilarida bunday koʻrsatkich yetarlicha taʼminlanmaganligini koʻrsatmoqda. Aksariyat bolalarning soʻz boyligi 650-700 tani tashkil qilmoqda. Kuzatishlarimiz bolalar kattalar nutqi, ular bayon qilayotgan fikrlarning 60 -70 % ini tushunishlarini koʻrsatdi. Sensor tarbiya vositasida bolalar nutqini rivojlantirishda ularning xotirasini mustahkamlash katta ahamiyatga ega.

Maktabgacha taʼlim muassasalarida bolalar oʻz taassurotlarini koʻrgazmali tarzda yaratilgan tasavvurlarga tayanib nutqlarida ifoda eta oladilar. Bolalar kitoblar, ertaklar, sheʼr, kuy va qoʻshiqlar yuzasidan fikr bildirishda oʻz tajribalaridan kelib chiqqan holda harakat qiladilar. Masalan, tugʻilgan kunlar, bayramlar, Qorbobo tomonidan berilgan sovgʻa, Qorbobo, Qorqiz, archa, gullar, qish manzarasi, qor haqida toʻlib-toshib gapiradilar, qoʻgʻirchoqlari bilan suhbatlar quradilar, ilk bor koʻrgan narsalaridan his-hayajonga toʻladilar. Jumladan, poyezd, samolyot, hayvonot bogʻidagi hayvonlar ularga kuchli taassurot qoldiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar kuy va qoʻshiqlarni tinglaganlarida qoʻl, bosh, oyoqlarini ohangga mos tarzda harakatlantiradilar. Harakatli oʻyinlar esa, bolaning sensor qobiliyatlarini rivojlantirishda juda muhim oʻrin egallaydi.

Hayvonlar, qushlarning ovozigina taqlid qilib ijro etiladigan sheʼr va ashulalar (yoki jismoniy tarbiya mashgʻulotlarida ham) esa nutq, idrok va xotiraning rivojlanishi, tasavvurning boyishi, erkin fikr yuritishlarini taʼminlaydi. Bola 4-5 yoshga toʻlganida koʻplab soʻzlarni mustaqil talaffuz qiladi va ular yordamida oʻz fikrini bayon etadi. Kattalar bilan bemaʼlul muloqotga kirisha oladi. Bolalar baʼzi uy yumushlari: hovliga suv sepish, xonani supurish, gullarga suv quyish, sovun bilan qoʻllarini yuvish, kiyimlarini tozalash, stollarni artish, idishlarni bir joydan ikkinchi joyga olib borishga harakat qiladilar.

Uyda tarbiyalanayotgan bola bilan maktabgacha taʼlim muassasasida shugʻullanayotgan respondentlarning nutqi orasida tafovut mavjudligi kuzatildi. Chunonchi, maktabgacha taʼlim muassasalarida sensor mashgʻulotlar yordamida bolalarning nutqi tizimli tarzda rivojlanganligi ularda hosil boʻlgan tasavvurlar va koʻnikmalar yordamida aniqlandi. Maktabgacha taʼlim muassasalarida shugʻullangan bolalar oʻz uylari, bogʻchalari, mavjud muhit, oʻrtoqlari haqida aniq tasavvurga ega ekanliklari aniqlandi.

Maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalarda ixtiyorsiz xotirasi tarkib topgan boʻladi. Bu ularning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Xayol esa bolaning hayoti jarayonida, uning faoliyatida taʼlim va tarbiya taʼsirida tarkib topadi. Bolalar syujetli oʻyinlar oʻynay boshlaganlarida, qiziqarli ertaklar tinglaganlarida, ular xayol sura boshlaydilar. Biroq, boladagi xayol aniq vaziyat bilan bogʻliq boʻladi.

Masalan: qo'g'irchoq ko'rinib qolsa uni uxlatadi, mashinasiga buyumlarni ortib o'ynaydi.

O'yinlar bolalarning tasavvur va idroklarini kengaytirish asosida ularning hissiyotlari va nutqlarini rivojlantiradi. U bolalarning obyektiv borliq, undagi voqea-hodisalarning nomlarini o'zlashtirishlariga ko'maklashadi. Bolalar o'yinlar jarayonida uy hayvonlari va parrandalarning tovushlariga taqlid qilish orqali ularning xususiyatlarini bilib oladilar va ular haqidagi yaxlit tasavvurga ega bo'ladilar.

Mashqlarni o'tkazishda geometrik shakllar, tayoqchalar, g'o'lalar, rangli qog'oz varag'laridan foydalanish mumkin. Bola shu narsalardan foydalanib, ba'zi bir buyumlarning teshiklarini ularning shakli va hajmiga qarab tegishli buyumlar bilan to'ldirishi, «narvoncha», minoracha yasashi, ularni xillariga qarab ajratishi, namunaga qarab tanlay olishi, bir-biriga o'xshashlarini alohida-alohida qilib to'plashi lozim.

Ikki yoshga qadam qo'ygan bolalar oldiga dastlab harakat bilan bog'liq bo'lgan vazifalar qo'yiladi. Masalan, sharni otish, koptokni dumalatish, kubiklarni ustma-ust taxlash, sandiqchani ochib-yopish kabilar. Shunda bolalar buyumning nomi, katta-kichikligi, dumaloq va cho'zinchoq shakllarga ega ekanligini bilib oladilar. Shu tariqa ular sensor mashqlarning yechimini topadilar. Narsalarning nomlari, o'xshash tomonlarini bilib olgan holda minora yoki uycha yasashga kirishadilar. Muntazam va xilma-xil usulda o'tkaziladigan mashqlar natijasida bolalarda o'yin faoliyati rivojlanib boradi. Ikki yoshga qadam qo'ygan bolalarning nutqini shakllantirishda o'yin faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. O'yinlar yordamida 1,5 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar bir-biridan keskin farq qiladigan shakllar: shar, kub, g'ishtcha kabilarning hajmini ajrata ola boshlaydilar. O'yinlar orqali bolalar idrok qilish, narsalarning nomlari, xususiyatlarini bilish va aqliy mashqlarni o'zlari bemalol bajarishga intiladilar. 2-3 yoshga qadam qo'ygan bolalar bilan tarbiyaviy ish olib borish amaliyotida tevarak-atrofdagi dunyoni bilib olish, u bilan tanishtirish, turli narsa va buyumlarni ko'rsatish, bolalarga ularni nomi va shaklini aytish, faqat rasmdagi narsalarni o'rgatishdan tashqari ayrim harakatlarni tasvirlab berish (masalan: qo'g'irchoq cho'milyapti, ayiqcha o'tiribdi, quyuncha sakrayapti, mushukcha uxlayapti va b...), ularning xususiyatlarini taqqoslash kabilarni talab qiladigan didaktik o'yinlarga alohida e'tibor berish zarur.

Bolalar tevarak-atrofdagi narsalarning nomlari, xususiyatlarini to'g'ri bilib, aniq idrok qilishlari uchun ularga zarur bo'lgan sensor harakatlar va sensor ko'nikmalarni hayotda qo'llay olishni o'rgatish lozim. Bola o'z oldiga qo'yilgan narsalarni namunaga qarab joylashtiradi, esida qolgan belgilarga qarab o'z harakatlarini amalga oshiradi. Buyumlarni ko'rish, ushlash orqali yoki ularning tovishiga qarab shakllarini ko'zi bilan ko'rib harakatlarini mo'ljallashi muhim ahamiyatga ega. Bu esa o'z navbatida bolalardan mustaqil fikrlash, o'z faoliyatiga sinchkovlik bilan munosabatda bo'lish, kuzatuvchanlikni talab qiladi. Buning natijasida bolada axloqiy fazilatlar tarkib topadi.

Bolalarda tevarak-atrofdagi bo'layotgan hodisalar masalan: buyumlarning nomlari, shakllari, katta-kichikligi, tuzilishi, ranglarni ajrata bilish kabilar asosida bilish faoliyati shakllanadi. Bolalar buyumlar, tabiat hodisalari, hayvonot va o'simliklar

olami bilan tanishish jarayonida ularning nomlarini bilib oladilar. Bular bola nutqining rivojlanishida alohida ahamiyatga ega. Bolalar narsalarning nomlari, hajmlari, ranglari, shakllari va fazoviy holatlarini ko'rib idrok etadilar.

Rasmda tasvirlanayotgan buyum asliga o'xshash bo'lishi uchun bola uning shakl va rang xususiyatlarini yetarli darajada aniq tasavvur qila olishi kerak. Konstruksiyalashda bola buyumlarning shakli, uning qurilishini yaxshi bilishi talab qilinadi. Bola fazoviy qismlarning o'zaro munosabatlarini aniqlab, buyumning namunadagi xususiyatlarini aslidagi bilan qiyoslay boshlaydi. Agar bolaga narsalarning tashqi xususiyatlari haqida tasavvur hosil qilinmasa, jonli va jonsiz tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarni idrok eta olmaydi. Bolada dastlabki sanash ko'nikmalarini hosil qilish, geometrik shakllar va ularning turlari bilan tanishtirish, jismlarning hajmini ularni o'zaro qiyoslash asosida aniqlashga o'rgatish talab qilinadi. Harflar va tovushlar bilan tanishtirishda esa ularning fonematik eshitish qobiliyati, nutq tovushlarini aniq idrok etish va farqlash, harflarning yozuvdagi shakllarini ko'rsatish alohida ahamiyatga ega.

Bolani maktab ta'limiga samarali tayyorlash uni maqsadga muvofiq tarzda sensor rivojlantirishga ko'p jihatdan bog'liqdir. Bir qator psixologlarning ta'kidlashlaricha, boshlang'ich ta'lim jarayonida bolalar duch keladigan qiyinchiliklar ular idrokining yetarli darajada shakllanmaganligi va moslashuvchanlik xususiyatiga ega emasligi bilan belgilanadi. Buning natijasida bolaning fikr bayon qilishi, tovush va harflarni farqlashi, yozish ko'nikmalarining shakllanishida qiyinchiliklar vujudga keladi.

Insonning ichki dunyosi, ma'naviy qiyofasi, hulq-atvori, muomalasi, odob-ahloqi, madaniyati uning nutqi orqali namoyon bo'ladi. Chunki har qanday kishining madaniyatligi, odobi, bilim darajasi, fahm-farosati, fikrlash doirasining kengligi yoki torligi, ijtimoiy hayotga tayyor yoki tayyor emasligi uning nutqida o'z aksini topadi. Kimning nutqi boy bo'lsa, kim so'zlarni adabiy til meyorlari asosida to'g'ri, aniq, ravon, ifodali va tushunarli talaffuz qilsa, o'z ona tiliga chuqur hurmat va ehtirom bilan qarasa, jamiyatda qat'iy mavqega ega bo'ladi.

Inson tomonidan moddiy borliqning to'laqonli idrok etilishini ta'minlashga qaratilgan sensor tarbiya dunyoni anglashda sezish orqali qabul qilish ko'nikmasining vujudga kelishiga asos bo'ladi. Aqliy, axloqiy, jismoniy ta'lim-tarbiyaning muvaffaqiyati ko'p jihatdan maktabgacha ta'lim muassasalarida sensor tarbiya qay darajada amalga oshirilganligiga bog'liq. Bola ulg'aygan sari undagi ta'sirchanlik ham ortib boradi. Maktabgacha kichik yoshdagi bosqichda bolalarni buyumlarning nomlari va xususiyatlari bilan tanishtirish alohida ahamiyatga ega.

Har bir mashg'ulotda bolalarga taqdim etilgan mashqlar ularda his etish orqali nutqiy ko'nikmalar rivojlanishining muayyan darajasi ta'minlanishini talab qiladi. Mazkur prinsip doirasida bolalarda buyumlar haqida har tomonlama tasavvur hosil qilish nazarda tutiladi. Bunda nafaqat buyumlarning nomi, rangi, hajmi va shakli haqidagi tasavvurlar, balki bola bilan muloqotga kirishish, bu jarayonda ovoz tempining bir maromda ekanligini ta'minlash, musiqa tinglash, qo'l va oyoq mushaklarini harakatlantira olish kabilar ham amalga oshirilishi lozim.

Sezgi orqali bola nutqini o'zgartirishga qaratiladigan turli xil mashg'ulotlar sensor tarbiya bilan uyg'un tarzda amalga oshirilishi kerak. Bu mashqlar pedagogik

faoliyatni aniqlashtirish va chuqurlashtirishni ta'minlash bilan bir qatorda, didaktik mashqlarning bola shaxsiga yo'naltirishni ta'minlaydi. Bunday mashqlar jarayonida bola nafaqat buyumlarning nomlari va xususiyatlarini bilib oladi, balki ularning ijtimoiy hayotdagi vazifalarini ham anglab yetadi.

Aksariyat hollarda sirtidan qaraganda buyumlarning ijtimoiy turmushdagi vazifalari haqida ma'lumotga ega bo'lish imkonsiz. Masalan, meva yoki sabzavotning rangi va hajmi uning pishganligidan dalolat beradi. Biroq, uning vazifalari va ro'zg'ordagi ahamiyatidan darak bermaydi. Uning ijtimoiy ahamiyati haqida tarbiyachilar mashg'ulotlar davomida bolalarga ma'lumot berishlari kerak. Shunga ko'ra sensor tarbiya buyumlarning nomlari, xususiyatlari, ijtimoiy ahamiyati, inson hayotida tutgan o'rni haqida bolalarga aniq ma'lumot berish va zarur tasavvur hosil qilishga qaratilishi lozim.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar nutqini sensor tarbiya vositasi orqali rivojlantirish samaradorligi

Ishning samaradorligini tajriba-sinov tarzida o'tkazish jarayonida o'zimiz ishlab chiqqan mashg'ulotlar yordamida bolalar nutqini sensor tarbiya vositasida rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlashga harakat qildik. Shu maqsadda 12 ta mashg'ulot tavsiya qilib ularni tarbiyachilar bilan hamkorlikda o'tkazishga muvaffaq bo'ldik.

3 oylik bolani shakli boshqacha bo'lgan narsalarni farqlashga o'rgatish metodikasi ishlab chiqilayotganda hatto yorqin bo'lmagan yangi buyumga nisbatan unda qiziqishning mavjudligi, mazkur yosh davriga xos xususiyat ekanligi olimlar tomonidan isbotlangan. Yangi buyum yoki hodisaga munosabat bola narsaning aynan qaysi xususiyatlarini farqlashga intilishini aniqlashga xizmat qiladi. Aynan bir buyum bir necha kun mobaynida bolaning diqqat markazida tursa, mazkur narsa uning diqqatini jalb etmay qolgunga qadar olib qo'yilmasligi kerak. Shundan keyingina mazkur buyum oldiga o'zining nomi, xususiyati va shakli bilan farq qiladigan boshqa o'yinchoq qo'yilishi mumkin. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, bola mazkur buyumning oldingisidan farq qiladigan shaklini tezda payqaydi.

3 oylik go'dak to'rtburchak, to'g'riburchak, prizma, kub, shar, silindr, kvadrat, aylana, uchburchak singari turli shakllarni ajratadi va o'zaro farqlaydi. Bolada narsalarning rangini farqlay olish xususiyatini aniqlash uchun ular bilan kuzatishlar o'tkazildi. Bunda mashg'ulotlar siljiyotgan narsani kuzatish ko'nikmasiga ega bo'lgan 20 kunlik chaqaloqlar bilan tashkil etildi. Chalqancha yotqizilgan bolaning diqqatini jalb etish uchun uning ustida qizil rangli shiqildoq harakatlantirilib o'ynatildi. Bolaning shaqildog'ni tomosha qilish vaqti qayd etildi. Mazkur o'yinchoq bola ko'z ongida 3 kun davomida saqlandi. So'ngra u yorqinroq rangdagisi bilan almashtirildi. Bolaning yangi shaqildoqni kuzatish vaqti ham qayd etildi. Qizil rangdagi o'yinchoqni ilk marta ko'rgan bola uni 5 daqiqagacha tomosha qilishi ma'lum bo'ldi. Bola borgan sari o'yinchoqqa kamroq e'tibor qarata boshladi. Uchinchi kuni esa uni hattoki sezmasligi aniqlandi. Faqatgina o'yinchoqni kattalar qimirlatganda e'tibori o'sha tomonga qaratildi. Qizil rangli o'yinchoq boshqa rangdagisi bilan almashtirilganda, bola uni yana uzoq vaqt 5-7

daqiqqa mobaynida tomosha qilib turdi. Bu esa 20 kunlik chaqaloqlarda ranglarni farqlay olish ko'nikmasi borligini anglatadi. Bolaning turli rangdagi narsalarni farqlashi bir qadar qiyinligi ham kuzatishlarimiz davomida aniqlandi. 7 kunlik chaqaloqni kuzatish uchun turli rangdagi: qizil, sariq, yashil, ko'k, pushti halqalar harakatlantirildi. Halqalar o'ngga, chapga, pastga qarab silkitildi, yaqinlashtirildi va uzoqlashtirildi. Agar bola aralash holdagi buyumlarni kuzatishni o'rgangan bo'lsa, bunday sharoitda ranglar hech qanday ahamiyat kasb etmasligi aniqlandi. U har qanday rangdagi halqalarni bir xilda kuzata boshladi. Bunda bolaning e'tibori muayyan rangdagi buyumga emas, balki uni o'rab turgan ranglar umumlashmasiga qaratildi.

Quyoshli yorug' kunlarda bolalar astoydil ko'k va yashil rangdagi buyumlar aralashmasini kuzatishadi. Bulutli kunlarda esa, sariq va qizg'ich rangli narsalarni kuzatishni yoqtirishadi. 7-16 kunlik chaqaloqlar esa 5-7 sm oraliqda harakatlantirilgan halqalarni diqqat bilan kuzatadilar, 70-80 sm uzoqlikdagi 3-10 sm.li halqalar esa ularning nazaridan chetda qolib ketaveradi. 1-2 oylik chaqaloqlar turli rang, hajm va shakldagi buyumlarni juda teran farqlay oladilar. Lekin mavjud pedagogik tajribalarda bolalarning buyumlar belgilarini farqlash davri ancha kech ko'rsatilgan.

So'nggi kuzatishlar bu sohadagi qarashlarga o'zlashtirishlar kiritishni taqozo qilmoqda. 3,5 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarda ranglarning nomi va farqlarini anglash jarayoni bir qadar sekin kechadi. Kichik yoshdagi bolalarda narsalarning asl nomlarini o'zgartirib o'zlaricha atash hollari uchraydi. Buyumlarning nomlarini bu tarzda o'zlashtirish ular uchun qulay bo'lib, bunda rangni his qilish jarayoni tezlashadi. Masalan: bolalar uchun to'rtqirrali g'isht yoki kubning nomi oson va tushunarli hisoblanadi, tom – uchburchak prizma, oval shaklidagi narsalarning nomlari bodring yoki tuxum bilan qiyoslagan holda o'zlashtiriladi.

3 yoshli bolalarda narsalarning ranglarini ular bilan bog'lagan holda atash holati kuzatilmaydi. 2 yoshli bola qizil rangni aytib turib, yashil yoki boshqa rangdagi narsalarni ko'rsatishi mumkin. Chunki bu yoshdagi bolalarda narsalarning rangi va nomi orasidagi aloqadorlikni tasavvur qilish ko'nikmasi yetarlicha shakllanmagan bo'ladi.

Rang nomini ifodalovchi so'zlarning bolalar nutqida tasodifan boshqa ma'noda qo'llanishi ham uchraydi. Masalan: kattalar bolasidan "Sumkani nega olding?" deb so'rganida boladan "har ehtimolga qarshi" degan javobni oladilar. Kattalarning "Qanaqa ehtimolga qarshi?" degan savoliga esa, bola o'zicha oydinlik kiritmoqchi bo'ladi va "havo rang ehtimoli" deb javob beradi. Ko'rinib turibdiki bola "qanaqa" degan so'roqni faqatgina rangga nisbatan ishlatish mumkin, deb qabul qilgan. Faqat 5 yoshga yetgandagina bolalarda ranglarni ifodalovchi so'zlarni aniq o'z o'rnida qo'llash ko'nikmasi shakllana boshlaydi.

Narsalarning hajmini ifodalovchi so'zlarni bolalar qanday o'zlashtirishini tahlil qilamiz. Ma'lumki, hajmni ifodalovchi so'zlar katta hamda kichik tarzida ishlatiladi. Mazkur so'zlarni bola o'z nutqida tez-tez ishlatadi, shu bois aniq qayd etish, tushuncha berib o'tish talab etilmaydi. Jumladan, 1 yoshli bola unga aytilgan so'zlarni quyidigicha anglaydi, o'z oyoqlarida yurishing lozim, chunki sen katta

bo‘lib qolding, xuddi shu paytda bolaga tanbeh berib: “sen hali juda kichkinasan, uxlashing kerak”, deyish mumkin emas.

Kattalarning hajm haqidagi tushunchalarini bolalar o‘z tajribalariga asoslangan holda qabul qiladilar. Masalan, 3 ta turli hajmdagi koptoklar haqida birinchisi katta, ikkinchisi juda katta, uchinchisi esa ulardan kichikroq deb tushuntirish lozim. Mazkur holatda bolalar o‘z yoshidagi katta-kichiklik bilan buyumlar hajmini ifodalovchi katta-kichiklikdagi farqlarni bir xil mazmunda qabul qiladilar. Nima uchun shunday? Mazkur savolga javob topish uchun 1 yoshu - 6 oylikdan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarga turli xildagi topshiriqlar berildi. Ular namunaga qarab tegishlilarini topib birlashtirish va buyumlarning ranglari, xususiyatlarini farqlashga o‘rgatadilar. Bularning barchasi maktabgacha ta’lim muassasalaridagi mashg‘ulotlar jarayonida bolalarga topshiriqlar sifatida taqdim etildi. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar uchun topshiriqlarning qay biri osonroq ekanligini aniqlash maqsadida murakkablik darajasi bilan o‘zaro farq qiladigan bir nechta variantdagi vazifalar berildi. Shu bilan bir qatorda, namunaga qarab tanlash mashqi davomida quyidagilar inobatga olindi: ranglar o‘rtasidagi kam seziladigan farqlar, namuna va tanlash uchun berilgan buyumlar orasida muayyan masofaning bo‘lishi, turli so‘zlar va buyumlarning nomlarini ifodalovchi tushunchalar singdirilishi lozim.

Topshiriqlarda qizil, pushti, sariq, yashil rangli buyumlardan foydalanildi. Dastlabki 2 mashg‘ulotda bolalar qizil va yashil rangdagi buyumlarni guruhlarga ajratdilar. 1-mashg‘ulotda bolalarga 2 ta 4x18 sm o‘lchamdagi yashil va qizil rangdagi silliq karton bo‘lagi hamda 6 ta aylanalalar (3 ta qizil va 3 ta yashil) berildi. Aylanalarni kartondan yasalgan “yo‘lakcha”ga shunday joylashtirish lozimki, ular bir-birlarining ortlariga berkinishlari kerak. Topshiriq bir xil rangdagi buyumlarni ajratish va guruhlashdan iborat bo‘lganligi uchun ham ular bir xil rangdagi aylanalarni ajratib oldilar va guruhlادilar. Bunda aylanalalar yo‘lak va aylana rangiga nomutanosib ekanligi kuzatildi.

2 - mashg‘ulotda bolalarga 5 ta yog‘och to‘sindan iborat minora (bir-birining ustiga qo‘yilgan) ko‘rsatildi, ularning barchasi bir xil rangda: qizil yoki yashil bo‘lishiga e‘tibor qaratildi. Bolalarga 5 ta yashil, 5 ta qizil yog‘och to‘sin aralashtirilgan holda berildi va ularga xuddi namunadagidek bir xil rangdagi “minora” yasash vazifasi topshirildi. Agar bola bir xil rangdagi buyumlarni ajratib ololmasa va ularni tegishli tartibda joylashtirolmasa, kattalar ularga yordam berishlari kerak. Agar bola buyumlarni 1marta bo‘lsa-da tartibsiz ravishda, lekin ranglarni mos tushirib guruhlash tirgan bo‘lsa, mashq to‘g‘ri bajarilgan hisoblanadi. Ikkinchi mashq oldingisi kabi turlicha bajarilishi mumkin, lekin topshiriqni bajarishda ranglarni to‘g‘ri tanlashga qat’iy rioya qilish talabi ularga qiyinchilik tug‘diradi. Keyingi mashg‘ulot talabiga binoan 2 xil rangdagi yog‘och to‘sindan bittadan tanlab olish lozim edi. Bunda yuqoridagi talablarni to‘g‘ri bajarish muhim ahamiyatga egaligi yaqqol namoyon bo‘ldi.

3-topshiriqni bajartirish uchun bolaga qizil va yashil rangdagi yog‘och to‘sindan bittadan berildi. U yog‘och to‘sinlarni ko‘zdan kechirib bo‘lgach, qizil yoki yashil yog‘och to‘sin ko‘rsatildi va o‘zida mavjud bo‘lgan xuddi shunday yog‘ochni topish vazifasi berildi. 4-mashg‘ulotda ham xuddi shunday topshiriq bajaritildi. 5-

mashg'ulotda esa 2 ta bir-biriga o'xshash rang- tus jihatdan yaqin bo'lgan qizil to'sinlarni topish vazifasi berildi. Topshiriq 3-mashqdagi kabi bolalar tomonidan bajarildi.

6-mashg'ulotda 3-mashg'ulotdagi singari bolalarga qizil va yashil rangdagi buyumlar berildi. Buyumlar namunasi va tanladigan ranglar bolalarga orasi 15 daqiqa bilan ko'rsatildi. Bolaga yog'och to'sin berib yaxshiroq qarab olish ya'ni xotirasida ranglarni saqlab qolish zarurligi uqtirildi. Keyin esa mazkur o'yinchoq yashirib qo'yildi va boladan uni topish talab qilindi. Stol ustida esa oldindan yashil va qizil rangdagi yog'och to'sinlar qog'oz bilan berkitilgan holda tayyorlab qo'yildi. 15 daqiqadan so'ng qog'ozlar stolda yotgan buyumlar ustidan olindi va boladan: "Qani sening o'yinchig'ing? Qaysi biri sendan bekindi?" deb so'raldi. Bolalarning qiziqishlari so'nmasligi uchun tarbiyachilar yog'och yashirib qo'yilganidan so'ng, quyidagilarni ta'kidladilar: "O'yinchoq qochib ketdi va berkinib oldi. Endi esa yashiringan joyidan chiqadi. Ana u!".

7-8-mashg'ulotlarda bolalarga qizil va yashil to'sin berildi. Dastlab bola namunadagiga o'xshash shakldagisini topishi lozim (3-mashg'ulotdagi kabi). Bunda ranglar nomini ifodalovchi so'zlar kiritildi. YA'ni, qizil rangli yog'ochni ko'rsatib "bu qizil rangli yog'och"; yashil rangdagi yog'ochni ko'rsatib "bu yashil rangli yog'och" deb bolalarga tushuncha berildi. Shundan keyingina bolalar nomi aytilgan va ko'rsatilgan buyum namunasi topib uni tarbiyachiga berdilar.

8-mashg'ulotda bolaga yana qizil va yashil rangli yog'och ko'rsatildi va rang-tusni ifodalovchi so'zlarning talaffuziga urg'u berildi. Keyin esa buyum ko'rsatilmay, faqatgina uning rangini ifodalovchi so'z aytildi, bolalar yashil yoxud qizil rangli buyumni topib tarbiyachiga berdilar.

Keyingi 2 mashg'ulotda buyumning rangi o'zgartirilib, unga qiyoslagan holda so'zlar aytildi. Masalan, 9-mashg'ulotda bolaga sariq yog'och to'sin ko'rsatilib, uni tulkicha deb tushuntirildi. Sabzirangni ko'rsatib, uni olmaxon deb tushuntirildi. So'ngra tarbiyachi bolalarga sabzirang va sariq yog'ochni ko'rsatdi va bolalardan o'zlarida bor buyumlar orasidan xuddi shunday "tulkicha" va "olmaxon"ni topib ko'rsatishni talab qildi.

10-mashg'ulotda buyum ko'rsatilmay turib, uning qiyoslanma nomi aytildi. Bolalarga buyumlar tarqatildi. Sariq – tulkicha, sabzirang – olmaxon ekanligi yana bir bora takrorlandi. Keyin bolalarga tulkichani tarbiyachiga topib berish vazifasi yuklatildi.

Har bir mashg'ulotda buyumlarni namunaga qarab tanlashga oid topshiriqlar 4 marotaba berildi. Bolalarning e'tibori buyum turgan joyga qaratilib, ularning eslab qolish va idrok etish darajalari tarbiyachi tomonidan zimdan kuzatildi. Mashg'ulotlar davomida takroriylikka yo'l qo'yilmadi. Agar 1-mashg'ulotda bolaga yashil rangdagi buyum ko'rsatilsa, 2-mashg'ulotda qizil, 3-sida esa ko'k rangdagi narsalar ko'rsatilishi lozim). Bunday mashg'ulotlar bolalarning idrok etish imkoniyatlarini kengaytirib, ularni faollashtiradi, ko'rsatilgan buyum namunasi bilan o'zidagi narsalarning rang-tusi, hajmi, shaklini solishtirishga o'rgatadi.

Bolalar mashg'ulotlarda berilgan har to'rtala topshiriqni to'g'ri yechsalar, vazifalar to'liq bajarilgan hisoblanadi. Agar bola 3 ta topshiriqni to'g'ri bajarib, bitta xatoga

yo‘l qo‘ysa, unga 4-topshiriqni bajarish uchun imkoniyat beriladi. Agar takror javobda ham bola xatolikka yo‘l qo‘ysa, u erishgan natija salbiy baholanadi.

Quyidagi mashg‘ulotlar elementar konstruktiv xarakterga ega.

11-mashg‘ulotda bolalarga 2 ta kubik namunasi ko‘rsatildi: ular qizil va sariq to‘sinlarni ishlatgan holda minoralar yasadilar. Topshiriq har gal yangicha namunada 4 marta berildi.

12-mashg‘ulotda ranglariga qarab buyumlar galma-gal almashinadi. Tarbiyachi 2 ta yashil va 2 ta qizil yog‘och bo‘lakchani galma-gal almashtirdi: qizil, yashil va yashil, qizil. Bolaning diqqati ranglarga qaratildi. Tarbiyachi bolaning barmog‘ini buyumga tekkizgan holda: “Bittasi boshqacha, bittasi boshqacha” deb ranglarning farqiga urg‘u berib o‘tdi. Keyin bolaga 2 ta qizil va 2 ta yashil yog‘och to‘sin berilib, xuddi shunday yo‘lak yasash topshirildi. Mashq 4 marta takrorlanadi va agar bola 1 marta bo‘lsa ham narsalarni to‘g‘ri aralashtira olsagina topshiriq to‘g‘ri bajarilgan hisoblanadi. Tashkil etilgan mashg‘ulotlar 2 yoshdan – 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar narsalarning rang-xususiyatlarini to‘g‘ri farqlay olishlari va anglashlari nechog‘lik qay darajada ekanligini tavsiflash imkonini berdi. Turli topshiriqlarni bajarish jarayonida bolalar buyumlarning rang xususiyatlari turli umanligini anglab yetdilar. Bolalar uchun bir xil rangdagi narsalar bilan bog‘liq topshiriqlarni bajarish oson kechdi. Namunada ko‘rsatilgan rangdagi buyumga o‘xshashini topish topshirig‘ini bolalar bir qadar qiyinchilik bilan o‘zlashtirdilar. Eng oddiy mashqlarni bajarishda narsa xususiyatini his qilmay turib ham ularni o‘zlashtirdilar. Buyumlarni guruhlashga oid topshiriqlar bolalarning tanlangan ranglarga munosabatlarini aniqlash imkonini berdi. Namunada ko‘rsatilgan buyumga o‘xshashini topish mashqini doimiy ravishda bajaradigan bolalar bu sohada muvaffaqiyatga erishdilar. Buyumlarni o‘zaro taqqoslash bolalar uchun bir qadar qiyinchilik tug‘dirdi. Ma‘lum bir rangni tanlab olib, namunada qanday rangdagi narsa ko‘rsatilganidan qat‘iy nazar har gal o‘sha buyumga murojaat qildilar, bir guruh bolalar buyum turgan joyga e‘tibor qaratdilar.

Konstruktiv ko‘rinishdagi mashqlarni bajarish jarayonida bolalar birvarakayiga buyumning 2 ta belgisi: joylashishi va rangiga e‘tibor berishi bir qadar qiyin ekanligi ayon bo‘ldi. Ko‘rsatilgan namunaga e‘tibor bermagan holda bolalar uni anglay boshladilar. Aksariyat hollarda bolalar namunaga e‘tibor bermasdan, muayyan buyumlarni o‘rganishga kirishdilar.

Bola o‘zi o‘rganayotgan buyumning rangini o‘zlashtirishi, uning nomini bilishi uchun to‘siq bo‘lolmaydi, aksincha ko‘maklashadi. Bu esa 2-3 yoshli bolalarda rangni farqlash ko‘nikmasining shakllanganligidan dalolat berdi.

Buyumlarni ko‘rgazmali o‘zlashtirishga undash va uning bolalar tomonidan anglanishi, ya‘ni, namunadagi rangni eslab qolish majburiyatining qo‘yilishi ularning namunaga qarab mashqni bajarishdagi muvaffaqiyatlarini keskin pasaytiradi. Buyumlarning ranglari va xususiyatlarini anglashda ayniqsa, bolalar tomonidan nomlanishi samaralidir.

Ranglarni anglash darajasi bolaning yoshi bilan bevosita bog‘liq. Bunday ko‘nikmalar buyumlarning rangini anglashni talab etadigan topshiriqlar yordamida tarkib topadi. Ayniqsa, bola buyumning rangini ifodalovchi so‘zni aytmasdan turib uni ko‘rsatganda yaqqol namoyon bo‘ladi. 2 yoshgacha bo‘lgan bolalar bunday

topshiriqlarni deyarli bajara olmaydilar, bolalarning 1/4 qismi 2 yoshdan – 2 yoshu 6 oygacha bo‘lganlari va 1/2 qismi, 2 yoshu 6 oydan yuqori davrda bunday topshiriqlarni bajara olishlari kuzatildi. Yoshi ulg‘aygan sari nafaqat bola tomonidan bajarilgan topshiriqlar soni ko‘payadi, balki ularni yechish imkoniyatlari ham kengayib boradi. Muayyan rangni tanlash va har doim uni ko‘rsatish kichik maktabgacha yoshdagi bolalarga xos bo‘lsa, katta guruhdagi bolalar topshiriqlarni maqsadga muvofiq tarzda bajaradilar. Ular o‘z qo‘llaridagi buyum bilan namunadagini diqqat bilan solishtirib ko‘radilar. Bu esa bolalar berilgan topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarilishiga imkon beradi.

Buyumning boshqa xususiyatlari – shakli namunadagi narsadagiga o‘xshatishini biroz qiynalib bo‘lsada topish, turli buyumlar yordamida topshiriqlarni bajarishdan ko‘ra bolalar uchun qiyinroq ekanligi kuzatildi. Jumladan, turli shakldagi buyumlarni ko‘rsatilgan teshikka otish, bunda bolalardan ko‘zlari bilan chamalab sharni kvadrat shakldagi teshikka otish talab qilindi. Agar harakat noto‘g‘ri amalga oshirilsa, bola sharni qo‘li bilan itarib teshikka kiritishi lozim. Kichik yoshdagi bolalar buyumning shaklini aniq tasavvur qila olishlari uchun tarbiyachi ularning qo‘llarini mazkur buyumning shakli bo‘yicha yurgizishga ko‘maklashishi kerak. Shundan so‘ng bolaning xotirasini sinash uchun undan ushbu mashqni mustaqil ravishda bajarish talab etiladi.

Tajriba-sinov ishlari yakunida sensor tarbiya vositasida bolalar nutqining rivojlanganlik darajasini quyidagi mezonlar yordamida aniqlashga muvaffaq bo‘ldik:

- bolalar ongining taassurotlarga boyligi;
- bolalarda kuchli hissiy idrokning mavjudligi;
- harakatlanuvchi, yorqin o‘yinchoqlarni kuzatish ko‘nikmalarining shakllanganligi;
- turli shakl va hajmdagi narsalarni farqlash ko‘nikmasining tarkib topganligi;
- buyumlarning rangi, shakli va hajmini farqlay olishlari;
- narsalarning sifat va belgilarini ajrata olishlari;
- buyumlarning rang va shakllarini ifodalovchi so‘zlarni bilishlari;
- ikki xil hajmdagi narsalar orasidagi munosabatlarni tasavvur qila olishlari;
- sensor etolonlar haqidagi tasavvurlarga ega bo‘lishlari;
- grammatik qo‘shimchalarni to‘g‘ri qo‘llay olishlari;
- ixcham gaplar tuzishlari;
- o‘z fikrlarini bayon qila olishlari;
- ertaklar va she‘rlar mazmunini tushina olishlari;
- tarbiyachi o‘qib bergan ertaklar mazmunini so‘zlab berishlari;
- fazoviy munosabatlarni idrok eta olishlari;
- o‘zlari ko‘rgan hodisalarni hikoya qilib bera olishlari.

Biz tajriba-sinov ishlari jarayonida o‘z kuzatishlarimizni tajriba hamda nazorat guruhlarida amalga oshirdik. Tajriba guruhlarida sensor jarayonlar biz taklif etgan ishlanmalar asosida amalga oshirildi.

## XULOSALAR

Ta'lim-tarbiya jarayoni keng qamrovli va davomli jarayondir. Shunga ko'ra, shaxsni har tomonlama kamol toptirish, ta'lim jarayonining muhim vazifalaridan biridir. Uzoq asrlar davomida ajdodlarimiz bolalarning zehni va nutqini rivojlantirish ustida uzluksiz ish olib borganlar va o'z tajribalarini avloddan-avlodga uzatganlar. Bola tug'ilgach yetti yoshgacha ularga sensor tarbiya berish qonuniyatlari ko'plab mutaxassislar tomonidan asoslab berilgan bo'lib, navbatdagi muhim vazifalardan biri, bolalar nutqini rivojlantirishda sensor tarbiya imkoniyatlaridan foydalanish sohasida muayyan ilmiy asoslarni vujudga keltirishdan iborat edi.

Biz izlanishlarimiz davomida xuddi mana shu sohada muayyan tajribalarni qo'lga kiritdik va ularni nazariy-eksperimental jihatdan asoslashga harakat qildik. O'z ilmiy yondashuvlarimiz asosida quyidagi xulosalarga keldik.

1. Maktabgacha ta'lim amaliyoti hamda pedagogik-psixologik manbalarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogika fanida sensor tarbiyaning bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishda keng imkoniyatlarga ega ekanligi pedagogik-psixologik jihatdan yetarlicha asoslab berilgan bo'lsada, ta'lim amaliyotida ushbu imkoniyatdan foydalanilmayapti.

2. Bola jamiyatning a'zosi, mukammal shaxs sifatida muayyan ijtimoiy muhitda kamol topar ekan, uning butun bilish jarayonlari, o'ziga xos xususiyatlari va ruhiy holatlari, ongi ham rivojlanadi. Bunda sensor tarbiya imkoniyatlaridan foydalanish kutilgan samaradorlikka erishishga ko'maklashadi.

3. Sensor tarbiya vositasida bolalarning idroki, tasavvuri, ongi, nutqi izchil rivojlanadi. Bunda maktabgacha ta'lim jarayoni alohida qulaylikka ega.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarning sensor tarbiyasi masalalarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, sensor tarbiyaning mavjud tizimi bolalarni faqat idrok qilinadigan xislatlar bilan tanishtirishnigina emas, shu bilan birga ularda bu xislatlarni ajratib ko'rsatish va takrorlash imkoniyatini beradigan his etib mo'ljallash harakatlarini tarkib toptirishni ham nazarda tutadi.

5. Nazariy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, sensor jarayonlar bolaning dunyoni anglashiga ko'maklashadigan dastlabki bosqich sifatida namoyon bo'lib, uning tasavvurlarini kengaytirish orqali nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

6. Sensor tarbiya jarayonida bolalar hissiyotlar orqali atrof muhit, undagi narsalar va voqea-hodisalarni anglash, tushunishdan fikrlash, undan esa intellektual faollikka bosqichma-bosqich o'tadilar. Shu bilan bir qatorda, sensor etolonlar bolalar faoliyatini amaliy rivojlantirish jarayonida asosiy o'rin egallaydi.

7. Sensor tarbiya turli xil rang, hajm, shakldagi buyumlar orasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlash va uni bola tasavvuriga singdirishda muhim ahamiyatga ega.

8. Maktabgacha ta'lim jarayonida sensor tarbiya va sensor etolonlarni taqdim etish bolalarni har tomonlama rivojlantirishda alohida o'rin egallaydi. Shuning uchun ham bolalar nutqini rivojlantirishda sensor tarbiyadan foydalanishga yo'naltirilgan pedagogik tizimni ishlab chiqish pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bunda asosiy e'tibor his qilish organlari faoliyatini turli mashg'ulotlar

orqali rivojlantirishga emas, balki bolalarning turli-tuman faoliyatlarini tashkil etish asosida ularning sensor imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltiriladi.

9.Maktabgacha ta'lim jarayonida sensor tarbiya vositasida bolalarning nutqini rivojlantirish asosida ularning amaliy faoliyat ko'rsatish doirasi kengayadi. Bunday rivojlanish ayniqsa, ilk bolalik davrida yaqqol namoyon bo'lishini mavjud tajribalar hamda pedagogik-psixologik izlanishlar ko'rsatmoqda.

10.Ma'lumki, bola nutqining shakllanishi fikrlash imkoniyatining kengayishi va shaxsiy rivojlanishning jadallashuvini ta'minlaydi. Bunday rivojlanish jarayoni sensor ko'nikmalarni shakllantirish va muntazam rivojlantirish asosida amalga oshiriladi.

11.Maktabgacha ta'lim muassasalarida sensor tarbiya vositasida bolalar nutqini rivojlantirish jarayoni o'zining muayyan mazmuniga ega bo'lib, mazkur mazmun aniq didaktik tamoyillar va qonuniyatlarga tayanilgan holda tanlanishi lozim.

12.Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini sensor tarbiya vositasida rivojlantirish ularga jamiyat a'zolari tomonidan yaratilgan ijtimoiy tajribani taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

13.Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ijtimoiy tajribani bolalar maxsus tashkil etilgan didaktik jarayonlar va shaxslararo muloqot yordamida o'zlashtiradilar.

14.Sensor tarbiya vositasida bolalar nutqini rivojlantirish jarayoni oldiga muayyan vazifalar qo'yiladi. Jumladan, nutqning tovush jihatini singdirish, bolalar lug'atini boyitish va faollashtirish, nutqning grammatik qurilishini idrok etishga o'rgatish, bolalar adabiyotiga qiziqishni tarbiyalash va uni tushunish ko'nikmalarini tarkib toptirish kabilarni o'z ichiga oladi.

15.Sensor tarbiya vositasida bolalar nutqini rivojlantirish jarayoni subyekt-subyekt munosabatlari asosida tashkil etiladi va tarbiyachilar tomonidan boshqariladi.

16.Sensor tarbiya vositasida bolalar nutqini rivojlantirish jarayoni mahsuldor usullar va metodlar yordamida tashkil etish natijasidagina samaradorlikni ta'minlash imkoniyati vujudga keladi.

17.Tarbiyachilar bilan amalga oshirilgan suhbatlar va tashkil etilgan anketa so'rovlarining natijalari shuni ko'rsatdiki, ular sensor tarbiya haqida umumiy tasavvurga ega bo'lsalarda uning o'ziga xos xususiyatlari, didaktik imkoniyatlari, mazkur tarbiyani tashkil etish metodlari haqidagi nazariy bilimlarga yetarlicha ega emaslar.

18.Sensor tarbiyaning bolalar nutqini rivojlantirishdagi imkoniyatlari, uni qo'llash usul va metodlari, sensor mashg'ulotlarni tanlash prinsiplari va amalga oshirish yo'llari bilan tarbiyachilarni qurollantirish maktabgacha ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda alohida ahamiyatga ega.

19.Sensor tarbiya jarayonlari asosan o'yin mashg'ulotlari, mashg'ulotdan tashqara sayohatlar va didaktik topshiriqlar yordamida tashkil etilishi lozim.

20.Tajriba guruhlarida tashkil etilgan sensor jarayonlar bolalar nutqini rivojlantirishda sensor tarbiya katta didaktik imkoniyatlarga ega ekanligini asoslash imkonini berdi.

#### TAVSIYALAR

1.Tarbiyachilarni sensor tarbiya vositasida bolalar nutqini rivojlantirishga oid nazariy yondashuvlar hamda amaliy ishlanmalar bilan qurollantirish.

2. Sensor tarbiya jarayonini tashkil etish metodikasini ishlab chiqish.
3. Malaka oshirish kurslari mazmunini sensor tarbiya vositasida bolalar nutqini rivojlantirishga xizmat qiladigan ilmiy metodik tavsiyalar va ilg'or texnologiyalar bilan boyitish.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Karimov I. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent: Sharq 1999.
2. O'zbekiston Respublikasida Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizom // Maktabgacha tarbiya. T.:2000. 1-son.
3. Abdakimova M. K. Organizatsionna-pedagogicheskiye osnovi razvitiya sistemi doshkolnogo obrazovaniya v respublike Uzbekistan (1991-2000gg.). TDPU-2004; 174s. Diss. na sois. uchen. step. kan. ped. nauk.
4. Abidjanova S.D. Sootnosheniye obraznix i rechevix sredst v razvitiy prostranstvennix predstavleniy doshkolnikov. Avtoref. M-1990g., 16 s.
5. Abdullayeva Sh.A. Formirovaniye sensornogo opita i metodika yego organizatsii u dutyey rannego vozrasta. Avtoreferat. M-1975g.
6. Abdullayeva Shohida. Ilk yoshdagi bolalarning sensor tarbiyasi. Toshkent – O'qituvchi, 1983y., 96 b.
7. Abdullayeva Sh.SH. Pedagogicheskiye texnologii razvitiya poznavatelnix tvorcheskix sposobnostey mladshix shkolnikov. Dis... kan. ped. Nauk: 13.00.01. R UZ Uzb NII ped. Nauk im. T.N.Kari-Niyazova T., 2005.-230s. prilozheniye: s. 121-230. T.,
8. Adriyanova V.I. Teoriya i praktika obucheniya uzbekskix shkolnikov ustno rechevomu obsheniyu na russkom yaziku: Dis. ...dok. Ped. Nauk / Uz NII ped. Nauk. Im T.N.Kari-Niyani. – T., 1997. – 350s.
9. A.N.Gvozdev. «Voprosi izucheniya detskoy rechi». – M., 1984. 24 s.
10. Appilova N.V. Psixologicheskiy analiz roli lichnostnoy znachimosti sodjaniya viskazivaniya v rechevoy deyatel'nosti: Avtoreferat...kand .psix. nauk. (19.00.07). – M., 1984. 24 s.
11. Arushanova A. Doshkolniy vozrast: formirovaniye grammaticheskogo stroya rechi: voprosi teorii // Jurnal «Doshkolnoye vospitaniye». M.: - 1993.№ 9., str: 58-65.
12. Arushanova A. Formirovaniye grammaticheskogo stroya rechi doshkolnika // Doshkolnoye vospitaniye. M.: - 1997. № 2., str: 58-63.
13. Asqarova M., Matchonov S va b. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. Toshkent "O'zbekiston" -2001, 160b.

14. Asqarxo‘jayeva M. Bog‘chalarda o‘zbek tilini o‘rganish. Bolalar bog‘chasi tarbiyachilari uchun metodik qo‘llanma. T.: O‘qituvchi – 1994, 128b.
15. Ahmedova H. O‘qituvchi nutqi madaniyati. (ma‘ruzalar matni), Qo‘qon, 2003.
16. A. Suyunov, N.Ahmedova, G. Eshturdiyeva. Nutq o‘stirish. Kichik yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash uchun qo‘llanma. “ART FLEX”, 2007, 32 bet.
17. Axundjanova S.A. Osobennosti form i funktsiy rechi doshkolnika v razlichnix situatsiyax obsheniya. Avtoreferat... kan.psix.nauk (19.00.07) – M.: 1987., 17s. MGU im. M.V.Lomonosova.
18. Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va stilistika asoslari. Toshkent, 1987.
19. Begmatov E. Nutq madaniyati problemasining paydo bo‘lishi va asoslanishi. Toshkent, “Fan”, 1973.
20. Begmatov E. Notiqning nodir boyligi. Toshkent, 1980.
21. Boshlang‘ich ta‘lim. № 3, 2008 3 mart. Ilmiy-metodik ahloqiy-ta‘limiy ommabop jurnal.32 bet (6 bet).
22. Boboyeva D.G. Tevarak-atrofnii o‘rganishda maktabgacha katta yoshdagi bolalarni bog‘lanishli nutqini rivojlantirish. 13.00.02. Avtoreferat. T – 2001y., 25b.
23. Valixo‘jayeva F.B. Talabalarni MTMda bolalarga estetik tarbiya berishga tayyorlash. Dissertatsiya. Samarqand – 2005y., 139b.
24. Vaxabova F.N. Osobennosti lichnostnogo razvitiya doshkolnika kak faktor gotovnosti k shkole. Dis....kand.psix.nauk / TashGU im. M.Ulugbeka –T., 2000. - 136str.
25. V.A.Suxomlinskiy. Bolalarga jonim fido. T.: O‘qituvchi – 1984., 264b.
26. Vetrova V.V., Smirnova YE.O. Rebyonok uchitsya govorit. M.: - Znaniye, 1988., str.: 94.
27. Galiguzova L., SmirnovaYE.O. Stupeni obsheniya: ot goda do semi let. Kniga dlya vospitatelya. M.: «Prosvesheniye» - 1992., str.: 143.
28. Gerbova V. Planirovaniye raboti po razvitiyu rechi i oznakomleniye s xudojestvennoy literaturoy // Jurnal «Doshkolnoye vospitaniye» - 1999. № 3., str.: 19-22.
29. Durdon. Bolalar uchun badiiy adabiyot xrestomatiyasi // tuzuvchi Z. Ibroximova. T.: - Cho‘lpon – 1995., 256 b.
30. Dustmuxamedova Sh.A. Psixologicheskoye osobennosti ped. otsenki v obuchenii detey shestiletного vozrasta. Avtoreferat... kand.psix.nauk (19.00.07). – M., 1987. -24s.
31. Dyachenko O.M., Lavrentyeva G.V. Psixologicheskoye razvitiye doshkolnikov . M.: - “Pedagogika” – 1984., str.: 127.
32. YE.I.Tixeyeva. razvitiye rechi doshkolного vozrasta. // Pod redaksiyey F.A.Soxina. M.: “Prosvesheniye” – 1981., str.:159.
33. Zunnunov A. Pedagogika tarixi “Sharq” nashriyoti. T.: -2004. -335b.
34. Ibrahimov I. O‘zbek milliy tilining nutq madaniyati masalalari. Toshkent, 1969.
35. Ismatov I.SH. O‘quvchilarda atrof-muhitga mas‘uliyatli munosabatni shakllantirish. T., 2006. -208b.

36. Ismoilova R. Idrok jarayoni – yetakchi omil: 6-7 yoshli bolalarga tarbiya. “Boshlang‘ich ta‘lim” jurnali – 1999., № 3., 36-37 b.
37. Yo‘ldoshev J.G‘. Aql - aqldan quvvat oladi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida ta‘lim jarayonlari xususida. “Maktabgacha ta‘lim” jurnali – 1994., № 3-4., 4-7 b.
38. Kadirova F.R. Obucheniye detey doshkolnogo vozrasta russkoy razgovornoy rechi v natsionalnix detskix sadax Uzbekistana. T.: Ukituvchi – 1992., str.: 224.
39. L.A.Venger. E.G.Pilyugina. N.B.Venger. Vospitaniye sensornoy kulturi rebyonka. // Kniga dlya vospitatelya detskogo sada. M.: “Prosvesheniye” -1988., str.: 3 – 143.
40. Leontyev A.A. Funktsii i formi rechi. – «Osnovi teorii rechevoy deyatelnosti». // A.A.Leontyev tahriri ostida. M., 1974, 254-b.
41. Lvov P.R. Rech mladshix shkolnikov i puti yeyo razvitiya. M.: - “Prosvesheniye” 1975, str.: 279.
42. L.F.Ostrovskaya. Pedagogicheskiye znaniya – roditelyam. (Materiali semiranov dlya roditeley).// Posobiye dlya vospitatelya doshkolnogo uchrejdeniya. M.: «Prosvesheniye»- 1983., str.: 90-103.
43. Mamedov K.K. Maktabgacha yoshdagi bolalar va o‘quvchilarning aqliy rivojlanish xususiyatlari. Psix. Fan. Doktor. Avtoreferat. M.Ulug‘bek nomidagi O‘zb.Mil.Uni-ti. T-2004., 50b., 19.00.07.
44. Maxkamova G.T. Formirovaniye navqkov i umeniy ustnoy inoyazichnoy rechi u doshkolnikov (5-6 let) (na primere ang. yaz.). Dis. ... kann.ped.nauk. 13.00.02. MV i SSO RUz., Uzb. Gos .univ-t miro. yaz. -T., 2004. -238s.
45. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. Toshkent, A. Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007.
46. Mirmaqsudova M.B. O‘quvchilar nutqini takomillashtirishda grammatik terminlardan foydalanishning lingvometodik asoslari (5-7 sinf ona tili darsliklari misolida). Ped.fan.nom.dis... Avtoreferat. TDPU. T -2004y., 24b.
47. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. T.: Shiituvchi, 1994. 120b. i
48. Nazarov K. Nutq madaniyatiga oid masalalar. Toshkent, 1973.
49. .Naneyshvili E.A., Chabrova T.A. Birga rasm chizamiz. // Bog‘cha tarbiyachilariga mo‘ljallangan metodik qo‘llanma. T.: - O‘qituvchi, 1992, 48b.
50. Ne‘matov H, Bozorov O. Til va nutq. Toshkent, 1993.
51. N.Boymurodov. Amaliy psixologiya. Toshkent “Yangi asr avlodi” – 2008. 81 – 217b.
52. Nurimbekova Y. Olti yoshli bolalarda ruhiy jihatlar. “Boshlang‘ich ta‘lim” jurnali – 1999., № 3., 14-15b.
53. Nurmuxamedova N.sh. Razvitiye svyaznoy rechi na russkom yazike u starshix doshkolnikov v usloviyax dvuyazichiya. Dis. ...kann.ped.nauk: 13.00.02. MV i SSO RUz., Uzb.gos.univ-t mirov. yaz. –T., 2004, -254s.
54. Obsheniye i rech: razvitiye rechi u detey v obshenii so vzroslimi. Pod redaksiyey M.I.Lisinoy. M.: «Pedagogika» 1985., str.: 207.
55. O. Hasanboyeva. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi. T.: - O‘qituvchi 1996., 86b.

56. P.Podd'yakov, V.Avanesov. Sensornoye vospitaniye v detskom sadu. Uchebnoye posobiye. Moskva-1981g.
57. P.I.Ivanov., M.YE.Zufarova. Umumiy psixologiya. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. T.: -2008. 75-357b.
58. Pilyugina E.G. Sensornoye vospitaniye detey rannego vozrasta v protsesse oznakomleniya s svetom. Avtoreferat. M -1971g., 18s.
59. Pilyugina E.G., Venger L.A. Vospitaniye sensornoy kulturi rebyonka ot rojdeniya do 6 let. Kniga dlya vospitatelya detskogo sada. M.: «Prosvesheniye» - 1987., 237s.
60. P.Yusupova. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: "O'qituvchi" – 1993., 264 b.
61. R. Rahimova. Tarbiyachiga ming bir maslahat. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2007, 160bet.
62. Radina YE.I., Penkovskaya A.A. Kartina po razvitiyu rechi dlya detskih sadov. M.: «Prosvesheniye» - 1983., str.: 206.
63. Razvitiye rechi detey doshkolnogo vozrasta. // Pod redaksiyey F.A.Soxina. M.: "Prosvesheniye" -1976., str.: 224.
64. Ro'ziboyeva O'.SH. Uzluksiz ta'lim jarayonida bolalar bog'chalari tarbiyalanuvchilari va 1 – sinf o'quvchilari og'zaki nutqini o'stirish. Dis. ... ped.fan.nomzodi.TDPU., T – 1985y., 134b.
65. Slovar inostrannix slov. In.13-ye, stereotipnoye. –M.:Rossiya, 1989, s.449.
66. Solovyeva O.I. Metodika razvitiya rechi i obucheniya rodnomu yaziku v detskom sadu. 3-nashr. M., 1966. 27-b.
67. Smirnova YE.A. Formirovaniye svyaznosti rechi starshix doshkolnikov v rasskazivanii po serii syujetnix kartin. Avtoreferat. M – 1987g., 25s.
68. Stepanova M.A. Razvitiye form i funktsiy rechi doshkolnika v igrovoy deyatel'nosti. Avtoreferat. Kand. psix. nauk (19.00.07). –M., 1987. -22s. MGU.
69. T.M.Yurtaykina. Metodika obsledovaniya rechevogo razvitiya doshkolnikov // Razvitiye rechi doshkolnika. M.: "Prosvesheniye" – 1990., str.: 127-136.
70. Tixeyeva YE.I. Razvitiye rechi detey (rannego i doshkolnogo vozrasta). 4-nashr, M., 1972, 133-b.
71. Umarova N.Z.Talabalarning o'zbekcha yozma nutqini o'stirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish texnologiyasi. Texnika oliy o'quv yurtlarining rusiyzabon guruhlarida: ped.fan.nom.diss. Avtoreferat. TDPU, T – 2007y., 21b.
72. Urazova Z.M. Didakticheskiye usloviya formirovaniye prostranstvennogo mishleniya mladshix shkolnikov. Ped. fan. nom. diss. T – 2006., 176s.
73. "Uchinchi mingyillikning bolasi" tayanch dasturi. Meyoriy hujjat. "Ma'rifat - Madadkor" nashriyoti – 2000y., 160 b.
74. F.A.Soxina. Razvitiye rechi detey doshkolnogo vozrasta. // Posobiye dlya vospitatelya detskogo sada. M.: "Prosvesheniye" 1984.str.: 4-161.
75. Fomichev M.F. Shodiyev K.S. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. T.: - O'qituvchi 1984., 128b.
76. SH.Shodmonova.Maktabgacha ta'lim pedagogikasi (o'quv-metodik qo'llanma).T., "Fan va texnologiya", 2008, 160 bet (33, 40, 72-81betlar).

77. Shodiyeva Q.S. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. T.: o'qituvchi – 1995., 226 b.
78. Shodiyeva Q.S. O'rta guruh bolalari nutqini o'stirish // Ped. bilimgozlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. T.: - O'qituvchi 1993., 224 b.
79. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Toshkent, 2002.
80. O'rinova F.O'. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari. Dis. ... ped.fan.nomzodi. T-2001y., 154b.
81. E.G.Pilyugina. "Zanyatiya po sensornomu vospitaniyu s detmi rannego vozrasta". Posobiye dlya vospitatelya detskogo sada, –M.: «Prosvesheniye» - 1983g., 284str.
82. E.G'oziyev. Psixologiya: (Yosh davrlari psixologiyasi): Ped. in-tlari va untlarning talabalari uchun o'quv qo'llanma.- T.: O'qituvchi, 1994. 70 - 224 b.
83. E.Razbayeva. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni hikoya qilib berishga o'rgatish. T.: - O'qituvchi 1975., 32b.
84. O'zbek xalq maqollari. "Sharq" nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T.: - 2005. 78 -154-208 betlar.
85. Yusupova Sh.J. Hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida o'quvchilar tafakkurini o'stirishning ilmiy-metodik asoslari (akademik litseylar misolida). Avtoreferat. ped.fan.doktori. TDPU.; T – 2005y., 46 b. 13.00.02.
86. Yanakiyeva YE.K. Oznakomleniye prirodoy kak sredstvo obogasheniya izobrazitelnoy deyatelnosti detey 4-5 let. Avtoreferat. M – 1986g., 22s.

## ILOVALAR.

Nutq o'stirish bo'yicha mujassam mashg'ulot.

(katta va tayyorlov guruhlar uchun)

I

Maqsad: transport turlarining farqini anglab olish, ularning atrof-muhitga bo'lgan ta'siri haqida suhbatlashish.

Tarbiyachi: - Tramvay, trolleybus, avtobus – transport turlari. Ular nima bilan yuradi?

Bolalar: Tokda yuradi.

Tarbiyachi: To'g'ri. Tramvay, trolleybus – elektr tokida yuradi. Avtobus va boshqa avtomobillar benzin yordamida yuradi. Samolyot ham benzin yordamida uchadi. Metro – elekt toki yordamida yuradi.

Salim: Mening dadam avtobus haydaydilar.

Razzoq: Biz dadam, oyim, ukam bilan Mustaqillik bayramida metroga tushib, buvimni ko'rgani bordik. O'shanda uning tokda yurishini bildim.

Gulchehra: Mening dadam samolyotda Samarqandga borib keldilar. Lekin men uning benzinda yurishini bilmas edim.

Hamid: Menga dadam aytdilar, ba'zi mashinalar gazda ham yurar ekan.

Tarbiyachi: To'g'ri aytding Hamid, hozir ba'zi mashinalar fan va texnika rivojlangani sababli, gazli ballonda ham yuradi. Lekin gaz yordamida yurgan mashinalar atrof-muhitga katta zarar yetkazadilar. Agar gaz meyor ko'rsatilgan normadan oshib ketsa, ekologiyaga juda katta zarar yetadi. YA'ni, atrofimizdagi yaqin-uzoq odamlarga, yashil daraxt va gullarga, bog'larga zaharli modda tarqaladi. Mana shu zaharli modda havo orqali boshqa shahar va respublikalarga ham yetib boradi. Natijada shu havodan nafas olgan bolalar hamda kattalar turli xil kasalliklar bilan betoblanadilar.

Nargiza: Gullar ham kasal bo'ladimi?

Tarbiyachi: Albatta gullar, daraxtlar ham kasal bo'ladilar. Daraxtlar o'z vaqtida mevalarini, ya'ni, hosillarini bermaydilar. Gullar esa tezda so'lib qolib uzoq vaqt gullarini ushlab turmaydi, gullari tezda to'kilib nobud bo'ladi.

Madina: Tarbiyachi opa televizorda xazonlarni yoqmang deb ko'rsatishyapti.

Dilmurod: Agar barglarni yoqsa odam kasal bo'lar ekan.

Tarbiyachi: Sizlar to'g'ri tushunibsizlar. Agar hamma buni to'g'ri tushunsa, xazonni yoqmaydi. Chunki xazondan inson organizmiga va salomatligiga katta zarar yetkazadigan hid butun atrofimizga tarqaladi. Mana shu tarqalgan havodan hammamiz nafas olamiz va natijada o'pka, yurak, qon-tomir, jigar kasalliklari kuchayadi.

Nosir: Suvni ham isrof qilmang deyapti. Menga buvam qo'lingni yuvayotganingda suvni ozgina ochib yuvgin deydi.

Tarbiyachi: Nosirning buvasi to'g'ri maslahat bergan. Agar yer yuzidagi hamma suvlar iflolsansa, ichimlik suvi tejalmasa yomon oqibatlarga olib keladi.

Nosir: Ichadigan suvimiz tugab qoladimi?

Madina: Keyin biz suvni qaydan olamiz?

Tarbiyachi: Ichadigan suvimiz tugab qolmasligi uchun vodoprovod suvining va boshqa oqib turgan suvni ko'rsangiz kranning og'zini berkitish kerak. Bizning o'lkamizda ko'llar, daryo va irmoqlar juda ko'p. Shu suv havzalari zararli moddalardan maxsus tozalanib, filtrlanib aholiga yetkaziladi. Yer tagidan o'tgan trubalar, kanallar orqali har birimizning xonadanimizga yetib keladi.

Bolalar (baravar chug'illashib): Demak suvni ham, havoni ham asrashimiz kerak ekan.

Tarbiyachi: Mana bolajonlar, transport turlari, ularning zararli oqibatlari, suv va havo haqida ancha ma'lumotga ega bo'ldingiz. Siz bugungi suhbatdan o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni bilib oldingiz.

Bunday suhbatlar bolalarning kundalik faoliyatida, sayru-sayohatlarda samarali natija berishi shubhasizdir. Buning uchun tarbiyachi ana shu suhbatlarga oldindan tayyorgarlik ko'rishi, savollar, tushuntirishlar, xulosalarni rejalashtirishni talab etadi. Chunki savollar bolalarning javob berishini taqozo qiladi, o'ylashga o'rgatadi – dialog esa, bolalar nutqini to'g'ri shakllantiradi. Bunga o'rgatish uchun o'yinlar yoki "vaziyatlar" yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada bolalarning o'zlari ham savollar berishga, izlanishga o'rganadilar.

## II

Svetofor

(o'rta guruhlar uchun)

Maqsad: Bolalar nutqini rivojlantirish. Ularga yo‘l harakatining ilk tushunchalarini singdirish. Bolalar hayotini asrab-avaylashga yordam berish. Fikrlash qobiliyatlarini kengaytirish, transport vositalaridan to‘g‘ri foydalanish, ko‘nikma hosil qilish.

Mashg‘ulotning borishi:

Nutq o‘stirish uchun.

1. Ayiq asal yaladi ko‘p-ko‘p-ko‘p,  
Arilar uni taladi xo‘p-xo‘p-xo‘p.  
Yur yordamga boraylik tez-tez-tez,  
Tartibga chaqiraylik biz-biz-biz.
2. Dada, dada, bolg‘acha bering qo‘limga,  
Otcha yasab minaylik tushsin o‘yinga.
3. Tipratikon, tikon-tikon,  
Ustingdagi ninamikan?  
Nina bo‘lsa qarzga olay,  
O‘zim tugma qadab olay.  
Oyim meni maqtasinlar,  
Senga rahmat aytsinlar.  
Tipratikon, tikon-tikon,  
Ninalaring o‘tkir ekan.
4. Uchburchakdan uchta ol,  
Qutichaga sanab sol.  
To‘rtburchakdan to‘rtta ol,  
Qo‘shavergin bemalol.
5. Yong‘ok terdim o‘ntacha  
Senga berdim beshtacha.  
Menga qoldi nechtacha?  
 $10 - 5 = ?$
6. Katta chiziq, kichik chiziq,  
Biz yozamiz uzuq-uzuq.  
Katta chiziq, kichik chiziq,  
Yozuvlarim jada qiziq.  
Aylantirib O deymiz,  
Ilmoq qilib A deymiz.  
N, O yozib, NO deymiz,  
NOga Nni qo‘shamiz  
NONni hosil qilamiz.

TOPISHMOQLAR

1. Uch kun men bilan birga ayt,  
Esingdan chiqarma hech payt:  
Baland devor – usti ochiq,  
Unda osiq
2. Shom vaqti bu yerga chop,  
Atir topishmog‘in top.  
Gurkirar har on

(qozonsochiq)

(rayxon)

3. Tizilgancha turar qip-qizil...  
Sindirsangiz – teginsangiz til  
O‘sha zahot ochiladi sir:  
Chuchuk yoki achchiq (qalampir).
4. Ne shovvoz – bu, topinglar,  
Barg ostida (bodringlar).
5. Kun ochiq , kel, sayr qil –  
Yo‘llar bizni svetofor,  
Yonar ko‘k, sariq, qizil –  
Yetiladi (pomidor).
6. Oyo-i yo‘q, qo‘li yo‘q,  
Yuz martalab qatnamagan yo‘li yo‘q,  
O‘zi sho‘x, bahrin kamol,  
Uning nomidir (shamol).
7. Do‘stingizman, foydam – soz,  
Deb uqtirar xo‘p (piyoz).
8. Yuz xil – aytsam xilini,  
Tilni yorar tilimi.  
Sog‘liq koni – sho‘x kulgu,  
Egatdagi quyosh bu;  
Yetilar issiq kunlar...  
Shakarpalak (qovunlar).
9. Qat-qat qatlama,  
Aqling bo‘lsa tashlama (kitob).
10. Past bo‘ylik, malla to‘nli (behi).
11. Kichkina dekcha ,  
Ichi to‘la dekcha (anor).
12. Yer tagida oltin qoziq (sabzi).

## MUNDARIJA

KIRISH.....	3
Maktabgacha ta‘lim muassasalarida bolalar nutqini sensor tarbiya orqali rivojlantirishning nazariy asoslari.....	7

Sensor tarbiya vositasida bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari.....	17
Sensor tarbiya vositasida bolalar nutqini rivojlantirish jarayonining mazmuni.....	28
Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar nutqini sensor tarbiya vositasi orqali rivojlantirishning usul va metodlari.....	50
Maktabgacha ta'lim muassasalarida sensor tarbiya vositasi orqali bolalar nutqini rivojlantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlarini o'tkazish metodikasi .....	73
Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar nutqini sensor tarbiya vositasi orqali rivojlantirish samaradorligi.....	85
Xulosalar.....	93
Tavsiyalar.....	97
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	98
Ilovalar.....	110